

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT

Pedagogning mahorati va kompetentligi



MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUUA



TOSHKENT-2022



Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi: TDPU huzuridagi tarmoq markazi
katta o‘qituvchi M.J.Mutalipova,
p.f.f.dok. (PhD) M.P.Imomov**

**Taqrizchi: Seul pedagogika universiteti (Janubiy Koreya),
professor. Lee Yu Mi**

***O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2022 yil 27 avgustdagi
1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	106
V. KEYSLAR.....	134
VI. GLOSSARIY	137
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	141



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Texnika va texnologiyaning kun sayin o'zgarib borishi axborotlarning shiddat bilan yangilanishi va tarqalishi zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish va yangi bilimlarga intilishni talab etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish oliy ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda o'qituvchilarning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Zero, barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi – milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, kompetentligi, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy mahorati va kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu dastur mazmunida o'qituvchi faoliyatida pedagogik mahoratning mazmun mohiyati va uni rivojlantirish yo'llari, pedagogik qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy mahoratni takomillashtirish yo'llari, pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari, pedagogik odob va pedagogik taktning axloqiy tushuncha ekanligi, o'qituvchi nazokatida dilkashlik, pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari, pedagogik muloqot, mimika, pantomimika, pedagogik faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik mahorati, o'qituvchining o'zini-o'zi boshqarish mahorati, muomala odobi, o'qituvchining tashqi qiyofasi, imidji, nutq texnikasi asoslari, pedagogik kasbiy kompetentlikning tuzilishi va mazmuni, kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o'rni, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari,



o'qituvchining kommunikativ kompetentligi, uning mazmun mohiyati va tahlili, tarkibiy qismlari, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari kabi masalalar bayon etilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarini pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlikka doir bilimlarini takomillashtirish, pedagogik mahorat va kompetentlikni qo'llashga doir zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” modulining vazifalari:

- tinglovchilarning o'qituvchi faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'rni va mazmun-mohiyatiga doir bilimlarini takomillashtirish;
- pedagogik mahoratni rivojlantirish yo'llarini aniqlashtirish;
- tinglovchilarda pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari bo'lmish pedagogik takt, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, pedagogik imidj, pedagogik refleksiya, o'qituvchining muomala odobi kabi sifatlarni yanada rivojlantirish;
- tinglovchilarda pedagogik va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalaridan o'rinli, maqsadli foydalanish ko'nikma-malakalarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- pedagogik mahorat;
- pedagogik qobiliyat va uning turlari;
- pedagogik odob va pedagogning muomala odobi;
- pedagogik takt va taktika;
- pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari;
- pedagogik kompetentlik haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

Tinglovchi:

- kasbiy faoliyatda pedagogik texnikadan foydalanish;
- pedagogik taktikani to'g'ri tanlay olish;
- pedagogik qobiliyat turlariga oid sifatlarini ko'rsata olish;
- pedagogik va kommunikativ kompetentlikni takomillashtirish;



- pedagogik artistizmga doir **ko'nikmalarni egallashi;**

Tinglovchi:

- pedagogik mahoratni namoyon etishda ilg'or tajribalardan foydalanish;
- pedagogik jarayonda pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil etish;
- kasbiy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash;
- o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash **malakalarini egallashi;**

Tinglovchi:

- pedagogik faoliyatning qayta tushunilishi va mustaqil takomillashtirilishini ta'minlovchi mustaqil tahlilni egallash (refleksiv);
- mustaqil ta'lim va o'z kasbiy-metodik darajani oshirib borish (kognitiv);
- konstruktiv ravishda harakat qilishga imkon beradigan axborotni olish, qayta ishlash va tatbiq qilish, texnologik qarorlar, tamoyil va yondashishlar tizimini loyihalashtirish (axborot);
- kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi og'zaki va yozma muloqot texnologiyalarini egallash (kommunikativ) **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar:

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” modulini o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;
- amaliy mashg'ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Pedagogning mahorati va kompetentligi” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kreativ pedagogika asoslari” va “Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagogik mahorat va kompetentlik bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogik mahorat va kompetentlikni o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir proektiv, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.



Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Pedagogik mahorat va uni rivojlantirish yo'llari	4	2	2
2.	Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning asosiy elementi sifatida	4	2	2
3.	Pedagogik qobiliyat, pedagogik takt va pedagogik odob	2	2	
4.	O'qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiya, pedagogik qobiliyat	2		2
5.	O'qituvchi faoliyatida pedagogik takt va imidj masalalari.			2
6.	Pedagogik kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. O'qituvchining kommunikativ kompetentligi.	4	2	2
7.	Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o'rni	2		2
Jami		20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1 - mavzu: Pedagogik mahorat va uni rivojlantirish yo'llari.

“Pedagogik mahorat” tushunchasining mazmuni va mohiyati. Pedagogika fani tarixida o'qituvchi mahorati masalalarining yoritilishi. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari. Pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari.

2 - mavzu: Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning asosiy elementi sifatida.

Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot. Nutq texnikasi va uning o'ziga xosliklari. Mimika va pantomimikaning o'qituvchi pedagogik mahoratida tutgan o'rni. Nutq texnikasi asoslari: nafas olish, tovush, diksiya, ritmika. Nutq texnikasining o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Pedagogik



faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik mahorati. Pedagogik texnikani egallash yoʻllari.

3 - mavzu: Pedagogik qobiliyat, pedagogik takt va pedagogik odob

Oʻqituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning oʻziga xos xususiyatlari. “Takt” va “pedagogik takt” tushunchasi. Pedagogik takt axloqiy tushuncha sifatida. “Pedagogik odob” tushunchasi va uning namoyon boʻlish xususiyatlari. Oʻqituvchining muomala odobi. Pedagogik imij masalalari. Oʻqituvchi nazokatida dilkashlik.

4 - mavzu: Pedagogik kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati.

Oʻqituvchining kommunikativ kompetentligi

Pedagogikada “kompetentlik” tushunchasi va uning oʻziga xos xususiyatlari. Kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning oʻrni. Oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yoʻllari.

Kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati va tahlili. Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari.

AMALIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI

1 - amaliy mashgʻulot: Pedagogik mahorat va uni rivojlantirish yoʻllari.

Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar, diqqatning yoʻnalganligi, kasbiy-pedagogik tasavvur, pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari. Pedagogik mahorat komponentlari, oʻqituvchining shaxsiy fazilatlarini, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni taʼminlovchi omillari.

2 - amaliy mashgʻulot: Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning asosiy elementi sifatida.

Taʼlim-tarbiya jarayonida oʻz xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika); taʼlim-tarbiya jarayonida oʻz hissiyatini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojoʻya taʼsirlarga berilmaslik; mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi; *gavda tutish estetikasi*, oʻqituvchi chehrasidagi mimik ifodalar va mimik harakatlar, umumiy mimik reaksiyani aniqlashga doir topshiriqlar, individual reaksiyani aks ettirishga doir topshiriqlar.



3 - amaliy mashg'ulot: O'qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiya va pedagogik qobiliyat.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati, o'qituvchining ijodkorligi, Mahsuldor, evristik, kreativ ijodkorlik, pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.

“Muammo” texnologiyasi, “*Qadam – baqadam*” va “*Kontakt*” treninglari.

4 - amaliy mashg'ulot: O'qituvchi faoliyatida pedagogik takt va imidj masalalari.

Pedagogik nazokatni rivojlantiruvchi mashqlar. Pedagogik takt bilan bog'liq vaziyatlar, “Jamoaviy hikoya” metodi, “Tayyorgarlik mashqi” metodi, “Pozitsion muloqot” o'yin metodi, “Konsensus” metodi, “Mening muloqoti og'ir talabam” treningi.

O'qituvchining refleksiya asosida shaxsiy kasbiy faoliyatini takomillashtirish, kasbiy pedagogik refleksiyaning o'qituvchi mahoratini oshirishdagi imkoniyatlari, “Kichik esse” yozish, “Individual rivojlantirish dasturi” bo'yicha ishlash.

“O'qituvchi imidji va pedagogik nazokat”, “Muloqot madaniyatining asosiy kommunikativ sifatlari” mavzusidagi kengaytirilgan KEYS.

5 - amaliy mashg'ulot: Pedagogik kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. o'qituvchining kommunikativ kompetentligi.

Kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari mazmuni bo'yicha bahs-munozara. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishga oid pedagogik vaziyatlar tahlili, “Atmosfera” treningi, «Dialog» treningi.

Kommunikativ vaziyatlar ustida ishlash, mavzuga oid 10 tadan so'z yashiringan skanvordlarni yechish, “Talabalarning kommunikativ kompetentligini tashxislash” so'rovnomasi bo'yicha tahlil o'tkazish, Shaxsning kommunikativlik darajasini aniqlovchi savolnomaga javoblarni tahlil qilish. Pedagogik muloqot bosqichlari, pedagogik muloqotda uchraydigan kamchiliklar, “Pedagogik muloqot” treningi, “Muloqot ko'nikmasi” treningi, pedagogik muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan mashqlar, o'qituvchining o'quvchilar bilan doimiy muloqotini aks ettiruvchi sxema, kommunikativ imkoniyatlarni aniqlashga oid testlar.



6 - amaliy mashg'ulot: Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o'rni.

“O'qituvchining mas'uliyati, majburiyati va unga qo'yilayotgan talablar” mavzusida bahs-munozara, B-B-B grafik organayzeri, blis-so'rov o'tkazish. Pedagogik kompetentlik va kreativlikka oid xorij tajribalaridan namunalari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'ruza-munozara, muammoli ma'ruza, vebinar ma'ruza, vizual ma'ruza, virtual amaliy mashg'ulotlar);
- o'quv munozarasi (og'zaki va yozma davra suhbat, forum, aqliy hujum, bahs-munozara, debat);
- fasilitatsion ta'lim (Open Space – “Ochiq muhit” strategiyasi. World Cafe – Jahon kafesi strategiyasi. Appreciative Inquiry – “Ijobiy o'zgarishlar paradigmasi” strategiyasi. Dynamic facilitation – Dinamik fasilitatsiya strategiyasi. Graphic facilitation – Grafikli fasilitatsion strategiyalar. Action Learning – Boshqalar tajribasi asosida o'qitish).



II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “KONSENSUS” metodi.

Ushbu metoddan qo‘llanilish maqsadi: tinglovchilarning bahslashish madaniyati va muomala odoibiga nechog‘li ega ekanliklarini aniqlash, ijobiy natijalarga ko‘ra tajriba almashish.

Tinglovchilar 5-6 kishidan iborat ekipajlarga bo‘linadi. Quyidagi mazmunda ularga pedagogik vaziyat beriladi: “Sizning kemangiz Tinch okeanida talofatga uchradi. Ekipaj kichik narsalarni olishi kerak (narsalar ro‘yxati bo‘ladi). Vaqt ziq, shoshilinch harakat qilinmasa, hamma narsa cho‘kib ketishi mumkin”. Pedagogik vaziyat bo‘yicha topshiriqlar:

1) 15 daqiqa ichida kerakli narsalarning individual ro‘yxatini tuzish kerak. Bunda eng kerakliligiga qarab joylashtiriladi: (№1 – eng kerakli narsa, №15 – eng befoyda narsa kabi).

2) Keyingi 45 daqiqa ichida yagona jamoa ro‘yxati taqdim etiladi: bunda ovozga qo‘yish man etiladi har bir jamoa – ekipaj a‘zosi ro‘yxatdagi narsalar, ularni zarurligiga samimiy rozi bo‘ladi.

3) Yakuniy ro‘yxat muhokamasi o‘tkaziladi, jamoa vakili har bir narsaning olinish sababini tushuntiradi.

Har bir guruhda ro‘yxat muhokamasida ishtirok etmaydigan bitta kuzatuvchi bo‘lib, u quyidagilarga e‘tibor beradi:

- o‘zga fikrni eshitishyaptimi?
- o‘zga fikrga samimiy qo‘shilishyaptimi?
- o‘z fikrida qat’iy turibdimi (baqirdi, isbotladi, bosim o‘tkazdi, aldadi)?

2. “MENING MULOQOTI OG‘IR TALABAM” treningi

Treningdan maqsad: tinglovchilarning muomala odoibiga ega bo‘lmagan talabalar bilan ishlashning samarali usularini aniqlash va tajriba almashish.

Muloqot madaniyatidan yiroq talabalar muammosini jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun guruh doira shaklida o‘tiradi. Har bir qatnashchi 10-15 daqiqa davomida talabalar bilan pedagogik muloqotdagi eng qiyin vaziyatlar haqida axborot beradi. U bunday vaziyatlarda nimani his qilgani, hayajonlangani, shuningdek, u yoki bu ta’sir metodini qo‘llaganda qanday natijaga erishganligini guruh a‘zolarining e‘tiboriga havola etadi. Bitta mashg‘ulot davomida real kasbiy tajribadan olingan 4-5ta vaziyat muhokama qilinadi.

Jamoaviy muhokamada quyidagi maqsadlarga erishiladi: tinglovchilar o‘z faoliyatidagi eng qiyin vaziyatlardan biri haqida gapirar ekan, jamoadoshlaridan dalda oladi.



Jamoada, shuningdek, tajriba almashiladi. Pedagogik faoliyatdagi shunday muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda o‘qituvchida nima gapirish kerak, nima qilish kerak, qanday pozitsiyada turish kerak degan aniq pedagogik vazifalarni hal qilish uchun pedagogik-psixologik treninglarni qanday qo‘llashni ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. BIR NECHA MANBALARDAN FOYDALANIB MA’RUZA TAYYORLASH

Tinglovchilar interfaol mashg‘ulotlarda samarali ishtirok etishlari uchun ma’ruzalarga tayyorlanib kelishlari lozim. Buning uchun tinglovchilariga ma’ruzalar tayyorlash yo‘llari va imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish lozim. Ana shunday imkoniyatlardan biri – bu bir necha manbalardan foydalanib ma’ruza tayyorlash hisoblanadi. Mazkur ma’ruza javdval holatida tayyorlanib, tinglovchiga javob berish uchun tayanch signal vazifasini bajaradi. Buning uchun tinglovchi besh ustundan va materilning hajmiga qarab bir necha ustundan iborat oddiy jadval tuzadi. Yuqoridagi qatordagi ustunlarda axborotning turli manbalari nomini ko‘rsatishadi: darsliklar, jurnal maqolalari, internet materiallari, intervyular.

Chap tomondan birinchi katakning har bir qatoriga tinglovchi mavzuga tegishli yoki javob olinishi zarur bo‘lgan savolni yozadi:

Savollar	Darslik	Jurnal maqolalari	Internet materiallari	Intervyu
Pedagogik mahoratning mazmun mohiyati				
Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari				
Pedagogik texnika unsurlariga nimalar kiradi?				
O‘qituvchining kasbiy kompetentligi deganda nimani tushunamiz?				
O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi				



ma'nosini tushuntiring.				
Pedagogik qobiliyat nima?				
Pedagogik takt tushunchasinin ta'riflang?				

4. YOZMA VA OG‘ZAKI “DAVRA SUHBATI”

Yozma “Davra suhbatı” – bu birgalikdagi o‘qitish metodi bo‘lib, bunda qog‘oz va ruchka doimo aylana bo‘ylab, o‘yin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Misol uchun, sheriklardan bir qandaydir g‘oyani yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U o‘sha g‘oyaga o‘zining qandaydir mulohazalarini qo‘shadi va varaqni keyingi kishiga uzatadi. Ushbu rusum-qoidaning boshqa variantida har bir ishtirokchi yozuvini o‘zining rangi bilan yozadi. Bu umumiy fikrni shakllantirishda qo‘shilgan hissani ko‘rinarli darajada ko‘rsatib turadi va o‘qituvchiga tushunishga va har birining ishtirokini qayd qilishga yordam beradi.

Og‘zaki “Davra suhbatı” - bu birgalikda o‘qitish metodi bo‘lib, oldingisiga o‘xshaydi, faqat u og‘zaki shaklda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi odam aytgan fikrni ilg‘ab oladi va rivojlantiradi.

5. «DIALOG» treningi.

Treningni maqsadi: o‘z fikr-mulohazalarini, manfaatlarini himoya qila olish malakasini shakllantirish, bu sohada o‘zida mavjud vositalarni boyitish, ziddiyatli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatini boshqara olish orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish

Guruhning ikki qatnashchisiga o‘zaro dialog vaziyatida ikki xil vazifa, maqsad qo‘yiladi. Ulardan biri ikkinchisini biror- bir narsaga (Masalan: sport tugaragiga qatnashish, qaysidir badiiy kitobni mutoala qilishga, yangi kinofilmni ko‘rishga va boshqalarga) ko‘ndirishga, ikkinchisi esa unga yordam berishni butunlay rad etishga harakat qiladi. Shu bilan birga ular suhbat davomida axloq me‘yorlari doirasidan chiqmasliklari, o‘z xoxishlarini ishonchli dalillashlar asosida bayon etishlari lozim bo‘ladi. Trening dialog qatnashchilaridan biri ikkinchisining fikriga bo‘ysunmaguncha davom etadi.



6. TUSHUNCHALARNI ANIQLASH

Maqsadi:

- tinglovchilarni gapdagi har bir xorijiy tildagi soʻzni tushuna olishga oʻrgatish;
- tinglovchilarning gapdagi har bir soʻzga eʼtiborli munosabatda boʻlish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;
- oʻquv topshiriqʻini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash koʻnikmasini shakllantirish.

Oʻqituvchi izohni **tushunish** – bu tinglovchilarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur eta olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki soʻzni tushunishning birinchi darajasi.

Soʻzni toʻliq tushunish qachonki, tinglovchilar narsa yoki hodisaning tuzilishiga oid tarkibiy qismlar(nimalardan tashkil topgan) va uning funksional oʻziga xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

Mashgʻulot quyidagi tarzda oʻtkaziladi:

1. Barcha tinglovchilar kichik guruhlariga boʻlinishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil boʻlishi mumkin.

Oʻqituvchi gaplardagi notanish soʻzlarni topish va izohli lugʻatlar, oʻqituvchining yordamida ularning maʼnosini izohlab berishni soʻraydi.

3. Guruhlarda matn ustida ishlash boshlanadi. Tinglovchilar birgalikda notanish, tushunarsiz soʻzlarni topishadi va ularning maʼnosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib boʻlinganidan soʻng, “kichik guruhlariga hujum” boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qurʼa tashlash yoʻli bilan aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbati bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh aʼzosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan soʻng uning toʻgʻriligi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 ball dan 5 ball gacha boʻlishi mumkin.

5. Yakunlarini chiqarish. Oʻqituvchi koʻp ball yigʻgan guruhni eʼlon qilishi mumkin. Mazmuni notoʻgʻri tushunilgan soʻzlarga izoh beriladi.

7. KONSEPTUAL JADVAL

Uchta va undan koʻp jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu metod, ayniqsa foydali boʻladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal



bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo'yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi.

Masalan, konseptual jadval orqali pedagogik qobiliyatlarni taqqoslab ko'rsatish mumkin.

Qobiliyatlar	Qaysi kasbiy kompetensiyaga taaluqli ekanligi	Qo'llanilish doirasi	Ahamiyati
Gnostik			
Kommunikativ			
Kommunikativ			
Empatik			
Suggestiv			

8. T-CHIZMA

T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan "Pedagogik nizolar" matnini "tarafdor va qarshi" tamoyiliga asoslanib o'qilganidan so'ng, bir juft tinglovchi quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqadan keyin, chizmaning chap tomonida pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozishi mumkin. So'ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko'p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o'z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

O'qituvchi nazokati bilan bog'liq pedagogik nizolarni keltiruvchi sabablar	O'qituvchi nazokati bilan bog'liq pedagogik nizolarning oldini olish imkoniyatlari

9. TUSHUNCHALAR ASOSIDA MATN TUZISH

"Tushunchalar asosida matn tuzish" metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma'lum hodisalar,



yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo'ladi.

Mazkur metodni qo'llash texnologiyasi:

Masalan, **“O'qituvchi faoliyatida pedagogik takt”** mavzusi bo'yicha:

- 1) takt, taktika, pedagogik taktika, pozitsiya, “yuqoridan pastga”, “pastdan yuqoriga”, “yonma-yon”, aralashmaslik;
- 2) odob, etika, axloqiy sifatlar, pedagogik odob, pedagogik deontologiya.

10. O'N MINUTLIK ESSE

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo'lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

O'n minutlik esseni yozish qoidalari (“Zamonaviy pedagog” mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.
2. “Pedagog deganda ko'z oldimga ... keladi”, “Mening fikrimga ko'ra pedagog ... bo'lishi kerak”, “Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak” kabi jumladan foydalaning.
3. O'zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo'lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuingizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

11. BLIS-O'YIN

O'yinni o'tkazish tartibi:

- 1) tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;
- 2) dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini “indiv. javob” ustuniga (masalan “1” raqamli tushunchaga “10” raqamdagi javob) yozish so'raladi;
- 3) so'ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya'ni “guruh javobi” ustuni to'ldiriladi. Kichik guruh a'zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo'lishi lozim;
- 4) o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi. Tinglovchilar o'zlariga berilgan qog'ozning “kalit” ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.
- 5) tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, “individual xato” va “guruh xatosi” ustunlarini to'ldiradi. Har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

Masalan: Sharq va G'arb mutafakkirlarining pedagogik mahoratga doir qarashlarini o'rganishga doir blis-o'yin



Fikrlar	Guruh javobi	Guruh xatosi	Kalit	Indiv. xato	Indiv. javob	Pedagog-olimlar
Ustoz shogirdiga zug‘um qilishga, ko‘p hollarda yon berishga intilmasligi kerak						Alisher Navoiy
Ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitarli, me‘yorida bo‘lishi kerak						Abu Nasr Forobiy
Mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.						Imom Al-Buxoriy
Yaxshi o‘qituvchi tinglovchilarga tayyorini bermaydi, tushuntirishga o‘rgatadi						Abu Ali ibn Sino
Ta‘lim oluvchilar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish lozim						Adolf Disterverg

12. “ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:



“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

Pedagogik faoliyatning qayta idrok etilishiga doir kompetensiya qanday nomlanadi?

- A) Axborat olish
- V) Kognitiv
- S) Refleksiv
- D) Kommunikativ



Qiyosiy tahlil

“Takt” va “taktika” tushunchalari o’rtasidagi o’xshashlik va farqli jihatlarni tahlil eting.



Simptom

O’qituvchining pedagogik faoliyatga nazariy tayyorligi.....



Amaliy ko‘nikma

Pedagogik texnikaning asosiy elementlaridan 3 tasiga misol keltiring.

13. INSERT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o’zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o’taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o’qituvchi mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o’z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda



tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

14.“PORTFOLIO” METODI

“Portfolio” – (ital. portfolio-portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.



III. NAZARIY MATERIALLAR

1 - MAVZU: PEDAGOGIK MAHORAT VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

REJA:

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasining mazmun mohiyati va o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni.
2. Pedagogika fani tarixida o‘qituvchi mahorati masalalarining yoritilishi.
3. Hozirgi davrda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari.
4. Pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik mahorat, kasbiy mahorat, pedagogik insonparvarlik, pedagogik qobiliyat, shaxsiy va kasbiy fazilatlar, pedagogik ijodkorlik, insoniylik, fidoiylilik, kasbga sadoqat, kasbiy layoqat, insonparvarlik sifatlari,

**1. “Pedagogik mahorat”
tushunchasining mazmun
mohiyati.**

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta’rif quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohasini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko‘rsatkichi;
2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
4. O‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;



4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchining kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, g'amxo'rlik qilish, unga zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy –metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, «Pedagogning mahorati va kompetentligi» moduli o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi modul bo'lib, o'qituvchida pedagogik mahorat va kompetentlikning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi.

- Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, ta'lim oluvchilarga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchining faoliyat mezonini belgilab beradi. O'qituvchining faoliyati **pedagogik jarayonning harakat vositasidir**. O'qituvchi pedagogik faoliyati ijobiy natijalari mehnat malakasini,



ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, yoshlarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan pedagogik mahoratga quyidagicha ta'rif beriladi: **Pedagogik mahorat** – o'qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik–psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

- o'qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafli va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo'lmish insonning ta'lim–tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan muloqot olib boradi. O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon–e'tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyiligi va o'z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi, mamlakatimizning ijtimoiy–siyosiy talablariga o'z fikr mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O'qituvchining kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy



layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
- 2) O'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
- 3) O'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchi – tarbiyachi shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik–psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi **omillar** quyidagilar:

a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm–fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob'ektiv nazorat qilishi va baholashi;

v) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;

g) o'quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik– psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

d) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

ye) jamoani «ko'ra bilish», ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir ta'lim oluvchining xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;

j) o'z shaxsiy sifatleri (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.

O'qituvchining pedagogik mahorati kasbiy faoliyat davomida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan



uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi.

2. Pedagogika fani tarixida o'qituvchi mahorati masalalarining yoritilishi.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar

(o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf – odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql idroki va usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha yetib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarining o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, ma'suliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr



Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab yashnashi faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan allomalarning bu borada o'z o'rnini va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda muallimning o'rnini to'g'risida allomalimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Sharq allomalari adabiy meroslarida ta'kidlangan, o'qituvchilar haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar bilishlari va ularga qat'iy rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli "Notiqlik san'ati" ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchiga huzur-halovat va qoniqish uyg'otish.



Notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda o'quvchilarga, ya'ni "tinglovchilarga halovat bag'ishlash" orqali ularni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanardi. Notqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar.

Yunon faylasuflari o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya berishda og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy talab qilganlar. Shuning uchun pedagog o'qituvchilar o'z fikrlari va tuyg'ularini o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir pedagog o'zlarining notqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borganlar, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim Suqrot (eramizdan avvalgi 469 — 399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Suqrotning shogirdi Platon o'z ustozini g'oyalarini davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen (eramizdan avvalgi 384—322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga yetkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda notqlik san'atining yetuk namoyondasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasi siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar yevropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, G.Pestalossi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya. A. Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi,



iqtidori, kobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini aytadi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalossi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning ta'limni takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolctoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy – nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy –



pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: "O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul"¹. Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy – nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai – nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Shunday qilib, yevropa mutafakkirlari o'z ilmiy asarlarida o'qituvchining bir qator muhim fazilatlari haqida fikr yuritganlar. Bularning qatoriga quyidagi fikrlarni alohida qayd etish lozim: o'qituvchining har tomonlama barkamol bo'lishi, o'zining yuksak hislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, bolalar ruhiyatiga oson kira olish kobiliyati, darslarni o'zlashtirishda orqada qolganlar bilan individual ishlar olib borish, o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratish mahorati, mustaqil ishlash va o'z mahoratini, malakasini oshirish, pedagogik-psixologik odob (takt)ga ega bo'lish, notiqlik san'atini puxta bilish kabilardir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchi kasbi haqidagi ko'pgina mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak, millati va kelib chiqishidan qat'iy nazar ajdodlar g'oyasini takomillashtirish evaziga ta'limni yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

¹ Pedagogika: Ucheb. posobie dlya studentov ped. institutov /Pod red. Yu.K. Babanskogo. – M: Prosveteniye, 1983, 600-bet.



**3.Hozirgi davrda
o'qituvchilarning kasbiy
mahoratini takomillashtirish
yo'llari.**

Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarga bog'liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo

o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo'lgan, zamonaviy o'qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. O'qituvchi xodimlar o'zlarining kasb-ko'nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish, Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega va ta'lim



muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan quyidagi burch va mas'uliyatlar ulardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan ta'lim oluvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada ta'lim oluvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada ta'lim oluvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida guruh jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.



13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmashligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida o'zida bir qator pedagogik sifatlarni tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqq olishi kerak. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

Muxtasar qilib aytganda, hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq.

4. Pedagogik refleksiyaning moxiyati va turlari.

So'nggi yillarda olimlar o'qituvchining pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiya tashkil etadi.

Refleksiya (lot. «reflexio» - orqaga qaytish) – «har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z hatti – harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir»².

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshqa Yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi. Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. *Intellektual refleksiya*: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

² Qarang: Filosofskaya ensiklopediya. – M.: Sovetskaya ensiklopediya. 1967. – 4-t. 499 b.



2. *Shaxsiy refleksiya*: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

3. *Kommunikativ refleksiya*: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro birlarini tushunib munosabat qilishni belgilaydi.

4. *Kooperativ refleksiya*: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

Refleksiyaning har bir turi ma'no jihatidan bir – birlari bilan o'zaro bog'liq. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati haqida Yu.N.Kulyutkina, Ya.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchilarning fikricha, o'qituvchining pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinar. B.Z. Vulfov, V.N.Xarkin kabi olimlar refleksiyani – insonning o'z-o'zini anglashi, kasbiy refleksiyani esa – o'z-o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik refleksiyani – pedagogik kasbiy omilkorlikda o'zini anglashi deb ta'riflaydilar.

G.M.Kodjaspirova o'qituvchining pedagogik faoliyati barcha qirralari bilan refleksiv hodisa bo'lsa, demak bu pedagogik refleksiya, degan nuqtai nazarni ilgari suradi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, *kasbiy refleksiya* jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va «ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri»ni hosil qiladi. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubinshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart–sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatlari mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning *rivojlanishini, boyib borishini, kuchayishini rag'batlantirish inobatga olinishi lozim*. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

O'qituvchining «o'z-o'zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi», hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay,



o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning mazmun mohiyati asoslaridan biridir.

Kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishda (bu uning o'z ijodiy mehnati natijasidan qoniqmasligi aslo mumkin emasligi bilan belgilanadi) shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatidan kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llaniladi. Ba'zi olimlarning fikricha, refleksiya – asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq-atvori, muloqot madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi (G.F.Pojmelkina, Ye.Yu.Koloshina, Ye.V.Frolova).

O'qituvchining kasbiy refleksiyasiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.


Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini o'rgangan V.A.Metaevaning ishlari hozirgi kunning eng dolzarb tadqiqotlaridan biri sanaladi. Olima refleksiyaning rivojlanganlik darajasi «o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishning asosi bo'lmish» pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Biroq, bizning fikrimizcha, o'qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilamaydi, aksincha ta'lim-tarbiyada o'qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqishi, o'qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiyasiga bog'liq.

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonini beshta elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi.



Bu o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlangani sari kechadigan va uning asosida uzluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z – o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi (**chizmaga qarang**).



9 - chizma. O'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishi.

O'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O'z – o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarni kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z – o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi.



Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi³. Bu o‘qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi⁴ bilan bog‘liq.

O‘z – o‘zini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiylangan (ya’ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo‘lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o‘sishi sodir bo‘ladi.

O‘z – o‘zini nazorat qilish o‘qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o‘z – o‘zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Shunday qilib, *olimlarning tadqiqotlariga tayanib, ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiylashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki, bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘sishini ta’minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi.*

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasining mazmun mohiyatini tushuntiring.
2. “Pedagogik mahorat» tushunchasiga “Pedagogik ensiklopediya”da berilgan turlicha ta’riflarga izoh bering.
3. “O‘qituvchining pedagogik mahorati” tushunchasi mazmunini izohlang.
4. O‘qituvchidan qanday burch va mas’uliyatlar talab qilinadi?
5. Pedagogik mahoratning **asosini tashkil** etuvchi to‘rtta komponentni tushuntiring.
6. O‘qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi bo‘yicha yo‘nalishlari haqida ma’lumot bering.
7. Sharq allomalarining o‘qituvchi kasbiy mahorati haqidagi fikrlarini ayting.
8. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to‘g‘risida Yunoniston va Yevropa olimlarining fikrlarini ayting.

³ Qarang: Beris R.V.Razvitie Ya – konsepsii i vospitanie. –M., 1986

⁴ Qarang: Kratkiy psixologicheskiy slovar / Red. –sost. L.A.Karpenko; Pod obsh. Red. A.V.Petrovskogo, 1998. – 117.



9. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirishning qanday yo'llari mavjud?
10. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar haqida ma'lumot bering
11. O'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining
12. rivojlanishi haqida gapirib bering.
13. Pedagogik refleksida *o'z-o'zini bilish* va *o'z – o'zini anglash* jarayonini tushuntiring.
14. O'z – o'zini belgilash, o'z – o'zini rivojlantirish, o'z – o'zini nazorat qilishning pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
2. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
3. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
4. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997.
5. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.

2 - MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA - PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSIY ELEMENTI SIFATIDA

REJA:

1. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot.
2. Nutq texnikasi va uning o'ziga xosliklari.
3. Mimika va pantomimikaning o'qituvchi pedagogik mahoratida tutgan o'rni.
4. Pedagogik faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik mahorati.
5. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Tayanch tushunchalar: Pedagogik texnika, nutq texnikasi, mimika, pantomimika, jestikulyatsiya, aktyorlik va rejissyorlik mahorati, diqqat, kuzatuvchanlik, hayol, nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi, didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlar.

1. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari



majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali o‘quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir.

O‘qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o‘qituvchi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, ta’lim oluvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim–tarbiya jarayonida o‘z–o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o‘z o‘rnida qo‘llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruh ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o‘qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma’lum bir reja asosida o‘z oldiga qo‘yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta’lim muassasasida va o‘quvchilar jamoasida ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.



O'qituvchining tarbiyalanuvchi ob'ektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, guruh jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnikaning namoyon bo'lish xususiyatlaridan biri o'qituvchining tashqi ko'rinishidir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmazlik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi xonaga kirishi bilan so'zsiz ta'lim oluvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari ta'lim oluvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini yengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyasizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

2. Nutq texnikasi va uning o'ziga xosliklari

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan



qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini egallashdan iborat.

O'qituvchining nutq madaniyatiga ega bo'lishi, to'g'ri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta – eng asosiy qiymatdir. Og'zaki nutq mahoratini yuksaltirish, nafaqat hikoya va tushuntirish, balki urg'u berilgan so'z ham pedagogik ta'sir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi.

Pedagog o'zining ovozi va ko'rinishini boshqarishni bilishi, tashqi qiyofani, mimikani ushlab turishni bilishi zarur.

“Men faqat “buyoqqa kel” so'zini 15-20 xilda gapira olganimdan, yuz, tashqi qiyofa va ovozni 20 xil ko'rinishda bera olganimdan so'nggina haqiqiy mahorat egasiga aylandim”, - degan A.S. Makarenko.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi – o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. O'quvchilar o'qituvchi nutqiga alohida e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovush noto'g'ri aytilishi kulgiga sababchi bo'ladi. Bir xil ohangdagi nutq o'quvchilarni tez charchatadi.

Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat, deyдилar, lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatining o'zgarishi mumkinligini tasdiqlaydi. Nutqning ifodali, sof bo'lishi ustida ishlash fikrlarning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Nutq imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi, uzluksiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarini tanlashga muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular, asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanadi to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish – fonatsion nafas olish deyiladi (rengo-tovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi.

Pedagogning nutqi uchun avvalambor tovushning kuchi zarur. Bu o'pkadan kelayotgan nafasning kuchiga va tezligiga bog'liq.

Tovushning yuqoriligi – bu tovushni uzoqqa yetkaza olish va yuqori-pastligini boshqara olishdir.



Tovushning harakatchanligi va o'zgaruvchanligini tovushning mazmuniga, sharoitiga, tinglovchilarning kayfiyatiga qarab oson o'zgartira olish mumkin. Harakatchanligi esa past, o'rta, yuqori tiplarga bo'linadi.

Tovush parvozi – tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlab olish.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi uni mazmunga tinglovchi moslab o'zgartira olish imkoniyatini bildiradi.

Diapazon – tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi. Diapazon qisqarishi nutqning bir ohanli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr – tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yoqimlilik va alohidaligidir.

Diksiya – aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o'qituvchi nutqining o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

Ritm – bu ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilishi muddati va to'xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi. Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki, nutq ohangi va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatadi. **So'zlayotganda obrazga kirish, ovozni kerakli joyda pastlatish, ohista gapirish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.**

Ongli ravishda ovozni mashq qildirish uzoq, muntazam va individual davom etadi. Ko'p olimlar olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, past ovoz o'quvchilar tomonidan yaxshi idrok etiladi. Past ovoz ularga yuqori ovozga nisbatan yoqadi. Yuqori ovoz o'quvchilarni ham, o'qituvchining o'zini ham tez charchatib qo'yadi. O'qituvchi kasb kasalliklarining 40,2 foizini ovoz kasalliklari tashkil etadi. Ovoz kasalligining sabablari: a) yuqori ovozda gapirish; b) ovoz apparatlaridan to'g'ri foydalanmaslik; v) ovoz gigienasiga amal qilmaslik; g) ovoz apparatining tug'ma kamchiliklaridir. Turli xil ovoz kasalliklarining oldini olish maqsadida ishdan so'ng pedagog 2-3 soat davomida kam va sekin gapirishi kerak. 3-4 soat dars berishdan so'ng bir soat ovoz apparatlariga dam berish kerak.

O'quvchilarning o'qituvchi nutqini yaxshi idrok etishlari uchun o'qituvchi tovush, so'zlarni aniq va ifodali talaffuz qilishi kerak. Tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda ovoz apparati: lablar, til, tish, jag'lar, tanglay, kichik til, halqum, ovoz paylari qatnashadi. Nutqdagi organik kamchiliklarni jarrohlik va logopedik uslublar bilan bartaraf etish mumkin.



Noorganik kamchiliklar esa: to'ng'illab gapirish, soqovlanish, duduqlanish, ba'zi bir tovushlarni talaffuz eta olmaslik, burunda gapirish, tez gapirish, chala gapirish.

Bularni bartaraf etish uchun nutq organlari harakatini artikulyatsiya gimnastikasi orqali mashq qildirish tavsiya etiladi. Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: a) nutq apparatlarini mashq qildirish, b) har bir unli va undosh tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasini mashq qilish.

Nutqning tezligi, alohida bo'g'inlarning va so'zlarning jaranglashi, shuningdek, nutq ritmidagi pauzalarga rioya qilish nutqning ritmini tashkil etadi. K.S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, intonatsiya va pauzaning o'zi, so'zdan ham ortiqroq eshituvchiga hissiy ta'sir etar ekan. Nutq tezligi o'qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuniga va muloqot vaziyatiga qarab o'zgaradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni tinglovchining o'zida mohir o'qituvchiga xos shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatoliklarning oldini olishida, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishida yordam beradi.

3. Mimika va pantomimikaning o'qituvchi pedagogik mahoratida tutgan o'rni

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining

hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy fikrni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini



“chiza” olsa, ta’lim oluvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg‘ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo‘shilib butun ongini o‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo‘l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to‘liq bayon qilib qo‘lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o‘qituvchining o‘z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o‘qituvchining ta’lim oluvchilar oldida o‘zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O‘qituvchining yurishi, qo‘l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo‘lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo‘llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o‘quvchilarning e’tiborini bo‘lib, g‘ashini keltiradi va o‘rganilayotgan fanga, o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg‘otadi.

O‘qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o‘z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida qizg‘in kuzatuv ostida bo‘ladi. Uning kayfiyatidagi o‘zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo‘ladi. Shu tufayli ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o‘z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo‘lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo‘la olish qobiliyatlariga ega bo‘lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o‘qituvchiga birdaniga paydo bo‘ladigan ko‘nikma emas. Buning uchun o‘qituvchi o‘z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o‘qituvchi o‘zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z-o‘zini nazorat qila oladi, ko‘p yillik faoliyati davomida sog‘lom asab tizimini o‘zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo‘riqishlardan o‘zini saqlay oladi.

Gavda tutish estetikasi oldinga-orqaga tebranish, og‘irlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o‘tkazib turish, stul suyanchig‘iga tayanib turish, boshni qashlash, burunni artish, quloq kavlash kabi zararli odatlarga yo‘l qo‘ymaydi. O‘qituvchi gavdasining harakati chegarali va bosiq bo‘lishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlardan holi bo‘lishi shart.

Mimika - yuz muskullari orqali o‘z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O‘qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba’zan o‘quvchilarga so‘zdan ham qattiqroq ta’sir ko‘rsatadi. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtaroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan uqib oladilar. Shuning uchun ham o‘qituvchining yuzi uning sezgirligini ifodalashi bilan birga ularni yashirib turishi ham lozim. Oila



tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni o'qituvchi o'zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o'quv-tarbiyaviy ishni yaxshilashga yo'naltirilishi lozim. Yuz ifodasida ko'zlar muhim o'rin tutadi. Jozibasiz ko'zlar ma'nosiz qalbni aks ettiradi. O'qituvchi yuz muskullari va ko'zlarini tez-tez harakatlantirish bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi lozim. O'qituvchi nigohi ta'lim oluvchilarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish kontaktini vujudga keltirishi zarur, barcha ta'lim oluvchilarni diqqat markazida ushlab turishga intilishi lozim.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ta'lim oluvchilar o'qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, ta'lim oluvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozda turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Inson his tuyg'ulari uning yuzida – yuz mushaklarini qisqarishi va bo'shashishi natijasida – namoyon bo'ladi. Yuz mushaklari holatini boshqarish unchalik qiyin bo'lmaganligi uchun odamlar haqiqiy hislarini yashirishga ham urinadilar.

Yuz mushaklari harakatlari simmetrikligi ushbu insonning samimiyligidan dalolat beradi. Inson so'zlarida qanchalik yolg'onni ko'p qo'shsa, simmetriya shunchalik buziladi.

Haqiqatni bildiruvchi mimika juda tez, sezdirmasdan namoyon bo'lishi mumkin va uni to'g'ri talqin qilish uchun tajriba yoki hattoki maxsus mashq kerak. Yana bir xususiyat: ijobiy hissiyotlar salbiyga qaraganda osonroq anglanadi.

Ayniqsa, inson lablari hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi (masalan, lablarni tishlash – hayajonni, bir tomonga qiyshaygan lablar ishonqiramaslik yoki istehzoni anglatishi mumkin)



Tabassum odatda do'stona munosabat yoki qo'llab - quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Erkak kishi uchun tabassum u har qanday vaziyatda ham o'zini tuta olishini namoyish qilishi bo'lsa, ayol tabassumi ko'proq haqiqiy kayfiyatini bildiradi.

Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba'zi turlarini hisobga olish maqsadga muvofiq:

- 1) ortiqcha ko'p jilmayish – qo'llab quvvatlanishga ehtiyoj;
- 2) qiyshiq kulish – nazorat qilinayotgan asabiylik;
- 3) ko'tarilgan qoshlar va tabassum - bo'ysunishga tayyorlik;
- 4) pastga tushirilgan qoshlar va tabassum – o'zini katta olish;
- 5) tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko'tarilmasligi – samimiyatsizlik;
- 6) tabassum bilan bir paytda ko'zlarning olayishi – qo'rqitish.

Turli hislar kechirayotganda yuz mimikasini bilish faqatgina boshqalarni tushunishdagina emas, balki o'z imitatsiya mahoratini o'stirish uchun ham zarurdir.

Odamning ichki kechinmalari haqida eng to'g'ri ma'lumotni ko'zlar namoyon qiladi:

- 1) ko'zning odatiy ifodasidagi o'zgarish;
- 2) ko'zlarning beixtiyor harakatlari – hayajon, oriyat, yolg'on, qo'rquv, asabiylashuv;
- 3) yonib turgan nigoh – qizishish;
- 4) qotib qolgan nigoh – o'yga cho'kkanlik yoki holsizlik;
- 5) qorachig'larning kattayishi qiziqish va qabul qilinayotgan axborotdan, atrofdagilardan, taomdan va boshqa shunga o'xshash omillardan qoniqish his etayotganligi yoki qattiq og'riq: ma'lum dori-darmon yoki narkotik qabul qilganligi;
- 6) qorachiqlarning kichrayishi – g'azablanish yoki ma'lum turdagi narkotiklarni qabul qilganligi va boshqalar.

Muloqot davomida ko'proq eshitayotgan odam suhbatdoshi ko'ziga qarab turadi. Muloqotning umumiy vaqtining uchdan biridan kamroq vaqt ichida ko'zingizga qarab turgan insonning sizga nisbatan samimiyligiga shubhalaning; butun dialog davomida tikilib qarayotgan inson yoki sizga nisbatan katta qiziqish bildirmoqda yoki (agar qorachig'i kichraygan bo'lsa) uning sizga nisbatan adovati bor, yoki sizni o'ziga tobe qilmoqchi.

Insonning ichki holati haqida uning statik holati ma'lumot berishi mumkin. Shunisi qiziqki, agar ma'lum bir turishlar (poza) inson uchun odatiy bo'lib qolgan bo'lsa bu uning xarakteridagi turg'un sifatlardan dalolat beradi.



Quyida bir necha pozaning psixologik nuqtai nazardan talqinini ko'rib chiqamiz:

1) qo'llar orqada, bosh yuqori ko'tarilgan, iyak oldinga surilgan – o'ziga ishonch, o'zini boshqalardan ustun qo'yish;

2) tananing yuqori qismi oldga intilgan, qo'llar belda – dadillik, o'ziga ishonch va faol harakatlarga tayyorligi, tajovuzkorlik, o'z fikrini oxirigacha himoya qilishlikka tayyorlik;

3) qo'llar bilan stol yoki stulga tayanish – suhbatdoshi bilan to'la kontakt yo'qligi;

4) qo'llar tirsaklar ochilgan holda bosh orqasida qovushgan – o'zini boshqalardan ustunligini his etish;

5) bosh barmoqlarini belbog' yoki cho'ntaklarga solib turish – tajovuz, o'ziga ishonganlikni ifodalaydi;

6) bosh barmoqni cho'ntaklardan chiqargan holda turish – o'zini katta olishlik;

7) qo'l va oyoqlar almashtirilgan holda – suhbatdoshiga nisbatan ishonqiramaslik va o'zini himoyalash;

8) qo'l va oyoqlar almashtirilmagan holda, pidjak tugmalari yechilgan – ishonish belgisi;

9) boshning chetga egilishi – qiziqish uyg'onganligi;

10) boshning quyi egilganligi – salbiy munosabat;

11) boshning sal ortga egilganligi – tajovuz belgisi;

12) stul chetida o'tirish – har qaysi momentda turib ketishga tayyorgarlik: chiqib ketish uchun yoki harakat qilish uchun, o'ziga e'tiborni qaratib, suhbatga qo'shilish uchun yoki qizishgan inson o'zini qo'lda tutish uchun qilgan harakati.

Insonlar his-tuyg'ularini aniqlashda faqat beixtiyor qo'l harakatlariga diqqatni qaratish lozim. Har xil odamlarda bir xil qo'l harakatlari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ma'nosi o'xshash holatlar ham mavjud:

1) qo'llarning faol harakati – ko'pincha ijobiy emotsiyalar, do'stona munosabat va qiziqishni anglatadi;

2) ortiqcha qo'l harakati – hayajon, o'ziga ishonchsizlik belgisi;

3) kaftlar ochiq – ochiqlik ifodasi;

4) qo'llarni musht qilish – ichki qo'zg'alish, tajovuz;

5) so'zlayotganda og'izni qo'l bilan to'sish – hayron bo'lish / yolg'on so'zlash / suhbatdoshiga ma'lumotni ishonib yetkazish;

6) so'zlayotganda burunga tegib turish – aytayotgan so'zlariga ishonqiramaslik / yolg'on / yangidan-yangi dalillar izlash;



7) qovogʻini barmoq bilan ishqalamoq – yolgʻon / ishonqiramaslik; soʻzlayotganda yuzining turli qismlarini ishqalash – tashvish, uyalish, oʻziga ishonmaslik;

8) iyagini silash – qaror qabul qilish;

9) qoʻllarning beixtiyor ortiqcha harakatlanishi (biror narsani aylantirish, burash, kiyimining detallariga tegish) - ogohlik, asabiylashganlik, uyalish;

10) kiyim yoqasini tortish – yolgʻoni oshkor boʻlganligini sezgan odam yoki gʻazabdan havo yetishmasligi;

11) biror narsaga tayanishga boʻlgan intilish – vaziyatning murakkabligini his qilish, ushbu vaziyatdan chiqib ketish yoʻlini topa olmayotganligidan dalolat beradi.

4. Pedagogik faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik mahorati

Pedagoglik va aktyorlikning oʻzaro oʻxshashliklari koʻp. Bu ushbu faoliyatlarning mohiyatidan kelib chiqadi. Har ikkala faoliyat negizida ham insonlar ongiga taʼsir etish masalasi yotadi. Aktyor sahnadagi rol orqali, pedagog turli pedagogik taʼsir vositalari yordamida inson ongida oldindan koʻzlangan oʻzgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu kasblarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi yana bir narsa – bu har ikkalasi ham ommaga qaratilib, omma nigohida amalga oshirilishidir.

Oʻqituvchining oʻquv-tarbiyaviy mashgʻulot, tadbirlar “ssenariy”sini ishlab chiqishi, unda tinglovchilar faoliyatini boshqarishi bu kasbni rejissyor kasbiga yaqinlashtiradi.

Oʻqituvchilar tinglovchilar diqqatini jamlash, eʼtiborini vaqt davomida yoʻnaltirib turish qanchalik qiyinligini yaxshi biladilar. Shunda oʻqituvchilarga aktyorlik mahorati katta yordam beradi. Buyuk rus dramaturgi K.S.Stanislavskiyning aktyorlar bilan ishlash tizimi pedagogning aktyorlik mahoratini oshirishga katta imkon beradi.

Ushbu tizimning asosiy maqsadi – aktyorning bor qobiliyatlarini ochib berishdir. Bu albatta, oʻqituvchi uchun ham zarurdir. K.S.Stanislavskiy tizimining birinchi tamoyili hayot haqiqatidir. Sahnada yolgʻon boʻlishi mumkin emas (oʻqituvchi harakatlarida samimiyatsizlik, ikkiyuzlamachilikka oʻrin yoʻq).

Ikkinchi tamoyil – buyuk masala tamoyili. Buyuk masala bu artistning asosiy – yaʼni, insonlar ongiga muayan gʻoyani singdirishning asosiy maqsadi. Oʻqituvchi ham oʻz faoliyatida pedagogik buyuk masalani doimo yodda tutishi kerak: “Nima uchun mehnat qilyapmiz? Pirovard natijada nimaga erishamiz?”

Uchinchi tamoyil – faollik va harakat tamoyili. Aynan harakatda insonning jismoniy va psixik mohiyatining birligi namoyon boʻladi. Pedagogik harakat oʻqituvchining maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan ongli harakatidir. Ushbu harakatda



jismoniy va psixik mohiyat birligi mavjud bo'lsa, o'qituvchi yuqori natijalarga erishadi. Pedagog shaxsi harakatda namoyon bo'lar ekan, harakat asoslangan, maqsad yo'naltirilgan va mahsuldor bo'lishi kerak.

O'qituvchi ijodkordir, uning ijodi tinglovchilarga bevosita amalga oshirilayotgan emotsional ta'sirda, jonli nutq, jonli harakatda namoyon bo'ladi. Pedagog ham aktyor kabi o'zining psixik-jismoniy yaxlitlik holatida faoliyat vositasi rolini o'ynaydi. Shuning uchun u o'z organizmini sozlashi, uni zarur paytda to'g'ri harakatni amalga oshira olishini ta'minlashi kerak.

5. Pedagogik texnikani egallash yo'llari

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomil-lashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun

quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi ta'lim oluvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. Ta'lim oluvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari ta'lim oluvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, ta'lim oluvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.



O'qituvchi tovush diapazonini, uning temбри bilan bog'lab ishlasa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilari va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchilarning o'zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy-metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.



4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olishi zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo'lar-bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni tinglovchilik yillarida o'zida tajribali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallash,



portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10–14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib)



ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovozning tabiiy bir holatga qo'yilishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bundan oldingi tarbiyaviy metodlarning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik harakatlar bo'lishi mumkin.

Bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmash kerak.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning qanday tamoyillari mavjud?
3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? Nima uchun ular ikki guruhga bo'linadi?
4. Pedagogik texnikaning usul va vositalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yosh o'qituvchilar faoliyatida yo'l qo'yadigan pedagogik texnikaga doir xatolarni tahlil eting.
6. Mimika va pantomimikaning o'qituvchining pedagogik mahoratida tutgan o'rni qanday?
7. O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida qanday psixologik holatlar o'z aksini topadi?
8. Pedagogik faoliyatda aktyorlik mahoratiga oid misollar keltiring.
9. Pedagogik faoliyatda rejissyorlik mahoratining o'rni haqida ma'lumot bering.



10. Pedagogik texnikani egallash yo‘llarini tushuntiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse VUZa: Monografiya / – Kolonna.: Pozitiv, 2012.
2. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
3. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
4. Bulatova O.S. Pedagogicheskiy artistizm: ucheb. posobie dlya stud. vyissh. ped. ucheb. zavedeniy. – M., 2001.

3 - MAVZU: PEDAGOGIK QOBILIYAT, PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ODOB

REJA:

1. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Pedagogik takt axloqiy tushuncha sifatida.
3. “Pedagogik odob” tushunchasi va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari.
4. O‘qituvchining muomala odobi. Pedagogik imij masalalari.
5. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik.

Tayanch tushunchalar: pedagogik qobiliyat, pedagogik takt, pedagogik deontologiya, pedagogik ta’sir, ta’sir mezoni, pedagogik odob, pedagogik taktika, kasbiy axloq qoidalari, o‘qituvchilik sha’ni va qadr-qimmatini, pedagogning ma’naviy qiyofasi, muomala odobi, pedagogik etika, ekstravert, introvert, o‘qituvchi nazokati, dilkashlik.

1. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub’ektiv shart-sharoitini ifodalovchi

individual psixik sifatlar yig‘indisiga aytiladi, zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo‘lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya’ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-



tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning yettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarini psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: *O'qituvchining dars va darsdan tashqari jarayonlarda guruhda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.*

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, ta'lim oluvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.*

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *o'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtni, harakat sur'atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.*

5. Mantiqiy qobiliyat: *mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish;*

6. Shaxsning ichki qobiliyati: *o'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo'rquv yoki noerkinlik tuyg'usi kamdan-kam holda bo'ladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.



Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo‘lib, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malakalardir. *Ko‘nikmalar* – o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir. *Malakalar* – o‘qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisidir.

Ular o‘qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta‘minlaydilarki, buning natijasida o‘qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o‘qituvchi ko‘p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko‘nikma va malakalarda ro‘yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko‘nikma va malakalari ko‘p qirrali va mukammallashgan bo‘ladi. Ko‘nikmalarni umumlashtirib **mohirlik** ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o‘zginasidir. Demak, qobiliyat ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o‘qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o‘qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug‘ma qobiliyatlar zehn deyiladi. **Iqtidor, iste’dod, daholik** – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter kabi, - shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishiga aytiladi. U o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatning ta‘lim mazmunini belgilovchi sifatlari o‘qituvchining ijodkorligida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo‘lgan o‘qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo‘ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o‘zlashtirish va targ‘ib qilishni anglatadi, ya‘ni uning asosida g‘oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivlashtirish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va



bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. “Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Pedagogik qobiliyatlar o'z funksiyasiga ko'ra **umumiy va maxsus** turlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi *talant* deyiladi.

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat – uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda sub'ektiv shart - sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri



oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

O'qituvchining pedagogik mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, kobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat yengilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo'lishi kerak.

Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatleri va xususiyatlari. Pedagogika-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarmas irsiyat" nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatleri** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muxabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:



Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligida, voqea va xodisalarga adolatli munosabatda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, ularning har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega.



Qobiliyatning **yetakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassonga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmagan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
 - o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
 - aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

2. Pedagogik takt-axloqiy tushuncha sifatida. tushunchasi

Takt ahloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lim oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, tinglovchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, tinglovchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining tinglovchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim–tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota–onaning sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.



Tinglovchilar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish tinglovchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar, ko'pincha, dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda tinglovchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir.

Insonparvarlik pedagogikasida pedagog tarbiyalanuvchilar birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan:

- 1) tarbiyalanuvchilarga mehri bo'lish, o'z mehrini ko'rsata olish;
- 2) ta'lim oluvchilar hatti-harakatlarining "ichki rag'batlantiruvchi kuchlarini" ko'ra olish;
- 3) vaziyatni to'g'ri baholay olish;
- 4) maqsadga muvofiq ta'sir etish usulini tanlash;
- 5) ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotni tashkil etish.

Pedagog va ta'lim oluvchi pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo'llaniladigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish kerak:

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'liga olish. Bu emotsional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va xotirjamlik!

Ikkinchi qoida. O'z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsional qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (Shu meni o'ylantiryapti...) Ya'ni hatti-



harakatni darrov baholamang, oldin tugʻilgan vaziyatga boʻlgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

Toʻrtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Taʼlim oluvchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni koʻrsatish.

Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan soʻng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yoʻllari).

3. “Pedagogik odob” tushunchasi va uning namoyon boʻlish xususiyatlari

Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan turmush sharoitining alohida tarzi, anʼanalari negizida odamlar oʻrtasida paydo boʻlgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi.

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini taʼlim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning taʼlim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, taʼlim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon boʻladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yigʻindisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning oʻzaro munosabatlarida namoyon boʻladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini taʼkidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon boʻlmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi.

Axloqiy taʼlim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yoʻnalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning oʻqituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – oʻqituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

Oʻqituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim boʻlgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, oʻqituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, feʼl-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri



ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, tinglovchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. **Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir.** Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ta'lim oluvchilarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

4. O'qituvchining muomala odobi. Pedagogik imij masalalari

Muomala odobi o'z tabiati, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega.



Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim boʻlgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi oʻrtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bogʻlanishlarga asoslanadi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchanlik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi oʻz xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, anʼanalarga, urf-odatlariga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir boʻladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida oʻziga, oʻz kasbiga, tinglovchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalariga muamolasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat, davlat oʻqituvchiga, taʼlim-tarbiya ishlariga nisbatan qoʻyayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi. Pedagogik jarayonda muomala odobi oʻqituvchining faoliyatida namoyon boʻladi. Oʻqituvchilik faoliyatida qoʻyiladigan axloqiy talablar, oʻz navbatida, Oʻzbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-anʼanaviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qoʻyayotgan vazifalariga bogʻliq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining taʼlim-tarbiya maqsadi, vazifalari, usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon boʻladi.

Muomala odobining tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda subʼekt-obʼekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Subʼekt-obʼekt munosabatlari muallim oʻzining professional burchini bajarayotganida tinglovchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan oʻqituvchi oʻrtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U oʻzaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik tashabbuskorlik, oʻzaro gʻamxoʻrlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini eʼzozlash kabilarda namoyon boʻladi. Ular oʻqituvchining pedagogik faoliyatida boshqalar bilan muamalasining xarakterini baholashda xizmat qiladi. Oʻzaro taʼsirlar oʻquv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarining xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik jarayonning oʻzida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud. Masalan, oʻquv ishlari sohasida, jamoat topshiriqlarini bajarishda tinglovchilar, bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlaridagi muomala, shuningdek, oʻqituvchining Vatanga, xalqqa boʻlgan munosabati oʻziga xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar oʻqituvchining bu muomala munosabati oʻz professional vazifasini burchini



bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakolatlar berilganligini nazarda tutadi.

Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi-bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi-figurasi sifatida tinglovchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. Tinglovchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob'ekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagogik muomala-munosabatlarda hissiyot aralashgani uchun ularning axloqiy va ruhiy jihatlarini bir-biridan ajratish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham bunday hodisalar haqida gapirganda, odatda, pedagogik jamoadagi axloqiy-ruhiy vaziyat tushunchasi ishlatiladi.

Demak, o'qituvchining muomala odobi -u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondoshuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: o'qituvchi bilan tinglovchilar o'rtasidagi muomala; o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala; o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala; o'qituvchi bilan maktab rahbarlari o'rtasidagi muomala.

Muomala odobida o'qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo'nalishlari, so'zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtai-nazari namoyon bo'ladi.

Demak, hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'qituvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish,



intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

Takt so'zi azaldan pedagogikada tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosini bildiradi va ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatni boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriya sifatida ta'riflanadi. Ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatlarda ham pedagogik takt o'qituvchidan mutlaqo bosiqlikni, suhbatdoshiga nisbatan hurmat va ehtiromni talab qiladi.

Pedagogik imidj.

Imij (inglizcha *image*) – "siymo", "timsol", "qiyofa" "tasvir", "obraz", ma'nolarini anglatadi. Imij tushunchasi reyting, obro', mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e'tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan hamohang. Shuningdek, imij - obraz (tasvir), taasurot, ovoza (mish-mish), nom, shuhrat, ijtimoiy fikr ma'nolarida ham ishlatiladi. Imij nafaqat obraz, qiyofa, balki unga bildirilgan munosabat va u haqdagi fikrlar majmui hamdir. Imijga – shaxsning ahloqiy mohiyati va unga muvofiq tashqi ko'rinish mutanosibligi ham kiradi.

Imijeologiya – insonning shaxsiy maftunkorligini yaratuvchi fan va san'at, ya'ni ta'sir o'tkazish texnologiyalari majmuasi desak xam bo'ladi.

Imijologik tadqiqotlar ko'p soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qiladi:

- Psixologlar,
- sotsiologlar,
- politologlar,
- marketologlar,
- filosoflar,
- pedagoglar,
- reklama mutaxassislari shular jumlasidandir.

Blez Paskal insonga imijning zarurligi haqida shunday deydi: "Insonlarga ta'sir qilishning ikki usuli mavjud: biri "ishontirish usuli", ikkinchisi "yoqish usuli". Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin.

Gyustav Lebon esa: "Maftunkorlik eng kuchli qurol, usiz ma'budlar, shohlar va ayollar boshqaruv tizimini o'z qo'llarida saqlay olmas edilar", -deb ta'kidlaydi.

Imijning vazifalari:


- inson hayot tarzini o'rgartiradi, faol yashash, o'z ustida ishlash va malakasini oshirishga rag'batlantiradi;
- shaxsiy ko'tarinkilikni, o'ziga ishonch va optimizmni yaratadi;



➤ insonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi, nizo va ziddiyatlar bartaraf qilinadi;

➤ psixoterapevtik vazifani amalga oshiradi.

Imijning asosiy vazifasi - boshqa insonlarning tilaklariga javob berish deb ham talqin qilinadi.



Imij nimada namoyon bo'ladi:

- tashqi ko'rinish
- kiyinish madaniyati
- urf va odatlar
- faoliyat va sa'y-harakatlar
- inson ahloqi
- o'zini tutishi
- maqsadlari
- xarakteri
- do'stlari va ular bilan munosabatlari....

Kasbiy imij uchun zarur bo'lgan xususiyatlar:

- Ishchanlik qobiliyati
- O'zini ko'rsatishga moyillik va qo'rqmaslik
- Konflikt vaziyatlarni yechimga olib kela olish
- Hamma bilan hamkorlik o'rnatish
- Aloqaga kirishuvchanlik, ya'ni keng ma'noda muomala qila olish

qobiliyati

■ Boshqalarga nisbatan mehri, ochiq, samimiy, to'g'ri, teng, mulozamatli muomala qila olish




■ Birovlarni ishontira olish, o‘zining ortidan torta olish, o‘zgalarga ta’sir o‘tkaza olish

■ Turli sharoitlarga tez moslasha olish, odamlarga va sharoitlarga nisbatan moslashuvchanlik

■ Optimizm, o‘z maqsadlarining to‘g‘riligiga komil ishonch

Mutaxassislar birlamchi imijning ta’sir kuchini alohida ta’kidlaydilar. Bu siyosatchining tashqi ko‘rinishi, kiyimi, mimika, pantomimikasi, jestikulyatsiyasi, nutqi, diksiyasi, ovoz tembri. Negaki, notiq berayotgan axborotning 45%ini nutqi orqali ifodalasa, qolgan 65%ini noverbal vositalar orqali namoyon etadi.

Imij – muvaffaqiyatga asoslanganhayotni yaratuvchi yo‘l hisoblanadi, ijobiy imij omad garovi, barqarorlik va ishonch timsolidir.



5. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik

Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lmish dilkashlik insonning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo‘lishga intilishi deb ta’riflanadi. Bu intilish o‘qituvchining ta’lim oluvchilar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o‘rnata olishi va belgilangan maqsadga erishishini ta’minlaydi. Albatta bu jarayon birdaniga sodir bo‘lmaydi, ayniqsa yosh o‘qituvchilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o‘qituvchining dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta’kidlaydilar:

Birinchi, **ekstravert** shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta’sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchi, **introvert** shaxslar: Ular faqat o‘z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.



Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, *ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar*. O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Dilkashlik munosabatini doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatida mujassamlashtirgan o'qituvchi quyidagilarni unutmasligi kerak:

- guruh jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir ta'lim oluvchilarga individual shaxs sifatida yondashishi;
- birorta ham ta'lim oluvchilarning yomon bo'lishiga, ularning hurmat e'tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror ta'lim oluvchiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatni yo'lga qo'yilishiga xalaqit qilishini bilishi;
- ta'lim oluvchilar bilan muloqotda haddan tashqari masofani (subordinatsiya) saqlash mumkin emasligi;
- guruh jamoasida sodir bo'ladigan kulgili vaziyatlarda o'qituvchining o'ta jiddiy va qat'iy bo'lishi jamoadagi qaltis ahvolni murakkablashtirib yuborishini unutmasligi;
- har bir ta'lim oluvchiga beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) o'qituvchi va ta'lim oluvchi orasidagi munosabatni mustahkamlaydigan ko'prik ekanligini unutmaslik.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida dilkashlik fazilati ta'lim oluvchilar jamoasi bilan qizg'in, muvaffaqiyatli muloqotga kirishib ketishida namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi o'zining kasbiy-pedagogik dilkashlik fazilati haqida va uning nima ekanligini va tarkibiy qismlari nimalardan iboratligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Avvalo o'qituvchi o'zining kasbiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlari nuqtai nazaridan e'tibor berib, dilkashlikning qanday jihatlarini o'zida shakllantirish lozimligini aniqlashi, va o'z-o'zida kommunikativ hislatlarni tarbiyalashning shaxsiy rejasini tuzishi kerak.

Pedagogik kommunikatsiyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati shundan iboratki, unda o'qituvchining yuksak kommunikativ madaniyati qay darajada ekanligi namoyon bo'ladi. O'qituvchining kommunikativ madaniyati o'z navbatida turli pedagogik vaziyatlarda paydo bo'ladigan oddiy insoniy dilkashlik xususiyatiga tayanadi. Har birimizda, o'z shaxsiy muloqotimizning va o'zgalarning



biz bilan olib boradigan shirin xushmuomalali muloqotidan ko‘plab ajoyib taassurotlar xotiramizda saqlanadi. O‘zaro muomalada dilkashlik fazilatlarini namoyish etadigan ko‘plab pedagog ustozlarni bilamiz. Ular har qanday vaziyatlarda kishilar bilan bemalol muloqotga kirishib keta oladilar. Biroq, muloqotda butun suhbat jarayonini faqat o‘ziga qaratib, kommunikatsiyaning qoq markazida faoliyat ko‘rsatishni istovchi o‘qituvchilarni ham bor. Hayotda yana shunday o‘qituvchilar uchraydiki, ular muloqotda kamgap, suhbatda istar-istamas ishtirok etishadi, mutlaqo faol kommunikativ rolni bajarishmaydi. Faqat kommunikativ xulqi bilan suhbatdoshini qo‘llab turadi. Ba‘zan hech kim bilan umuman muloqotga kirisha olmaydigan tund toifali o‘qituvchilar ham uchraydi. Ammo, pedagogik faoliyatda muloqotdagi xushmuomalalilik nafaqat insoniy fazilat sifatida, balki o‘qituvchilik kasbini tanlagan har bir kishining **kasbidagi yuksak shaxsiy fazilati** sifatida namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalilik, Sharq mutafakkirlari ijodida yuksak odob namunasi sifatida tasvirlangan. Dilkashlik, o‘qituvchi uchun ajoyib bezak hisoblanadi va muosharat odobi sifatida talqin qilinib, o‘qituvchilar ongiga singdirilgan.

O‘qituvchining xushmuomalaligi va dilkashligi o‘zida butun bir global insonparvarlik jarayonini qamrab oluvchi, ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan ajoyib fazilatlaridan biridir. O‘z pedagogik kasbidan voz kechgan sobiq o‘qituvchilar bilan suhbat jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ularning ko‘pchiligi qo‘pol, muloqotda nazokatsiz kishilar. Odamlar bilan muloqotga kirishish, ular uchun qiziqarli emas. Shu sababli o‘qituvchi sifatida kasbiy hislatlari ham shakllanmagan. Muloqot jarayoni – doimiy, uzoq vaqt davomida shakllanuvchi, keng qamrovli jarayon. Zero, shuning uchun pedagogik faoliyat – muomalada qo‘pol, nazokatsiz o‘qituvchilarni charchatadi, ish jarayoni uning g‘ashiga va asabiga tegadi, ta‘lim muassasasidagi faoliyatiga putur yetkazadi.

Xushmuomalalilik va dilkashlik shaxsning insoniy fazilati sifatida o‘qituvchining ham kasbiy faoliyatidagi yuksak fazilatlaridan biriga aylanib, o‘qituvchining pedagogik muloqoti unumdorligini ta‘minlaydi. O‘qituvchining dilkashligi – uchta tarkibiy qismni birlashtiruvchi jarayondir:

- muloqotda zaruriyatning mavjudligi;
- muloqotdan keyin, muloqot paytida, muloqotgacha yaxshi kayfiyat;
- kommunikativ ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish.

Ushbu ta‘rifda muloqotning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi ijodiy jihatlari ko‘rsatilgan. Biroq, muloqot uchun zaruriyat hamisha mavjudligi – umuminsoniy xususiyat bo‘lib, u barcha kasb egalariga taalluqlidir.



Rus olimi A.V.Mudrik o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchining xushmuomalalilik bilan muloqotga kirishishi va unga ko'nikma hosil qilishga nisbatan qobiliyatini aniqlaydigan quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatadi:

- inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarga muvofiqligi;
- notiqlik san'atini mukammal egallaganlik yoki nutqda erkinlik;
- xushmuomalalilik va shirinsuxanlik;
- empatiya va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan o'tkir zehnga ega bo'lish;
- ma'lum bir maqsadga qaratilgan aniq ijtimoiy munosabat (masalan, muloqot jarayonining natijalariga emas, balki o'ziga nisbatan qiziquvchanlik);
- kommunikativ mahoratda – vaqtni, suhbatdosh ichki dunyosini, munosabatni, vaziyatni aniq mo'ljalga olish.

Ushbu nuqtai nazardan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida mavjud bo'lgan **pedagogik dilkashlik** ham o'ziga xos mazmunga ega va uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim va tarbiyaning turli sharoitlarida ta'lim oluvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish uchun barqaror zaruriyatning mavjudligi;
- o'qituvchining shaxsiy va kasbiy jihatdan dilkashlik va xushmuomalalik fazilatlarini namoyon qilishda uzviylikning doimiyligi;
- dilkashlik va xushmuomalalikning barcha bosqichlarida ruhiy xotirjamlikni his etish;
- muloqotning samaradorligi va pedagogik faoliyatning turli tarkibiy qismlariga ijobiy ta'sir etishi;
- pedagogik kommunikatsiya jarayonini amalga oshirishda qobiliyatning mavjudligi;
- o'qituvchining pedagogik kommunikativ ko'nikma va malakalarni doimiy egallab borishi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi haqida gapiring.
2. Mohirlik, tug'ma qobiliyat, zehn tushunchalarini izohlang.



3. Iqtidor, iste'dod, daholikni – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari sifatida izohlang.
4. O'qituvchining kasbiy faoliyatiga qobiliyat qanday ahamiyat kasb etadi?
5. Ko'nikma va malakalarning qobiliyatga ta'siri nimada?
6. Ijodkorlik tushunchasini izohlab bering?
7. Iste'dod va talant tushunchalariga ta'rif bering?
8. Qobiliyatga pedagogik – psixologik nuqtai nazardan tavsif bering?
9. Shaxs qobiliyati va tabiiy iste'dodlar nimani anglatadi?
10. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatleri nimalardan iborat?
11. Qobiliyatning umumiy va maxsus turlari va ularning farqi?
12. Pedagogik qobiliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif bering?
13. Pedagogik qobiliyatning tayanch va yetakchi xususiyatlari?
14. Takt deganda nimani tushunasiz?
15. Pedagogik taktika tushunchasiga ta'rif bering.
16. Pedagogik taktikani tanlash usullarini aytib bering.
17. Pedagogik taktikani qo'llash qoidalariga nimalar kiradi?
18. O'qituvchi nazokati, dilkashlik tushunchalari ma'nosini tushuntiring.
19. Pedagog odobining o'ziga xosliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
20. Pedagog odobi fazilatlariga nimalar kiradi?
21. Pedagogik ta'sir va ta'sir mezonlari haqida ma'lumot bering.
22. O'qituvchilik sha'ni va qadr-qimmatini deganda nimani tushunasiz?
23. Pedagogning ma'naviy qiyofasini ta'riflab bering.
24. Kasbiy axloq qoidalariga nimalar kiradi?
25. Pedagogik etika tushunchasini izohlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. –T., 2009.
2. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse VUZa: Monografiya / – Kolomna.: Pozitiv, 2012.
3. Zanina L.V., Menshikova N.P. Основы педагогического мастерства. – Ros-tov-na-Donu, 2003.
4. Maxmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.



4 - MAVZU: PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIKNING MAZMUNI VA MOHIYATI. O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

REJA:

1. Pedagogikada “kompetentlik” tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari.
3. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o‘rni
4. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo‘llari.
5. Kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati va tahlili.
6. Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari
7. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik kasbiy kompetentlik, kasbiy ijodkorlik, yuksak professionalizm, kasbiy va shaxsiy kamolot, uch darajani namoyon etuvchi kompetentlik darajalari, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, bitta predmet(fan) bo‘yicha kompetentlik, tayanch kompetentlik turlari, yaxlit-mazmunli kompetentlik, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, o‘quv-bilish kompetentligi, axborot olish kompetentligi, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik, amaliy faoliyatga oid kompetentlik, nutqning madaniylik, to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik kabi kommunikativ sifatleri, kasbiy-pedagogik muloqot, kommunikativ taktika va strategiyalarga ega bo‘lish, og‘zaki va yozma muloqot kompetensiyalari, muloqotda o‘qituvchining tashabbuskorligi, kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari.

1. Pedagogikada “kompetentlik” tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiyotning globalashuvi, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining jahon miqyosidagi integratsiyasi milliy pedagogikamiz oldiga dunyoda qabul qilingan pedagogik tushunchalarni milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda ta’lim tizimiga moslashtirish vazifasini qo‘yadi. Xususan, ta’limning bilim paradigmasini kompetentlik yondashuvi nuqtai-nazaridan takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Texnika va texnologiyaning kun sayin o‘zgarib borishi axborotlarning shiddat bilan yangilanishi va tarqalishi zamonaviy sharoitlarga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘lish va yangi bilimlarga intilishni talab etadi. Shuning



uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir bo'lajak o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabi bo'lib, bo'lajak o'qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarining shakllanish tarixi bizga kompetentlik yondoshuvining metodologik mohiyatini ochishga yordam beradi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, kompetentlik yondoshuvining asoschisi Aristotel hisoblanadi, u inson holatining yunoncha “alere” deb belgilanadigan imkoniyatlarini o'rgangan, ya'ni “alere” – shunday darajada rivojlangan va takomillashgan kuch bo'lib, shaxsning o'ziga xos xususiyatiga aylangan. Boshqa tadqiqotchilar esa “kompetentlik va kompetensiya” tushunchalari 1958 yildan boshlab ishlatila boshlangan deb hisoblaydilar. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, kompetensiya muammosiga bo'lgan qiziqishlarning yuzaga kelishi “odatda iqtisodiyot, ta'lim va madaniyatdagi tanglik vaziyatlariga to'g'ri keladi”.⁵

Kompetensiya va **kompetentlik** atamaları o'zakkdosh bo'lib, ular G'arb ilmiy adabiyotida 60 yillarning oxiri, 70 yillarda paydo bo'ldi. “Kompetensiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran ishlatila boshlandi. “Kompetensiya” atamasi “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikatsiya” atamaları bilan ma'nodosh hisoblanib kelindi.

«**Kompetensiya**» - muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo'lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati tushuniladi¹.

“**Kompetentlik**”- voqea-hodisalar, masalalar yechimi to'g'risida xabardor bo'lish, muayyan nufuzga ega bo'lishni o'zida ifoda etadi².

Ilmiy tadqiqotlarda kompetensiya **pedagogik hodisa** sifatida XX asrning 70 yillaridan e'tiboran tadqiq etila boshlandi.

Amerika tadqiqotchilari Dj. Raven, L. Stross, Dj. Morenolar fikricha, kompetentlik - «shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur

⁵ Козырева О.А. Компетентност современного учителя: современная проблема определения понятию. //Стандарты и мониторинг в образовании.–2004.– № 2.



bo'ladigan qobiliyatlar majmui, malakalarning namoyon bo'lishi, mas'uliyat hissining mo'jassamlashuvi natijasida paydo bo'ladigan tafakkur turi³»- deb tavsiflaydilar.

Ilmiy adabiyotlardagi barcha fikrlarni umumlashtirib, bugungi kunda kompetensiyaning bir necha ko'rinishlari mavjud, degan xulosaga kelindi:

1. Siyosiy va ijtimoiy kompetensiya:

Shaxsda kuchli mas'uliyat hissining mavjudligi, jamoaviy qaror qabul qilish, ixtiloflarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish, nizolar va ziddiyatlarning kelib chiqishini oldini olish, jamiyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan demokratik institutlarda qatnashish qobiliyati.

2. Ko'pmillatli va ko'pmadaniyatli jamiyat kompetensiyasi:

Irqchilik va ksenofobiya(bir millatning o'zga millat ustidan hukmronlik, dominantalik qilishi)ning tarqalishiga to'sqinlik qilish. Ma'naviy va ma'rifiy qarashlar asosida yoshlarda o'zga xalq, millat va elat vakillari tili, dini, qadriyatlarini tushunish, ularni hurmat qilish, bag'rikenglikni shakllantirish

3. Muloqot kompetensiyasi

Muloqotning og'zaki va yozma nutq normalariga rioya qilish, kommunikativlik, muloqatmandlik, kirishimlilik, jamoada o'zga insonlar bilan hamkorlik aloqalarini tashkil qilish, jamiyatda o'zga tillarni o'rganish va shu asosda jahon fan va madaniyati, san'atidan xabardor bo'lish.

4. Texnologiyaviy kompetensiya:

Jamiyatda texnologiyalashtirish jarayoni bilan birga paydo bo'lgan kompetensiya ko'rinishi. Turli axborot va innovatsion texnologiyalardan xabardor bo'lish va ularni o'z faoliyatida qullay olish;

Ommaviy axborot vositalari(OAV), Internet tarmoqlarida taqdim qilinayotgan ma'lumotlar, roliklar, reklamalarni tahlil qila olish, ularga baho berish va tanqidiy yondashish qobiliyati.

5. Kasbiy mahoratni oshirishga mo'ljallangan bilim egallash kompetensiyasi:

Shaxsning butun umri davomida o'z bilimlarini kengaytirishi, kasbiy ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan ishtiyoqi, shaxsiy va jamoadagi nufuzini rivojlantirish zarurati.

Darxaqiqat, hozirgi ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy- pedagogik bilimdonligi uning kasbiy tayyorgarligini muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, o'z navbatida bilimdonlik - o'qituvchi uchun muhim bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, ya'ni innovatsion tayyorgarlikni talab etadi.

Bu esa o'qituvchidan:



- pedagogik voqelikni izchil idrok etish; fan sohasiga yoʻnalganlik;
- pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash; shaxslararo muloqotni tashkil eta olish; oʻz fani, faoliyat sohasi boʻyicha axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalana olish; oʻquv axbrotlarini boshqalarga yetkaza bilish; muayyan darajada shakllangan dunyoqarashni talab etadi.

Bu tarkibiy qismlar mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanishining ajralmas shartlaridan hisoblanadi.

Taʼlim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega boʻlgan zamonaviy oʻqituvchining kompetentligi yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yoʻgʻrilgan.

“Kompetentlik bu kasbiy faoliyatga oid bir qancha shaxsiy sifatlarni mujassam etgan keng qamrovli tushuncha boʻlib, kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi 37 turdagi omillar ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.”⁶

Shu oʻrinda “kompetentlik” soʻziga izoh berib oʻtsak. **Kompetentlik-** lotincha Competens-tegishli, layoqatli maʼnosini anglatadi. U malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va layoqatni oʻz ichiga olishdan tashqari, yana sifat, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ uquv, taʼlim olish, baholash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham oʻzida mujassamlashtiradi.

Pedagogikada “kompetentlik” – oʻquvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi hamda ularning kasbiy faoliyatda qoʻllay olishi bilan ifodalanadi.

Pedagogik kompetentlik – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikning yorqin koʻrinishi sifatida tushuniladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, taʼlim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini taʼminlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, oʻqituvchilarni tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

⁶ Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. (monografiya)–T.: «Fan va texnologiya», 2013.



Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda boʻlgan taʼlim mazmunini bevosita oʻrganishi shuni koʻrsatdiki, Gʻarb mamlakatlarida asosiy oʻrinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi egallaydi. Respublikamizning milliy taʼlim tizimi mohiyatiga koʻra taʼlim mazmunining minimal talablari bilim, koʻnikma va malakaga asoslanadi.

Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qoʻyiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari toʻplamini maqsadga muvofiq qoʻllash qobiliyatini anglatadi.

2. Kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qoʻllay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur oʻrinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham toʻla ochiladi, u quyidagi ikki koʻrinishda namoyon boʻladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri toʻplami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Taʼlim mazmunining oʻquv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar toʻplami uchun) va predmetli (maʼlum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni eʼtirof etib oʻtamiz:

- tayanch kompetentlik (taʼlimning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga koʻra);
- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning oʻquv fanlari va taʼlim bloklarining maʼlum doirligiga koʻra);
- bitta predmet(fan) boʻyicha kompetentligi (maxsus oʻquv fani doirasida aniq va maʼlum imkoniyatga egaligiga koʻra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik pedagogik taʼlimning har bir bosqichi uchun taʼlim bloklari va oʻquv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik taʼlimning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy koʻnikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy



turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo‘linadi:

1. Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu o‘quvchining qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog‘liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog‘liq kompetentlik, u talaba uchun o‘quv va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta‘minlaydi. Talabaning individual ta‘lim yo‘nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog‘liq.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. O‘quvchi chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma‘naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an‘analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta‘siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

3. O‘quv-bilish kompetentligi, bu talabaning o‘rganilayotgan aniq ob‘ektlar bilan bog‘liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O‘rganilayotgan ob‘ektlarga nisbatan talaba-larni kreativ ko‘nikmalari, ya‘ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

4. Axborot olish kompetentligi. Audio-video ko‘rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o‘zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o‘quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o‘zlashtirishini ta‘minlaydi.

5. Kommunikativ kompetentlik. Ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilishni o‘z ichiga oladi.

6. Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik. Fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste‘molchi, haridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeyini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash(xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab, harakat




qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

7. Amaliy faoliyatga oid kompetentlikda bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko'chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalari tushuniladi.

Zamonaviy o'qituvchining **kompetensiyasi**–o'z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi bilan belgilanadi va shaxsiy qadriyatlari, sifatlari, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishida ifodalanadi. Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchining kompetentligini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi
- O'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi
- O'qituvchining umuminsoniy, madaniy kompetensiyasi
- O'qituvchining maxsus kompetensiyasi

Kompetensiya turlari



O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi:

- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- o'z ustida tinimsiz ishlashi;
- ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- o'qituvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni bilishi;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- o'z fanini mukammal bilishi;
- xorijiy tillarni bilishi va boshqalar.

Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:



1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

O‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasi:

- Muloqatchanlik;
- Bag‘rikenglik;
- Yetakchilik;
- Faollik va tashabbuskorlik;
- Moslashuvchanlik;
- Sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- Ma‘suliyatlilik;
- Ishchanlik;
- Insonparvarlik.

O‘qituvchining umuminsoniy, madaniy kompetensiyasi:

- Ma‘lumotlilik;
- Madaniyatlilik;
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- Milliy madaniyatga ega bo‘lish;
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.

O‘qituvchining maxsus kompetensiyasi:

- Faniga doir maxsus metodlarni bilish;
- Ta‘limni tabaqalashtirish;
- O‘quvchilar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish;

O‘zbek olimi M. Ochilov “kompetensiya” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “kompetensiya - bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatdagi ko‘rinishi¹”. Kvalifikatsiya esa faoliyatdagi bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lishidir. Demak, kompetensiya ko‘rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo‘ladi.

Har qanday ta‘lim tarbiy jarayoni ishtirokchilari o‘qituvchi va o‘quvchilar hisoblanadi. Bu ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi natijasida, ya’ni ularning o‘zaro ta’sir muloqot va munosabatlari tufayli ta‘lim tarbiya jarayoni amalga oshadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni yo‘naltirish, safarbar etishdan iborat bo‘lib, ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar bilan belgilanadi. O‘qituvchi o‘quv materiallarini o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun eng avvalo

¹ Ochilov M. O‘qituvchining muomala madaniyati. – Qarshi: Nasaf, 2012.-66-bet.



soʻz (nutqdan), shuningdek, shart-sharoit, vaziyat, shakl, metod, vositalardan foydalanadi. Pedagogik faoliyatda muvafaqqiyatga erishish kasbiy va shaxsiy sifatlarining uygʻunligi - kasbiy kompetentlikni talab etadi.

Inglizcha “competence” tushunchasining lugʻaviy manosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, koʻnikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga hizmat qiladi.

Oʻqituvchining oʻquvchilarga taʼlim va tarbiya berish pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot jarayonida doimiy ravishda yuqori natijalarga erishishi uning kasbiy kompetentligi deyiladi.

N.A.Muslimovning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikka shunday taʼrif beriladi: “Kompetentlik- bu shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur boʻlgan bilan koʻnikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qoʻllanilishi bilan ifodalanadi”.⁷

Mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, taʼlim tizimi esa – bilim, koʻnikma va malakalar darajasi bilan oʻlchanadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qoʻyiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari toʻplamini maqsadga muvofiq qoʻllash qobiliyatini anglatadi.

U quyidagi ikki koʻrinshda namoyon boʻladi: shaxsiy sifatlar toʻplami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Taʼlim mazmunining oʻquv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar toʻplami uchun) va predmetli (maʼlum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois, quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlik eʼtirof etiladi:

1. tayanch kompetentlik (taʼlimning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga koʻra);
2. fanlararo kompetentlik umumkasbiy (tayyorgarlikning oʻquv fanlari va taʼlim bloklariga doirlikiga koʻra);
3. bitta predmet (fan) boʻyicha kompetentligi (maxsus oʻquv fani doirasida aniq va maʼlum imkoniyatga egaligiga koʻra).

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu oʻziga xos ijodkorlik, pedagogik innovatsiyalar va oʻzgaruvchan pedagogik muhitga moslashish, zehnlilik qobiliyatining shaklanishidir. Hozirgi kunda yuksak kasbiy tayyorgarlik deyilganda mutaxassisning koʻp bilishi va koʻplab kasbiy koʻnikma va malakalarni egallashi emas, balki unda turli qobiliyatlarning tizimli xarakterda rivojlanganligi va ulardan imkoni boricha samarali foydalanish tushuniladi. Bunda taʼlim va

⁷ Muslimov N.A. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.



tarbiyaning shunday tizimini modellashtirish nazarda tutiladiki, unda bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlarini an'anaviy tarzda uzatish emas, balki shaxs kasbiy mahoratining yuksalishi va rivojlanishi uchun barcha imkoniyat hamda shart-sharoitlarni maksimal darajada yaratish asosiy masala hisoblanadi. O'quvchi –yoshlarning kasbiy kompetentligi bosqichma-bosqich, pedagogik turkum fanlari hamda umummutaxassislik fanlarining integratsiyasi, ya'ni didaktik sintezi va fanlararo aloqadorlik darajasida amalga oshiriladi. Kompetentlik bu kasbiy faoliyatga oid bir qancha shaxsiy sifatlarni mujassam etgan keng qamrovli tushucha bo'lib, kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi 37 turdagi omillar ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta'kidlashlaricha, kompetentlik-shaxsning murakkab, yaxlit bir butun, ko'p omilli, ko'p qirrali sifatidir. Kompetentlikning vujudga kelishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo'lib xizmat qiladi:

- 1) ma'lum fan sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar;
- 2) mustaqil faoliyatdagi amaliy tajriba.

Biroq bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanganligi bilan, kompetentlik ularning o'zidagina iborat emas. Kompetentlik shaxsning "bilim, ko'nikma va malakalar" asosida shakllangan sifati bo'lib, ularni muayyan vaziyatda, amaliy faoliyatda qo'llay olishga qodirligidir. Kompetentlik muayyan sohaga oid faoliyatni o'zlashtirib borish jarayonida vujudga keladi, shuning uchun ham ushbu faoliyat kompetentlikning ikkinchi muhim poydevori hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi o'z kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi hislatlarga ega bo'lishi lozim:

1. **Tashkilotchi, ijtimoiy pedagog:** o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi
2. **Yetakchi**-sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko'rsatadi;
3. **Metodist**-ta'lim jarayonida o'quvchilarning muammolarini echishda yordam beradi va qo'llab-quvatlaydi.
4. **Faylasuf**-bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi;
5. **Tajribali yaqin do'st**-o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf yetishga yordam beradi.
6. **Tadqiqotchi – novator** - yangilik yaratuvchi - muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi, tatbiq etadi.
7. **O'quv jarayonini rahbari va uni rag'batlantiruvchi** –maqsadga yetishish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarini tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga o'rgatadi, ijodiy yondashadi.
8. **O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi**–jamoaga bo'lib ishlaydi va ishlashga o'rgatadi.
9. **Maslahatchi**-shaxsiy namunasini o'rgatadi



10. **Tarbiyachi**-o'quvchilarga jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.

11. **Psixolog**-o'zini yaxshi biladi va tushunadi

12. **O'zgarishlarga yo'naltiruvchi**-o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi

13. **Ma'lumotlarni taqsimlovchi**-o'quvchilarga asosiy yangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi.

Demak, globallashuv sari borayotgan hozirgi paytda dunyodagi davlatlarning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi, ularning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida zamonaviy o'qituvchilarda quyidagi hislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- Insonparvarlik, vatanparvarlik hislatlarini rivojlantirish;
- kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o'z ishiga ijodiy yondashish hislatlarini tarkib toptirish;
- pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;
- nutq texnikasini, o'z tovush, mimika, jest va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo'lish hamda ulardan zarurlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

3. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o'rni

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllanishi ularni o'qitish jarayonida shaxs ijodiy faoliyatini faolligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi bu talabalarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishni, eruditsiyani, qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsiy sifatlarining ikki jihatini alohida ta'kidlash darkor: ijtimoiy (hamkorlik qila bilishi, ziddiyat-larni yechish,



tashabbuskorlik ko'rsatish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish, guruh ishini tashkil etish) hamda shaxsiy sifatlar (loyi-halash faoliyatida o'zining fikrini tushuntira olish yo'llarini bilish va o'z ustida ishlash) kabilar. Ular texnik fikrlash bilan bog'liq bo'lib, mustaqil va o'z kuchiga ishonish, kreativlik hamda o'zining kasbiy mahoratini muntazam yashirib borishga intilish kabi sifatlardan iborat.

O'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishning xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, O.N.Larionova muhandis mutaxassisligi kompetentligini tahlil qilganligiga e'tibor qarat-dik, ya'ni u quyidagi fikrlarni olg'a suradi. Uning fikricha, bu kompetentlik o'z tarkibiga besh turdagi kompetentliklarni birlashtirgan: *axboriy-metodologik, ijtimoiy-kommunikativlik, shaxsiy-mutanosiblik, tezkor-texnologik, nazariy* kabilar.

Axboriy-metodologik kompetentlik bir tomondan muhandisning turli axborotlardan foydalana bilish mahoratini o'z ichiga olsa (axborot zahiralari haqidagi bilimi, ularni izlab topish, tanlash, norasmiy testlarni, ma'lum manbalar bilan solishti-rish), boshqa tomondan esa fanning turli sohalarini tashkil etish tamoyillari haqidagi, sabab va oqibatlarini aniqlash mahorati va turli hodisalardagi o'xshashliklarni aniqlash kabi bilimlari nazarda tutiladi.

Muhandisning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi uning jamoa bilan va jamoada ishlashni, ijtimoiy-iqtisodiy mikro va makro vaziyatlarni munosib baholay bilishi demakdir.

Shaxsiy mutanosiblik kompetentlik o'z ichiga nafaqat o'zining psixologik va jismoniy salomatligini bilishi, balki uni ehtiyot qilishni ham nazarda tutadi.

Tezkor-texnologik kompetentlik ma'lum ishlab chiqarish sohasida zarur bo'lgan faoliyatlarning barcha turini, ishchidan tortib to korxonra rahbari faoliyatigacha bilish qobiliyati demakdir.

Nazariy kompetentlik – bu butun bir yig'ilgan bilimlar jamlamasi bo'lib, undan foydalana bilish va uni yanada boyitib borish demakdir.

Bu muallifning qarashlarida kasbiy kompetentlikni tahlil qilinar ekan, muhandis mutaxassisligining kompetentligi tarkibiga ijodiy izlanish jihatlari kiritilmagan. Zero, ishlab chiqarish mutaxassislari-muhandislarning kasbiy kompetentligi tarkibiga ijodiy izlanuvchanlik, ijodkorlik hamda yangiliklarga chanqoqlik kabi sifatlar kiritilishi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Ijodkorlik mohiyatini o'rganish, aytish joiz bo'lsa, o'ta murakkab masala sanaladi. Chunki uning zimmasiga tabiatni o'rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo'yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, ob'ektiv va sub'ektiv, individual va jamoa o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o'z ichiga qamrab oladi. Uning murakkabligi shundaki, bu o'rinda o'rganish predmeti sifatida hodisa yuzaga chiqadi. Uning ichki mohiyatini to'g'ridan-to'g'ri o'rganish mumkin emas.



Ijodkorlik soʻzining ijtimoiy adabiyotlarda bir qator sinonimlari mavjud. Ular koʻp hollarda novatorlik, ijodiy qobiliyat, samarador faoliyat, ijodiy faoliyat, evristik faoliyat, ijodiy faollik, fikrlashning ijodiy usuli, ijodiy potensial, ijodiy izlanuvchanlik kabi soʻzlar bilan izohlanadi. Bizningcha, ijodkorlikni aniqlashda S.L. Rubenshteynning fikrlari aniq va loʻnda bayon etilgan: uning taʼkidlashicha, «Ijodkorlik u qandaydir yangilik yaratuvchi faoliyatdir. U ijodkor yuksalishi tarixiga yangilik olib kiradi. Shu bilan birga, fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida ham oʻz izini qoldiradi» [82].

Ijodkorlik – «qayta shakllantirish», – «mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir». «Qayta shakllantirish» ijodkorligi oʻz ichiga oldindan maʼlum boʻlgan shaklga oʻxshagan yangi shaklni kashf etishdir, yaʼni bu jarayon munosib boʻlmagan shaklni, munosibrogʻi bilan almashtirishni oʻz ichiga oladi. Bu degani, oldingiga qaraganda mukammalroq tarkibiy qismlarni joylashtirish demakdir. Shu kabi ijodkorlikni oʻrga-nish imkoniyatlarini isbotlash uchun qanday evristik, yaʼni yangi taklif va yoʻriqnomalarimiz borligini koʻrsatishimiz zarur. Imkoniyatlarni, yangi yoʻllarni faol izlashimiz, narsalarni oʻrga-nish, chalgʻituvchi va taxminiy fikrlarni aniqlay bilishimiz dar-kor. Bu holda oʻrganish imkoniyatlari asosiy yoʻnalishlarni idrok qilish, yoʻl va choralarni faol bilishga intilishni taqozo qiladi. Albatta, topilgan shakl-qoidalarimizga boʻysundirilishi darkor.

Ijodkorlik «bir shakldan ikkinchi shaklga oʻtkazish» – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, maʼlum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini boʻlmaydi. Lekin narsalarni anglash-ning haqiqatan yangi usullari va yangi shakllari sifatida paydo boʻladi, metaforalarning qoʻllanilishi – bu bir shakldan ikkinchi shaklga oʻtkazish «transformatsion» ijodkorlikka misol boʻladi.

Bu ijodkorlik uchun evristik jarayon shakl va qoidalardan boshqariladigan shakl qoidalarini rivojlanishi uchun tugʻilayotgan imkoniyatlar sari harakat qiladi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan soʻng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qoʻllanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchisining kasbiy kompetentli-gini shakllanishi haqida fikr bildirar ekanmiz, bu borada M.G.Yarashevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovorligini aytish joiz. Ijodkorlik jarayoniga sistemali munosabat uch jihatli tarkib va ularning oʻzaro uzviyligida oʻrganishni taqozo etadi. Ular narsa va hodisalar, ijtimoiy, shaxsga oid tarkiblardan iboratdir, yaʼni:

1) narsa va hodisalar tarkibi bu – evristika, narsaning yangi obrazini yaratuvchi ruhiy «mato», soʻngra u ilmiy matnga aylanadi va yangi gʻoyalar, nazariyalar va kashfiyotlar sifatida yuzaga chiqadi. Bu evristikalar: analoglar,



metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo'lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va vizual shaklga ega bo'ladi.

2) ijtimoiy tarkib bu - bunday ijodkorlik M.G.Yarashevskiy fikriga ko'ra, kognetiv-dialogik «dastlabki faolligi» sifatida ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, opponentlar, muqobilliklar ham ijodiy jarayonlarning avj olishiga turtki beradi.

3) shaxsga oid tarkib bu - shaxsiy intilish, ichki maqsadli istak va ijod sub'ektining xususiy sifatlaridan iborat bo'lib, ijodiy jarayonlarni uzluksiz tashkil etishda yuzaga chiqadigan yangi belgilar, o'zgarishlardan iborat.

R.F.Muxutdinov ijodkorlik mohiyatini ochib berish uchun tasniflash modeli yordamida ikki eng muhim yo'nalish mavjudligini ta'kidlaydi.

Birinchi, I.Ya.Lerner nuqtai nazariga bog'liq, unga ko'ra, ijod bilan shug'ullanuvchi kishilarning fazilatlarini chegarasini o'lchab bo'lmaydi, ular haqida fikr aytish uchun ana shu faoliyat tabiatini anglamay, unga monand xislatlarni bilmay, aniqrog'i, uning ijodiy faoliyat jarayonlarini o'rganmay turib gap yuritish mumkin emas. Shu munosabat bilan tadqiqotchi ijodiy faoliyatning protsessual chegaralarini ajratib ko'rsatadi [44]:

- mustaqil ravishda uzoq va yaqin, ichki va tashqi bilimlar tizimni va mahoratni yangi vaziyatga ko'chiradi;

- an'anaviy vaziyatlarda yangi muammolarni his etadi;

- ob'ekt an'anaviy funksiyasi o'rniga yangisini tasavvur qiladi;

- ob'ekt tuzilishini his etadi;

- masalalarni yechishda muqobil yechimlarni ham hisobga oladi;

- yangi muammolarni hal etishda faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullari va yo'llarini qayta ishlaydi;

- prinsipial yangi yo'llar topish niyatida eskirib qolgan yo'llardan voz kechadi.

Inson faktorini faollashtiruvchi samarador zaxiralardan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarida ishlab chiqish, texnika-da, fanda, ta'lim va boshqaruvda ijodkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shu bois ijodiy muammolarni jamoa bo'lib yechish sharoitlari va tashkil etish shakllari, muammolari kun tartibidagi dolzarb masalalardir. Ijodiy kadrlarni tanlash va tayyor-lash, ishchilarning ijodiy imkoniyatlarini va qobiliyatlarini bashorat qilish, ijodiy jamoalarni shakllantirish, ularni boshqarish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Intellectual faoliyatdagi ijodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish ijodkorlik metodologiyasi sifatida ijodkorlikda tanlash masalalarini yechish nazariyasidir. Unga ko'ra barcha tizimlar ma'lum qonunlar asosida rivojlanadi, ularni idrok qilish va qo'llash mumkin degan shartlarga asoslanadi.



Ikkinchi yoʻnalish esa ijodkor shaxsi mohiyatini ochib berish hisoblanib, shaxsning tasniflovchi fazilatlari yordamida uning faoliyatidagi qatʼiylik masalasini ajratib koʻrsatadi.

Ijodkor odamlar koʻplab faktlarni qiyoslash orqali ularning oʻzaro bogʻliqligi asoslarini aniqlaydilar, oʻz fikrlashi va faoliyatida qotib qolgan qarashlardan zudlik bilan voz kechadilar. Tezlik bilan reproduktiv esda qolgan narsalarni tasvirlash faoliyatidan ijodiy faoliyatga oʻta oladi-lar. Oʻzlari yaratgan narsalar, vazifalar bajarishga yaroqsiz boʻlsa, osongina ulardan voz kecha oladilar.

Aytishimiz mumkinki, aqlan intilish, harakat qilish qobiliyati, boshqa barcha qobiliyatlarni rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. I.M.Vyotkin ijodkor shaxsining quyidagi xususiyatlarini sanab oʻtadi:

- yangi yoki butunlay oʻrganilmagan, jamiyat uchun oʻta muhim va foydali – munosib maqsadga (maqsadlar tizimiga) ega boʻladi;

- oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish uchun uning indivi-dual rejalari boʻlib, ularning bajarilishi ustidan nazorat oʻrnatadi;

- belgilangan rejalarni bajarish ishtiyoqi kuchli boʻlib, katta hajmdagi ishlarni bajaradi;

- oʻz gʻoyalarni himoya qilish qobiliyatiga ega boʻladi;

- jamoatchilikning eʼtirozlarini toʻgʻri qabul qiladi, tushkunlikka tushmaydi, sabr bilan maqsadiga sodiq qoladi.

- qoʻlga kiritilgan natijalarga munosib boʻladi. Umumiy qobiliyatlaridan (bajara olish, chidamlilik, maqsadga yetish, moʻljalni toʻgʻri olish va xotirjamlik) tashqari «kundalik tashvishlar» holatidan fikrlash, tafakkur qilish, ijod bilan shugʻullanish, diqqatini yigʻish, (eng muhimi) yana orqaga qaytish kabi xususiyatlar ijodkor shaxsga xos fazilatlardir;

- oʻzining muntazam takrorlanib turadigan xatolarini bamay-lixotir tan olishni bilish, oʻz istaklari, fikri va harakatlari oqibatida yuzaga kelgan vaziyatlarga tayyor turishi kabilardir.

Murakkab ishlarni bajarish uchun jiddiy muammolarni yechishi, katta hajmdagi tadqiqotlarni oʻtkazish uchun ularga zarur boʻlgan anjom va aslahalardan foydalana bilishi, vaziyatga qarab ularni almashtirishi; oʻz kamchilik va xatolarni vaqtida sezishi, bir vaqtlar olingan gʻoyalarni yangicha qoʻllashiga erishishi; biron-bir hodisa yoki voqeaga erkin tarzda eʼtibor qaratishi, unga ham ehtiros bilan, ham mantiqiy yondasha bilishi; bir hodisani oʻrganish uchun bir-birini toʻldiruvchi bir necha modellarni qoʻllashi; mavjud nazariya va modellarni tanqid qilishi kabi xususiyatlardir.

Tizimli ijodiy fikrlash shakllanishining muvaffaqiyati kasbiy taʼlim jarayonlarida koʻpincha ijodiy fikrlashning asosiy unsurlari shakllanishi darajasiga bogʻliq. Ana shunday unsurlar tarkibiga quyidagilar kiradi:



- tahlil qilish qobiliyati, umumlashtirish, qiyoslash, sabab va oqibatlar o'rtasidagi bog'liqlikni bilish;
- tanqidiy fikrlash va bahslashish;
- voqealar rivojini oldindan taxmin qilish, har qanday tizim yoki ob'ektga o'tmish, bugungi kun va kelajak nuqtai nazaridan yondasha bilish;
- harakatlar algoritmini terish, yangi g'oyalarni kuchaytirish va yechimlarni grafik obraz shaklida aks ettirish kabilardir.

Hozirgi zamon ilmiy bilimlardagi yangi kashfiyotlar, ayniqsa, kompyuter texnologiyalari ijodkorlik uchun qandaydir muhim sifatlar bo'lishi lozimligini inkor etmoqda. Ijodkorlik uchun eng muhimi ma'lum analog va o'xshash narsalarni aniqlay olishdek umumiy qobiliyat bo'lishini taqozo etadi. Bir qator mualliflar mana shu fikrlarni ta'kidlamodalar.

Ijodkor shaxslar kognitiv jihatdan har tomonlama tayyorgarligidan tashqari o'z faoliyatida emotsional (ehtirosli), estetik (nafosatli) sifatlari bilan ham ajralib turadilar.

V.I.Samaxvalovning ta'kidlashicha, ijodkor shaxsi o'zini namoyon qilish uchun qudratli kuchga ega bo'lgan odamdir, ammo, birinchidan, bu energiyani yangilik yaratish uchun safarbar qiladi, ikkinchidan, ruhiyatida yuzaga kelgan vulqonni jilovlay oladi, o'z ongida yuzaga kelgan turli rejalarni o'zaro uyg'unlikda, o'z fikr-lari doirasida erkin, uddaburonlik bilan samarali qo'llaydi, o'z his-tuyg'ularini va g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun nima qilishni yaxshi biladi. O'z hayolotidagi obrazlarni boshqalar uchun zarur bo'lgan mulkka aylantiradi. Ijodkor odam ijod qilishga chanqoq bo'ladi. Uni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni yaxshi biladi.

O'qituvchiga butun hayoti davomida tayanch ma'lumotiga qo'shimcha ravishda maxsus ko'nikma va malakalarni egallab borishga va ularni ta'lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llashga, o'qituvchining kasbiy-ijodkorlik imkoniyatlarini amalga oshirishga va shu orqali kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirib borish imkonini beradi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan shuni aytish joiz bo'ladiki, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta ta'sir ko'rsatadi va o'qituvchilik faoliyatining sermahsul bo'lishiga olib keladi.

4. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari

Mazmun-mohiyatiga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi funksional (turli fan sohalarini tashkil etish prinsiplari haqidagi bilimlar) harakat haqidagi amaliy bilimlar (metodik va texnologik) hamda shaxsning o'z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida



mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko'nikmalari shakllanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobiy yechish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Tezkor faoliyat va maqsadlarga bo'ysundirilgan unsurlarga kasbiy komponentlar kiradi: o'qish va bilim olish, maqsad va mo'ljallash, qayta tashkil qilish, kommunikativ va estetik unsurlar ana shular jumlasidandir.

Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi shaxsning murakkab tuzilmasi bo'lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, kasbiy bilimlar, mahorat, ko'nikmalar, kasbiy ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo'naltirilganligi, umuman, kasbiy vazifalar samarasi yechim topishni ta'minlovchi majmuadir.

Davlatimiz ta'lim sohasiga, yetuk kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Bu o'z navbatida yoshlarimizni yanada chuqurroq bilim olishi, yuksak ma'naviyatli yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga zamin yaratmoqda. Chunonchi hozirgi murakkab texnologiyalar, yuksak ilm-fan va tafakkur davrida yetuklikning asosiy shartlari ham bilim va hunarni chuqur egallash, kasbiy kompetentlikka erishish, yuksak fazilatlar sohibi bo'lish bilan belgilanadi.

O'quvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentlikka erishish yo'llaridan biri ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchi o'rganilayotgan mavzu yoki soha bo'yicha turfa g'oyalar bilan tanishadi, bu g'oyalar amalga oshirilgandan keyin kelib chiqadigan natijalarni oldindan ko'ra biladi, bu natijalarni qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi, mulohazalar tizimini tuzadi va aniq bir fikrlar to'xtamiga keladi. Shu tariqa ta'lim jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq vazifalarda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Tanqidiy fikrlash o'zining asoslanganligi va maqsadga yo'nalganligi bilan ajralib turadi, shu bois u masalalarni hal qilishda, xulosalarni shakllantirishda, baholashda va qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, tanqidiy fikrlashni alohida ko'nikma yoki malaka emas, balki ko'plab malakalar yig'indisi deyish mumkin.

Ijodiy va tanqidiy fikr yuritishni shakllantira olish va uni o'quvchilarga o'rgata olish o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligini belgilaydi. Zero, jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga bog'liq. Chunki aynan shunday yuqori malakali pedagoglar jamiyat uchun yetuk mutaxassislarni tayyorlaydi, barkamol shaxsni shakllantiradi.

Kasbiy kompetentlik – pedagog bilim saviyasining kengligi bilan bir qatorda uning mas'uliyatliligi, ijodkorligi, qiziquvchanligi, talabchanligi, yangi bilimlarni o'rganishga intiluvchanligi, borliqni nozik his qilishi, yuqori axloqliligini ham o'z ichiga oladi. Demak, bo'lg'usi pedagoglarni kasbiy kompetentlik darajasiga



erishishi uchun ularda tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qitishning turli metod va texnologiyalaridan unumli foydalanish mumkin. Jumladan, «Portfolio» metodi orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, o'rganish va keraklisini saralashni o'rganadilar. Portfolioni yig'ishdan maqsad ta'lim jarayoni va o'quv faoliyati natijalari haqida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish texnologiyasini amalga oshirishdan iboratdir. O'quvchi uchun portfolio – o'quv faoliyatida mustaqil va tanqidiy fikr yuritish uchun omil bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilimini tekshirish va baholash quroli bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan muammoli savollarni aniqlab olishi, keyinchalik o'quvchilarning tayyorgarligiga ko'ra bu muammolar yechimini mustaqil topishga yordam berishi lozim. Bu esa kasbiy pedagogik kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchining o'zida tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlangan bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Respublikamizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol shaxsni shakllantirishda ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, o'qitishning turli shakl va usullari mexanizmini ishlab chiqish zarurati ta'kidlangan. Shuningdek, yoshlarning chuqur bilim egallashlari barobarinda ularning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish vazifalari qayd etilgan. Zero, ta'limni milliy qadriyatlarimizni hisobga olgan holda tashkil etish, unga rivojlangan davlatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Demak, yoshlarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish hamda kasbiy muhim sifat – o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiya ta'lim va tarbiya jarayonida amaliy ishlarni bajarilishiga yo'naltirilganligi bois, pedagogik turkum fanlarning o'qitilishida «Tushunchalar tahlili», «Tasavvur qiling», «Tarozi», «O'zaro tekshiruv», «Aqliy hujum», «3x4», «FSMU», «Germenevtik suhbat», «Portfolio», «Sokrat suhbat» kabi metod va pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish mumkin. Masalan, «Tarozi» texnologiyasi mavzuning xulosa bosqichida yaxshi samara berib, dalillash qobiliyatini rivojlantirsa, «O'zaro tekshiruv» texnologiyasida mustaqil o'qishga berilgan mavzuning o'zlashtirilganlik darajasi tekshiriladi, mavzu bo'yicha to'plangan materiallar ichidan nokerak ma'lumotlar chiqarib tashlanadi. Bu texnologiya vositasida isbotlash qobiliyatini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanib boradi, natijada kasbiy kompetentlikka erishiladi..



Mashg'ulot jarayonida qaysi ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga, bayon qilingan materialning xarakteriga, talabalarning bilim darajasiga, o'quv jarayonining moddiy texnik ta'minotiga, shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etishiga va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim darajasiga bog'liq. Bu esa o'z o'rnida o'qituvchidan pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika komponentlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladigan, shuningdek, bahslashish madaniyatiga o'rgatadigan pedagogik texnologiyalardan biri «FSMU» texnologiyasidir. Mazkur texnologiyaning F - fikringizni bayon eting, S - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating, M - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring, U - fikringizni umumlashtiring kabi bosqichlarida talabalar muammo bo'yicha o'zlarining fikr-mulohazalarini bildiradilar. O'qituvchi o'z o'rnida talabalarni muammoni yechishga yo'naltiradi, munozarani faollashtiradi. Shu tariqa har bir kichik guruh a'zolarining fikrlari tinglanadi, so'ngra eng muhim ma'lumotlar tanlab olinadi. O'qituvchi ko'pchilik fikriga mos kelganini alohida ta'kidlaydi.

Ko'rib turganingizdek, pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tilgan har bir mashg'ulot jonli, munozarali o'tadi, o'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatadi.

Dunyoda global axborot muhiti yuzaga keldi va XXI asr «axborot asri» deb atala boshlandi. Axborot komponenti hozirgi kunda jamiyatimizda yetakchi o'rinni egalladi, axborotdan keyingi o'rinda turuvchi ilm esa bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. O'quvchi- yoshlarni axborot – ta'lim muhiti sharoitida axborot oqimidan mustaqil ravishda oqilona foydalanishga o'rgatish – ta'lim tizimining bugungi dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunday sharoitda barkamol shaxs tarbiyasiga qo'yilgan talablarga kiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish va qo'yilgan vazifalarni hal etishda undan unumli foydalana olish o'ta muhimligi ayon bo'lib qoldi. Bu esa o'z navbatida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson bugungi kunda juda keng axborot maydonida yashaydi, internet, davriy matbuotlar, turli adabiyotlar, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlardan har daqiqa yangi va yangi axborotlarni oladi. Istiqbolli axborot, kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarning inson ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri imkoniyatlari juda keng. Zero, hozirgi axborot vositalari – ma'lumotlar manbaigina emas, balki psixologik ta'sir usul va metodlarini amalga oshiruvchi qurol vazifasini ham o'taydi. Bunday ta'sirga tushgan o'quvchi voqea-hodisalarni loqayd qabul qiladi, barcha



ma'lumotlarni saralamay oladi va oxir-oqibatda negativ ta'sir o'z natijasini ko'rsatadi.

Yurtimizdagi davriy matbuot, radio va telekommunikatsiya tomonidan berilgan axborotlar tizimli tashkil etilgan, matbuot materiallari, dasturlar yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan holda tayyorlanadi. Lekin hozirgi globallashuv davrida yoshlarimizning internet ma'lumotlari, turli boshqa davlatlarda chop etilayotgan davriy matbuot materiallari bilan tanishish imkoniyatlari borligi va boshqa ommaviy axborot vositalaridan boxabarligini unutmasligimiz lozim. Undan tashqari chet tillarni yaxshi egallagan talaba-yoshlarimizning ko'pligini ham nazardan qochirmasligimiz darkor. Demak, hozirgi ta'lim tizimida katta sur'at bilan o'sayotgan axborot oqimida tez orientir ola biladigan va kerakli ma'lumotni topa oladigan, olingan ma'lumotni tahlil qilish va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar tarbiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetentlik ko'nikmasini shakllantirish esa bu masalani hal etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik muammoni ko'rish, natijalarni bashorat qilish, (gipoteza) farazlarni ilgari surish, shaxsiy fikrlarni tahlil qila olish, kasbiy vazifalarni hal qilish bilan bog'liq ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Buni amalga oshirish uchun intellektual ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot materiallari ichidan zarurini tanlab olish va tahlil qilishni o'rgatadigan turli pedagogik texnologiyalar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, «O'zaro tekshiruv» texnologiyasida mustaqil o'qish uchun berilgan mavzu bo'yicha to'plangan internet ma'lumotlarini o'quvchilar guruhlariga bo'linib, bir-birlariga qisqa mazmunini gapirib berish orqali o'rtoqlashadilar. So'ngra o'zaro savol-javob o'tkazib, mavzuning o'zlashtirilganlik darajasini tekshiradilar. Shu bilan birga to'plangan ma'lumotlar ichidagi nokerak va foydasiz materiallar chiqarib tashlanadi. «Tarozi» texnologiyasida o'qituvchi ikkita guruhga mavzu bo'yicha ommaviy axborot vositalari, davriy matbuotlar, ilmiy adabiyotlar, internetdan olingan materiallarni beradi va mazmuni bilan tanishib chiqish uchun vaqt belgilaydi. O'quvchilar bu materiallar ichidan mavzuning mohiyatini ochib beradigan ma'lumotlarni tanlab oladilar, tahlil qiladilar, ya'ni ikkala guruh o'z fikrlarini «tarozi»ga qo'yadilar. Fikrlarning to'g'riligini isbotlash uchun dalillar keltiradilar. Natijada, isbotlash qobiliyatini rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlik shakllanib boradi.

«3x4» texnologiyasi ham bir darsning o'zida muammoni fikrlab hal etish, tahlil qilish, dalillash, xulosalash, ko'plab fikrlar ichidan keraklisini tanlab olish, tanlangan fikrlarni umumlashtirish kabilarni o'rgatadi.

Axborot materiallarini to'g'ri tushunish va baho berish orqali kasbiy kompetentlik ko'nikmalarini shakllantirishda hermenevtik suhbat uslubi ham yaxshi samara beradi. Hermenevtik – (yunoncha so'z bo'lib, hermenevtikos –



«tushuntiruvchi, talqin qiluvchi» ma'nolarini anglatadi) – matnlarni sharhlash san'ati demakdir. Bunda o'rganilayotgan ma'lumotlarning mazmuni va mohiyati talabalar hamkorligida tushuntiriladi.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlikni shakllantirish maqsadida turli pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish kutilgan natijalarni beradi.

5. Kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati va tahlili.

Hozirgi zamon ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson muloqotda uning tashabbuskori bo'lishi ham mumkin, ba'zan esa, vaziyatga qarab, o'zaro munosabatning faol yoki passiv sub'ekti sifatida qatnashishi ham mumkin. Kasbiy-pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qituvchining tashabbuskorligi bu o'rinda muloqotni boshqarish vositasi sifatida yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonni ham boshqaradi. Aytish lozimki, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan dars jarayonida o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro ijodiy faoliyatida bilim olishga qaratilgan izlanishni boshqarish, faqat pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan muloqot natijasida amalga oshiriladi. Masalan, darsda yangi mavzuni talabalar ongiga singdirish, yangi materialni tushuntirishda yoki muammoli vaziyat hosil qilishda guruh jamoasi bilan muloqotni to'g'ri tashkillashtirish o'qituvchi uchun juda ham zarur, buning natijasida talabalar birgalikda ahil jamoa bo'lib, darsda, bilimlarni o'rganishda o'zaro erkin fikr yuritadilar va izlanadilar. Muloqotda o'qituvchining tashabbuskorligi ta'lim-tarbiyaviy hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan qator strategik va taktik muammolar yechimini topish imkoniyatini beradi.


Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (1-rasm). Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yuzaga keltiradi.

Tilshunos olim N.Maxmudovning ta'kidlashicha, nutqning to'g'riligi nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar haqidagi ta'limotning markaziy masalasi bo'lib, adabiy til me'yorlariga amal qilib tuzilgan nutq to'g'rilik sifatini oladi.

Kishilar o'rtasidagi muloqotni talab darajasida ta'minlaydigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan birga aniqlik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Agar nutq aniq bo'lmasa fikr chala va yanglish tushunilishi, muloqot uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin. Yana



shuni ta'kidlash joizki, agar aytilmoqchi bo'lgan fikrning o'zi aniq va ravshan bo'lmasa, uni ifodalash uchun tuziladigan nutq hech qachon aniq bo'lolmaydi. Demak, nutqning aniqligi so'zning tildagi ma'nosiga to'liq muvofiq holda qo'llanadigan kommunikativ sifattir.



1-rasm. Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari

Nutqning mantiqiyliги ta'lim oluvchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biridir. Mantiqsiz nutq kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlay olmaydi. Fikr rivojining izchilligi, fikrlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiyliги nutqning mantiqiyliğini yuzaga keltiradi. Nutqning sofliğini nutqning adabiy til me'yorlariga va jamiyatdagi ma'naviy-axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlar (varvarizm, vulgarizm, argo, jargon, va hokazolar)dan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin.

Nutqning boyliги deganda, tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari – so'zlar, ma'nolar, iboralar, ohang va hokazolardan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga turli xil unsurlarni ishlatish lozim. Zero, o'zbek tili har jihatdan, xususan, lug'at xazinasini nuqtai nazaridan benihoya boy tildir. Nutqning jo'yaliligi ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma va og'zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik vazifalariga to'la mos kelishi bilan belgilanadi (masalan, jahl chiqqanda, xursand bo'lganda, qayg'u-musibatda, baxtli va baxtsizlikda aynan bir xil so'z ishlatilmasligi). Nutqning ifodaliligi talaba diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat bo'lgan kommunikativ sifattir. O'qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o'z nutqining ifodaliligiga



e'tibor bermasa, ifodalilikni ta'minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo'ladi va natijada bunday nutq talaba diqqatini torta olmaydi. Mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutqiy madaniyat muloqot kompetentligining muhim o'zagi hisoblanadi.

Hozirgi kunda barkamol shaxs tarbiyasi ta'lim tizimining bosh vazifasi ekan, intellektual yetuk shaxs tarbiyasi uchun kasbiy kompetentlik bilan birga umumiy tayanch kompetentlikka ega bo'lish talab etilmoqda. Xorij ilm-fanida tayanch kompetensiyalar haqida turfa tasniflar mavjud bo'lib, ularning turli guruhlari ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar, ko'pmadaniyatli jamiyat hayotiga oid kompetensiyalar, og'zaki va yozma muloqotni amalga oshira bilishga oid kompetensiyalar, axborot texnologiyalarining vujudga kelish bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar, shaxs sifatida o'z-o'zini kamol toptirish kompetensiyasi shular jumlasidandir. Xorij va yurtimiz olimlarining kompetentlik, kasbiy kompetentlik haqidagi izlanishlarini o'rganish jarayonida olimlarning mazkur masalaga turlicha ta'rif berishlari, fikr-mulohaza va xulosalarida har xil yondoshuvlar borligini ko'rdik. Lekin barcha olimlar o'z tasniflarida kommunikativ kompetentlikni asosiy kompetent sifatida alohida e'tirof etishgan. Xususan, N.A.Muslimov, o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya'ni motivatsion sifatlar, intellektual salohiyat, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy sifatlar, o'z-o'zini boshqara olish sifatlari bilan bog'laydi va amaliy ko'nikmalar deganda shaxsning faoliyat va muloqotning turli sohalardagi ko'nikmalari deb ta'kidlab o'tadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda shaxsning xislati, tajribasi, bilim malakasi hamda qobiliyatini uyg'unlashtirish zarurati tug'iladi. Bu uyg'unlikni "kompetentlik" deb atash mumkin bo'lib, bu atama orqali bo'lajak o'qituvchining kasb sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishish salohiyati tushuniladi. Bu haqida I.Mahmudov: "Kompetentlik yondashuvga asoslanish natijasida mutaxassislar malakasini yanada yuqori pog'onaga olib chiqish imkoni paydo bo'ldi, ta'lim jarayonida avvalgi "sub'ekt-ob'ekt" munosabatlari endi mutlaqo "sub'ekt-sub'ekt" tizimiga o'tdi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi", - deb ta'kidlaydi. Rus olimi A.K.Markova esa "o'quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish ta'lim oluvchi miyasiga tayyor motiv va maqsadlarni kiritish emas, balki faollikni yuzaga keltiruvchi shunday sharoit va vaziyatni yaratish kerakki, natijada talabaning hayot tajribasiga asoslangan motiv va maqsadlar, ichki istak va intilishlar qayta uyg'unson va rivojlansin", - deb fikr yuritadi.

Quyidagi 2-rasmda kommunikativ kompetentlikni kasbiy kompetentlik tarkibidagi o'rini ko'rib chiqamiz.



Ushbu chizmaga ko‘ra kasbiy kompetentlikning ikki qirrasidan bittasini shaxsiy xislatlar tashkil etadi, uning tarkibida esa kommunikativ kompetentlik bilan bog‘liq insonlar bilan ishlashdagi kompetensiyalar mavjud.

Darhaqiqat, kasbiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida samaradorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik, o‘z navbatida bevosita kommunikativ kompetentlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik faoliyatning mohiyati ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro aloqani tashkil qilarkan, kommunikativ kompetentlikni o‘qituvchi kasbiy mahoratining negizi deyish mumkin.

Turli manbalarda **kommunikativ kompetentlik** turlicha talqin qilinadi:

- o‘zgalarning fikrlarini eshitish va e‘tiborga olish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va bahslasha olish, qarorlar qabul qilish, aloqa o‘rnatish, turli-tuman fikrlar va ziddiyatlarni yenga olish, muzokaralar olib borish, jamoada ishlash va hamkorlik qilish qobiliyati (20);

- og‘zaki va yozma muloqot kompetensiyalari, dialog, monolog, matn mazmunini anglash; an‘analar, marosimlar, etiketni bilish va amal qilish; rasmiy yozishmalar; ish yuritish, biznes tili; chet tilida muloqot, kommunikativ topshiriqlar, tinglovchiga ta‘sir darajalari (19);





2-rasm. Kommunikativ kompetentlikni kasbiy kompetentlik tarkibidagi oʻrni

- kommunikatsiya muloqotga kirisha olish, tinglovchiga tushunarli boʻlish, erkin muomala qilish (20);

- yoqimsiz holatlardan xoli boʻlgan muloqot orqali kerakli natijalarga erishish qobiliyati (18);

- jamoaviy kasbiy faoliyat va kasbiy muloqot usullarini bilish (17).

Tadqiqotchilarning bu yondashuvlariga koʻra kommunikativ kompetentlikning mohiyatini kommunikativ vazifalarni (maʼlumotlarni uzatish, muzokaralar olib borish, aloqalar oʻrnatish va uni saqlashni) hal qilish uchun turli xildagi aloqalarga (verbal, noverbal, ogʻzaki, yozma) kirishishga tayyorligi va qodirligi deb tasavvur qilish mumkin.

A.A.Yarulov kompetentlik tarkibiga ratsional, irodaviy, hissiy komponentlarni kiritadi, Ye.V.Rudenskiy esa diagnostik, dasturlangan, tashkiliy tarkibdan iboratligini taʼkidlaydi.

I.A.Zimnyaya quyidagi tarkibni belgilaydi:

1) kompetentlikning motivatsion qirradi (kompetentlikni namoyon etishga tayyorlik);

2) kompetentlikning kognitiv qirradi (kompetentlik mazmuni haqida bilimga ega boʻlish);

3) kompetentlikning xulqiy qirradi (turli standart va nostandart vaziyatlarda kompetentlikni namoyon etish tajribasi);

4) kompetentlikning qadriyatli-mazmuniy qirradi (kompetentlikning mazmuniga munosabat);

5) kommunikativ kompetentlikning hissiy-irodaviy qirradi (kompetentlikni namoyon etish jarayoni va natijasini hissiy-irodaviy boshqarish)

Agar boʻlajak oʻqituvchi kommunikativ kompetentlikka yetarli darajada ega boʻlmasa, taʼlim-tarbiya jarayonida oʻzaro taʼsir jarayonini uddaburonlik bilan boshqarishga, kommunikativ texnologiyalarni qoʻllashga tayyor boʻlmasa, shaxsga yoʻnaltirilgan zamonaviy taʼlim texnologiyalarini amalga oshirish mumkin emas. Yoqimli maʼnaviy-psixologik iqlim, muloqotda insonparvarlik va demokratiya, aloqalar oʻrnatish va muammolarni hal qilish maqsadidagi muloqotning samaradorligi, oʻqituvchi va taʼlim oluvchining oʻz mehnatidan qoniqishi oʻqituvchining kommunikativ kompetentligiga bogʻliq.

Boʻlajak oʻqituvchilarning kommunikativ kompetentligini taʼlim jarayoni qatnashchilarining rivojlanishi va oʻz-oʻzini namoyon qilishi, shuningdek, taʼlim sifatini oshirish usullaridan biri deb qarash mumkin.



I.A.Zimina o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini quyidagi jadval ko‘rinishida izohlaydi:

Komponentlar	Ko‘rsatkichlar	Indikator	Foydalanilgan metod va texnologiyalar
Motivatsion qadriyatlar	O‘qituvchining kasbiy takomillashishiga tayyorligi	1. Innovatsion faoliyatga turg‘un qiziqish. 2. Kasbiy o‘shiga talab. 3. O‘z-o‘zini rivojlantirish va namoyon qilishga intilish	Kommunikativ treninglar, mashqlar Anketa - so‘rovnoma
Kognitiv	Kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati- ni bilishi	Kommunikativ kompetentlik	Test
Faoliyat harakat-lari (operatsiya-lari)	Turli standart va nostandart vaziyatlarda kompetentlikni ko‘rsatish tajribasi	1. O‘qituvchining ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro harakatlarga qodirligi	“Pedagogik muloqotning individual uslubi” metodi.
		2. Hissiy barqarorlikni saqlash, ziddiyatlarni konstruktiv usullar bilan oldini olish va hal qilish	Kuzatish. Metodikalar.
		3. Notiqlik mahorati, og‘zaki va yozma nutq savodxonligiga ega bo‘lish, o‘z ishining natijasini ko‘pchilik-ka ko‘rsata olish , o‘z-o‘zini taqdimot qila	Test “Muomalada o‘z-o‘zini nazorat qilish” (V.F.Ryaxovskiy)



		olishning eng yaxshi shakl va metodlarni tanlash	
		4. Ta'lim oluvchilar bilan faol o'zaro hamkorlikning strategiyasi, taktikasi va texnikasini ishlab chiqarish, ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish.	Test "Muloqotda o'z-o'zini nazorat qilish"
		Ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro harakat vaziyatlarini ob'ektiv baholay olish, samaradorligini asoslash.	Test-savolnoma "Kommunikativ va tashkilotchilikka moyilligi".


Yuqoridagi kommunikativ kompetentlik ko'rinishidagi har uchala komponentlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'qituvchi kommunikativ kompetentligining yuqori darajasi barcha komponentlarning har tomonlama rivojlanishini, kommunikatsion texnikani mohirona bilishni va qo'llashni taqozo etadi.

Demak, kommunikativ kompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini ko'rsatuvchi muhim omildir. Chunki hozirgi kunda yaxshi mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas. Bugungi umumiy natija uchun jamoa bo'lib ishlay olish, qarorlar qabul qilishda qatnashish, o'z fikrini boshqalarga tushunarli qilib ayta olish, ma'lumotlarni e'tirozsiz qabul qilish, ziddiyatlarni yo'qotishga moyillik, hissiyotlarni nazorat etish, salbiy hisslarning yo'qligi, ustunlikka intilmaslik, ishdagi hamkasblar, talabalar nuqtai nazarini tushunish kabi xislatlarga ega bo'lgan yaxshi hamkasb bo'lish kerak (3-rasm). Shuningdek, turli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlar bilan ishlay olish; ziddiyatlarni samarali yechimini topish; mazmunli tanqidni hisobga olgan holda o'z mehnati natijalarini ko'rsata olish; hamkasblar, talabalar, ularning ota-onalari bilan o'zaro iliq munosabat o'rnatish lozim. Agar ta'limning asosiy mazmunini har bir kishining shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy hayotida muvaffaqiyat



qozonish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar, malakalar deb belgilaydigan bo'lsak, shulardan kommunikativ kompetentlik eng muhimi hisoblanadi.

Individual-shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajriba muloqotda kompetentlikning shakllanishiga ko'maklashadi.



3-rasm. Kommunikativ kompetentlik modeli

Muxtasar qilib aytganda, “ta’limga kompetensiyaviy yondashuv, bu – ta’limni bozor ehtiyojlariga muvofiq holga keltirishga harakat natijasi bo’lib, ta’lim natijasi



sifatida talabalarning o‘zlashtirgan axborotlari yig‘indisi emas, balki ularning turli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati e‘tiborga olinadi. Kommunikativ kompetensiyaviy yondashuv bilimlar zahirasi bilan birga, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o‘rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi”.⁸

Demak, bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash emas, balki bu bilimlariga ega bo‘lish bilan birga ulardan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish malaka va ko‘nikmasigi ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

6. Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari

Kommunikativ kompetentlik – murakkab kommunikativ ko‘nikma va malakalarni egallash, muloqotda madaniy me‘yorni bilish, muomalada urf-odat va an‘analarga rioya qilish; tarbiyalanganlik, milliy mentalitetga va ma‘lum kasbga oid kommunikativ vositalarni bilish demakdir. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik shaxsning umumlashgan kommunikativ xususiyati bo‘lib, kommunikativ qobiliyatlar, bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda rasmiy muloqot sohasida ijtimoiy tajribani o‘z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyatda umumiy madaniyat va uning o‘ziga xos ko‘rinishlarini o‘zida mujassamlashtirgan integral xususiyat ham kommunikativ kompetentlik hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlik shartlaridan biri ma‘lum qoida va talablarning bajarilishidir. Bu qoidalarning eng muhimi quyidagilardan iborat:

Agar so‘zlovchining fikri noaniq, o‘ziga ham tushunarsiz bo‘lsa, uni bayon etmaslik qoidasi “umumiy qoida” hisoblanadi.

- “Tushunishga doimiy tayyorgarlik” qoidasi. Semantik va shaxsiy to‘siqlar fikrni to‘liq va aniq tushunishga halaqit berishi mumkinligini bilish.

- “Aniqlik” qoidasi. Noaniq, g‘alaz, noo‘rin so‘zlar va so‘z birikmalarini ishlatmaslik, notanish va tor sohaga oid atamalardan zaruratsiz foydalanmaslik kerak.

- “Noverbal signallarni nazorat qilish” qoidasi. Nutq va fikr mazmunini nazorat qilish bilan chegaralanib qolmay, uning doimiy “hamrohlari” mimika, jestikulyatsiya (hatti-harakat, imo-ishora), ohang, tana harakatiga ham e‘tibor berish kerak.

⁸ Nurmonov A. O‘quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma‘rifat” gaz. 2014 y. 18-son



- “Shaxsiy nohaqlik” qoidasi. Muloqotda shaxsiy nuqtai nazar hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermasligini tushunish orqali jiddiy xatolarning oldini olishi mumkin ekanligini anglash.

- “Makon va zamon” qoidasi. O‘z vaqtida va o‘rnida aytilgan har bir nutq yoki muloqot samarali bo‘ladi.

- “Ochiqlik” qoidasi. O‘z nazarini yangi paydo bo‘lgan holatlar ta‘sirida qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik hamda hamsuhbatning fikr-mulohazalarini hisobga olish qobiliyati nazarda tutiladi.

- “Diqqat bilan va konstruktiv eshitish” qoidasi. Samarali muloqotning asosiy shartlaridan biri.

- “Aks aloqa” qoidasi. Aynan shu qoida oxir-oqibat muloqot jarayonining asosiy maqsadi - xushmuomalalikka erishishga olib keladi.

“Kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kelib chiqishiga ko‘ra muloqot jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan insonga qo‘yilgan talablar tizimini anglatadi. Bunga ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi kabilar kiradi. Agar biror kishining qobiliyati haqida gap ketsa, u kommunikativ kompetentlikka ega deb aytiladi. Demak, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, kommunikativ kompetensiya muloqotga oid talablar tizimiga mos kelishi demakdir. Shu bois “u o‘zining kommunikativ kompetensiyasini namoyish etdi” emas, “u o‘zining kommunikativ kompetentligini ko‘rsatdi” deyilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi. Aslida “to‘liq kommunikativ kompetensiyaga” ega bo‘lish juda qiyin. Ba‘zi muhitda ma‘lum ijtimoiy guruhda u o‘zining yuqori kommunikativ kompetentligini ko‘rsata olishi, boshqa bir muhitda esa, aksincha, kommunikativ kompetentlik darajasi past bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida quruvchi injener kasbiy terminologiyani va hamkasblarini yaxshi bilgan holda qo‘l ostidagilar bilan yaxshi til topishishi va samarali boshqarishi mumkin. Lekin umuman boshqa kasb egalari muhitiga tushganda kommunikativ kompetentligi pasayib ketishi mumkin.

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- u yoki bu leksikaga ega bo‘lish;
- og‘zaki nutqning rivojlanganligi;
- muloqot odobiga rioya qilish;
- kommunikativ taktikalarga ega bo‘lish;
- kommunikativ strategiyalarga ega bo‘lish;
- muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy xususiyatlari va tipik muammolarini bilish;
- tashqi signallar (tana harakatlari, mimika, ohang)ni tahlil qila olish;



- ziddiyatga moyillikning yoʻqligi, ziddiyatni boshlanishidayoq bartaraf eta olish qobiliyati;

- oʻziga ishonchli boʻlish (assertivlik);

- diqqat bilan eshita olishni bilish;

- notiqlik mahoratiga ega boʻlish;

- aktyorlik qobiliyati;

- muzokaralar, rasmiy uchrashuvlar tashkil qilish va olib borishni bilish;

- empatiya;

- boshqalarning qiziqishlarini tushuna olish;

- bahsda qatʼiyatlikni koʻrsata olish: muloqot jarayonida oʻz nuqtai nazarini qatʼiy va izchillik bilan tushuntirish;

- oʻz fikrini asoslay olish: muloqot jarayonida shaxsiy fikrni asoslash uchun kerakli dalillarni vaqtida keltira olish.

Demak, kommunikativ kompetentlik shaxslararo zarur aloqalarni oʻrnatish va bir maromda saqlash qobiliyatidir. Samarali muloqot uchun suhbatdoshlarning oʻzaro tushunishiga erishish xarakteri hisoblanadi va muammolarning hal boʻlishiga koʻmaklashadi, maqsadlarga erishishini taʼminlaydi.

Yomon muloqotning sabablari quyidagi boʻlishi mumkin:

- stereotiplar: alohida shaxs yoki holatlarga nisbatan yuzaki fikr yuritish natijasida obʼektiv tahlilning yoʻqligi;

- xolis boʻlmagan tasavvurlar: oʻz shaxsiy qarashlariga qarama-qarshi boʻlgan barcha yangi fikrlarni inkor etish;

- shaxslararo munosabatlarning yomonligi: fikrlarning haqqoniyligiga ishontirishni qiyinlashtiradi;

- hamsuhbatlarning muloqot mazmuniga qiziqishi va diqqatining yoʻqligi;

- yetarli asos va dalillarning yoʻqligiga qaramay, xulosalar chiqarilishi;

- fikrni yetkazishda soʻzlarni nooʻrin qoʻllash, ishontira olmaslik, mantiqsizlik va h.;

- muloqotda notoʻgʻri taktika va strategiya tanlash.

Kompetentlik tarkibiga samarali muloqotni taʼminlovchi bilim, malaka, koʻnikmalar yigʻindisi kiradi va bunday kompetentlik muloqot doirasining kengligini oʻzgartirish, suhbatdoshni tushunish va unga tushunarli boʻla olishni nazarda tutadi. Demak, kommunikativ kompetentlikni takomillashtirish jarayoni shaxs rivojlanishi bilan bevosita bogʻliq. Bunda individual-shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajriba kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda koʻmaklashadi. Maʼlumki, pedagogik jarayon – oʻquv-tarbiyaviy ishlarda talabalar bilan oʻzaro aloqani nazarda tutadi. Har bir pedagogik vaziyat u yoki bu darajada oʻquv-tarbiyaviy vaziyatga aylanadi. Pedagogik faoliyatning samarasi oʻzaro aloqa natijasida yuzaga keladigan munosabatlarning mazmuni va xarakteri bilan



belgilanadi. Bu esa pedagogning kommunikativ faoliyatiga, ya'ni muloqot turlari orqali talabalarga ta'lim-tarbiyani tashkil etishga bog'liq. Boshqacha aytganda, ta'lim va tarbiya -mohiyatiga ko'ra kommunikativ jarayondir.

Kommunikativ kompetentlik deganda muloqotda yuzaga chiqadigan murakkab shaxsiy xususiyatlar, kommunikativ qobiliyat va malakalar, shaxs xarakteri, temperamenti haqidagi psixologik bilimlar, psixologik holatlar tushuniladi. Har bir pedagogik hatti-harakat o'qituvchining muloqot jarayonida yetakchi o'rmini ko'rsatadi. Konstruktiv muloqot uchun o'qituvchiga nafaqat bilim, talabalarning va o'zining individual xususiyatlarini bilish, balki pedagogik ta'sirning maqbul strategik metodlarini qo'llay olish ham zarurdir. Bu o'qituvchining o'zida va ta'lim oluvchilarda shaxsiy kommunikativ xislatlarni shakllantirishga yo'naltirishda, shaxslararo munosabatlarni bir xil baholay olishda namoyon bo'ladi. Demak, pedagogning kommunikativ kompetentligi – aloqa, hamkorlik, birgalikdagi faoliyat, o'zaro ta'sir va oxir-oqibatda munosabatlar tizimini ta'minlaydi.

7.Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligiga maqsadga yo'nalgan jarayon, kasbiy malakalar va shaxsiy sifatlarning rivojlanish natijalari sifatida qaratiladi. O'qituvchi eshita olishi

va tushunishi, tushuntirishi va isbotlashi, savol berishi va javob berishi, ishontirishi va ta'lim oluvchi fikrini o'zgartira olishi, suhbat chog'ida ishonch va rasmiy xayrihohlik ruhini yarata olishi, ta'lim oluvchiga individual psixologik yondashuv topishi, ziddiyatlarni hal qila olishi lozim. Bunday faoliyat negizida muloqotning kommunikativ texnikasi mavjud bo'lib, u o'qituvchining kasbiy mahoratini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Talabalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish uchun turli-tuman samarali metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin. Suhbat, diskussiya, kommunikativ mashqlar va kommunikativ-psixologik treninglar, testlar, pedagogik vaziyatlar, rasmiy o'yinli yozma va og'zaki topshiriqlar texnologiyalar shular jumlasidandir.

Diskussiya – aniq muammo bo'yicha fikr almashinuvi bo'lib, uning yordamida talabalar yangi bilimlarga ega bo'ladilar, o'z fikrlarini mustahkamlaydilar.

Kommunikativ treninglar – ijtimoiy-psixologik treninglar turi bo'lib, ijtimoiy kompetentlikning rivojlanishiga qaratilgan. U aloqaga kirishish; suhbatdoshning fikrini aniq bayon etishga ko'maklashish; suhbat, muzokaralarda hissiy keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan.



Amaliy ishlar metodi – kommunikativ mashqlarni bajarish orqali o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi.

O‘yinli texnologiyalar – talabalarni real modeldagi maxsus yaratilgan vaziyatlardan chiqish yo‘llarini topishga mo‘ljallangan.

Axborot texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatida kasbiy kompetentlikini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ulardan asosiylari o‘quv-metodik ma’lumotlarini olishning kengayishi; talabalarda kommunikativ malakalar, muloqot madaniyati, ma’lumotni izlash malakasining shakllanishi; tezkor konsultativ yordam va hamkorlikdagi tadqiqot loyihalarining tashkil qilish va h.dan iboratdir.

Yozma topshiriqlar nutqiy, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Talabaning nutqiy kommunikatsiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir. Nutqiy kompetensiya nutqiy tajriba va til haqidagi bilim munosabati bir butunligi asosida shakllanadi.

Nutqiy tajriba ona tilini amaliy bilish, oilada, ko‘chada, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali spontan holda maydonga keladi. Til haqidagi bilim esa maxsus dastur asosida ta’lim muassasalarida o‘qitish orqali shakllantiriladi.

Imo-ishora, mimika singari paralingvistik vositalar ham nutqiy tajriba asosida o‘zlashtiriladi. So‘zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo‘ladigan bilimga yetarli ega bo‘lmasa, uning lingvistik kommunikatsiyaga to‘liq ega emasligi bilinib qoladi.

Lingvistik kompetensiya talabaning, ona tili fanining bo‘limlari (fonetika, leksika, morfologiya va h.) haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko‘nikmasidir. Orfografik va punktatsion qoidalardan o‘rinli foydalana olish imkoniyati ham lingvistik kompetensiyaga kiradi.

Bir fikrni tilda turli shaklda ifodalash imkoniyatidan mohirlik bilan foydalanib, muayyan muloqot vaziyati uchun mos shakl va ifodani topa olish, bunda nostandart usullarni qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish lingvistik kreativlik hisoblanadi.

Voqelikni qismlarga ajratish va umumlashtirib idrok etish faqat insonlargagina xos, masalan, inson olamni o‘simliklar dunyosi hayvonot dunyosi kabi qismlarga, ijtimoiy voqea-hodisalarni ham to‘y, aza, bozor, bayram, maktab singari qismlarga bo‘ladi. Bu qismlarning har birining o‘ziga xos leksik muomala xususiyatlari mavjud. Lisoniy birliklarni ayni shunga mos o‘rinli ishlatish pragmatik kompetensiya sanaladi.

Test muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda aniq maqsad asosida belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi hisoblanadi. Nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi, nazariy, amaliy bilim darajasini ob‘ektiv aniqlash



imkonining mavjudligi, bir vaqtda ko'p sonli talabalar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi, bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi, barcha ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitlarning yaratilishi testning afzal jihatlariga kiradi.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. "Kompetentlik" tushunchasining lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
2. "Kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining shakllanish tarixi haqida gapiring.
3. Mutaxassisning kompetentligi qanday o'ziga xos jihatlariga ega?
4. Pedagogik olim V.A.Slastenin yuksak professionalizmning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga nimalarni kiritadi?
5. Pedagogikada "kompetentlik" tushunchasiga ta'rif bering.
6. Kompetentlikning uchta darajasini sanab bering.
7. Nima uchun kompetentlikning uch darajasi mavjud?
8. Tayanch, fanlararo, bitta predmet(fan) bo'yicha kompetentlikning bir-biridan farqi nimada?
9. Tayanch kompetentlik turlarini sanab bering.
10. Yaxlit-mazmunli kompetentlikning mazmunini tushuntiring.
11. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning o'quv-bilish kompetentligidan farqi nimada?
12. Axborot olish kompetentligi va kommunikativ kompetentlikning umumiy jihatlari haqida ma'lumot bering.
13. Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik va amaliy faoliyatga oid kompetentlikning mazmunini tushuntiring.
14. Kompetentlikning tarkibiy qismlarini sanab bering.
15. Kompetentlikning vujudga kelishi uchun qanday sifatlar poydevor, asos bo'lib xizmat qiladi?
16. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ijodiy faoliyatning o'rni nimada?
17. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari haqida ma'lumot bering.
18. "Ijodkorlik" so'zi ijtimoiy -pedagogik adabiyotlarda qanday so'zlar bilan izohlanadi?
19. Nutqning madaniyligini qanday kommunikativ sifatlar ta'minlaydi?
20. Nutqning boyligi, mantiqiyliqi, jo'yaliligi, ifodaliligi deyilganda nima tushuniladi?



21. Kommunikativ kompetentlikni kasbiy kompetentlik tarkibidagi oʻrni haqida maʼlumot bering.
22. I.A.Zimnyaya kommunikativ kompetentlik tarkibini qanday belgilaydi?
23. Kommunikativ kompetentlikning maʼlum qoida va talablari haqida nimalarni bilasiz?
24. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlariga nimalarni kiritamiz?
25. Yomon muloqotning sabablariga misollar keltiring.
26. Talabalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish uchun qanday metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin?

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятию. //Стандарты и мониторинг в образовании.–2004.– № 2. – с.48-51.
2. Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. (monografiya)–T.: «Fan va texnologiya», 2013.
3. Zimnyaya I.A. Ключевые компетентности как результативно- selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. Moskva, 2014.
4. Abdullaeva Sh.A. va b. Zamonaviy oʻqituvchining kompetensiyasi. - Toshkent: Komron Press, 2015. - 92 b.
5. Mutalipova M.J. Tanqidiy fikrlash orqali kasbiy kompetentlikka erishish yoʻllari. «Pedagogik taʼlim» jurn., 4-son. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010 y. 17-18 b.
6. Maxmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
7. Zyabkina I.G. Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja. M.,2014.
8. Nurmonov A. Talabalarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Maʼrifat” gaz. 2014 y. 18-son.
9. Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. (monografiya)–T.: «Fan va texnologiya», 2013.
10. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Boʻlajak oʻqituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qoʻllanma. –T., 2014.



IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: PEDAGOGIK MAHORAT VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

REJA:

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasining mazmun mohiyati va o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni.
2. Pedagogika fani tarixida o‘qituvchi mahorati masalalarining yoritilishi.
3. Hozirgi davrda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari.
4. Pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: tinglovchilarda pedagogik mahoratning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari, pedagogik refleksiyaning mohiyati va turlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish.

Amaliy mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so‘rovnomalar va interfaol ta‘lim metodlaridan foydalaniladi.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Qaysi biri qiyin – mashg‘ulotning boshlanishimi yoki yakuni?
a) o‘qituvchi uchun; b) tinglovchilar uchun.
2. Mashg‘ulot jarayonida pauza davomiy bo‘lishi mumkinmi?
3. Ishlash uchun nima samarali: o‘qituvchi butun guruhga savol bilan murojaat qilishimi yoki alohida o‘quvchiga?
4. Mashg‘ulotni qanday tashkil etish ma‘qul: tinglovchilarni fikriy faoliyatini bitta tor doiradagi savolni muhokama qilishga qaratishmi yoki ularni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etishmi?
5. Agar tinglovchilar o‘quv materialini birinchi martaning o‘zida anglab va tushunib olishgan bo‘lsa, uni bir necha marotaba o‘qib chiqishga yo‘naltirish kerakmi?

2-topshiriq. O‘qituvchi diqqatining yo‘nalganligini aniqlang:

- yangi materialni tushuntirish jarayonida;



- bilimlarni tekshirish jarayonida;
- tinglovchilarning mustaqil va nazorat ishlarini bajarishlari jarayonida;
- yaxlit tarzda mashgʻulotni oʻtkazish jarayonida.

Tinglovchilar faoliyatidagi qanday tashqi belgilar oʻqituvchiga mashgʻulotning har bir bosqichida pedagogik xulosalar chiqarishga yordam beradi.

3-topshiriq. “Oʻzgalar fikrini oʻqish”.

Daftaringizga yozma tarzda guruh aʼzolaridan birining kayfiyatini yozing. Tavsifnomada kim haqida yozayotganligingizni oshkor qilmang.

Kasbiy-pedagogik tasavvur (fantaziya)ni faollashtirishga doir topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida keltirilgan soʻzlardan imkoni boricha koʻproq gap tuzing: “daraxt”, “uy”, “taʼlim oluvchilar”, “deraza”. Har bir gapda mazkur soʻzlarning barchasi ishtirok etishi lozim.

2-topshiriq. Quyida keltirilgan hikoyani davom ettiring. “Pedagogika fani oʻqituvchisi Nigora Boboqulovna sinf xonasiga kirdi. Hammasi odatdagidek, tinglovchilar partani oldida tik turib, unga salom berib qarshi olishdi. Duskada “Pedagogik mahorat” mavzusiga oid plakat osigʻliq turibdi. Toʻsatdan...”.

3-topshiriq. Obraz yaratishga harakat qiling (masalan, qishloq koʻchasi: qum, tovuqlar, bolachalar yugurib yurishibdi). Soʻngra sizga yaratgan obrazni rassom, bastakor, yozuvchi, oʻqituvchi qanday koʻrishini izohlang.

4-topshiriq. “Istiqboldagi taʼlim muassasasi” qanday boʻlishi haqida oʻylang va uni yozma bayon eting. Mazkur taʼlim muassasasi oʻqituvchilari va tinglovchilarini siz qanday tasavvur etasiz? Uning oʻziga xosliklari va farqli jihatlarini ajrating.

5-topshiriq. Malaka oshirishda birga oʻqigan kursdoshlarni yigirma yildan soʻng tabriklang. Mazkur tabrik uchun asos boʻlgan nostandart vaziyatni oʻylab toping.

6-topshiriq. Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va oʻzingizning fikr – mulohazalaringizni bildirib, “Mustaqil ish” yozing:

1. “Pedagogik mahoratning oʻqituvchi faoliyatidagi oʻrni”.
2. “Oʻqituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish yoʻllari”.



7-topshiriq. Internet ma'lumotlaridan foydalanib **“Pedagogik improvizatsiya”** mavzusida esse yozing.

2- amaliy mashg'ulot: PEDAGOGIK TEXNIKA - PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSIY ELEMENTI SIFATIDA

REJA:

1. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot.
2. Nutq texnikasi va uning o'ziga xosliklari.
3. Mimika va pantomimikaning o'qituvchi pedagogik mahoratida tutgan o'rnini.
4. Pedagogik faoliyatda aktyorlik va rejissyorlik mahorati.
5. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda pedagogik texnikani egallash, nutq texnikasi, mimika va pantomimika, aktyorlik va rejissyorlik mahorati bo'yicha ko'nikma, malaka va kompetentligini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

Pedagogik texnikaga doir topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida keltirilgan vaziyatlar bilan tanishing va berilgan vaziyatga mos mimik, pantomimik ko'rinishni ifoda etib bering.

1-vaziyat. O'qituvchining xonaga kirib kelishi. Salomlashish. O'zini tanishtirish va guruh bilan tanishuv.

2-vaziyat. O'qituvchining auditoriyaga kirishi. Salomlashish. Tasodifan eshik taqillashi. Harakatlaning va munosabat bildiring.

3-vaziyat. O'qituvchining auditoriyaga kirib kelishi. Salomlashish. Quyidagi tarzda hikoyani boshlash: “Tinglovchilar men sizlarga quyidagi haqida aytmoqchiman...”. Hikoyani davom ettirish (fan bilan bog'liq yoki qiziqarli biror voqeaga taalluqli). Hikoya qiluvchining vazifasi – tinglovchilarning diqqatini voqeaga jamlash, auditoriya bilan kontaktga kirishish, o'zining tashqi ko'rinishi haqida o'ylash.



2-topshiriq. Umumiy mimik reaksiyani aniqlashga doir topshiriq.

Dars boshlandi. Siz o'qituvchi stolini oldidasiz. Eshik ochildi. Kirib kelgan tinglovchiga qarang:

Talabchanlikka doir: "Kiring, tezroq o'tiring".

Hayratlanishga doir: "Men sizdan buni kutmagan edim".

So'roq ohangida: "Tushunmadim, nimadir sodir bo'ldimi?"

Norozi ohangda: "Ruxsat, sizga! Darsga xalaqit qilmang?"

Xursand ohangda: "Va nihoyat keldizmi?"

3-topshiriq. Individual reaksiyani aks ettirishga doir topshiriq.

Siz doskaga yozyapsiz. Tinglovchilar siz bilan birga daftarlariga yozib borishlari kerak. "To'satdan" qanaqadir shovqin eshitildi, orqaga qaradingiz, quyidagilarni ifoda eting:

Hayrat bilan: "Tushunmadim, nimadir bo'ldimi?"

Mulohaza bilan: "Kim, shu shovqin qilayotgan? Haliyam yozishni boshlamadizmi?"

Talabchanlik bilan: "Shovqin qilmang, tinch o'tirib yozing".

Zarda ohangida: "Jim, yozayotgan vaqtda shovqin qilmaslik kerak".

Qayg'urish ohangida: "Men tushunmayman, yozayotganda vaqtda ham shovqin qilish mumkin-mi?!"

4-topshiriq. Ovoz buzilishlarining 4ta sababini izohlang.

1. Har kungi ovoz **zo'riqishi**

2. Ovoz apparatining **zaifligi**

3. **Gigiena** qoidalarini bilmaslik

4. Ovoz apparatining **tug'ma zaifligi**.



3-amaliy mashg‘ulot: O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KASBIY REFLEKSIYA VA PEDAGOGIK QOBILIYAT


Reja:

- 1.Refleksiya tushunchasining mazmuni va turlari.
- 2.O‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy takomillashtirishi.
- 3.Kasbiy pedagogik refleksiya asosida pedagogik mahoratni oshirish.
- 4.O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Amaliy mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so‘rovnomalar va interfaol ta’lim metodlaridan foydalaniladi.

3. Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: tinglovchilarda refleksiya tushunchasining mazmuni va turlari, o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy takomillashtirishi, kasbiy pedagogik refleksiya asosida pedagogik mahoratni oshirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentligini rivojlantirish.

1-topshiriq. Quyida berilgan chizmaga ko‘ra o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishini tushuntiring.



2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Qadimgi Rim faylasuflarining refleksiya to‘g‘risidagi qarashlari?



2. Refleksiyaga hozirgi zamon fanlari nuqtai nazaridan ta’rif?
3. Pedagogika va psixologiya fanlarining refleksiyaga nisbatan mulohazalari?
4. Refleksiyaga taniqli olimlar qanday ta’rif berishgan?
5. I.N.Semyonov refleksiyaning qaysi turlarini sharhlab bergan?
6. Pedagogik refleksiyaga ta’rif bering?
7. O’qituvchi o’z-o’zini kasbiy jihatdan qanday takomillashtiradi?
8. Pedagogikada “refleksiya” tushunchasiga qanday g’oyalar nuqtai – nazaridan yondashiladi?
9. Pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatiga va funksiyasiga ta’rif bering?
10. O’qituvchining kasbiy professiogrammasi asosida uning mahoratini aniqlang?
11. O’qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ta’riflang?
12. Yosh o’qituvchilar duch keladigan didaktik qiyinchiliklarni bartaraf etish yo’llari?

3-topshiriq. Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o’zingizning fikr – mulohazalaringizni bildirib, “Mustaqil ish” yozing:

1. “O’qituvchining refleksiya asosida shaxsiy kasbiy faoliyatini takomillashtirish”.
2. “Kasbiy pedagogik refleksiyaning o’qituvchi mahoratini oshirishdagi imkoniyatlari”.

4-topshiriq. Mavzuga oid “Kichik esse” yozing.

“Kichik esse” uchun taklif etiladigan mavzular:

1. Pedagogning o’z-o’zini baholashi.
2. Pedagogning o’zini o’zi tahlil qilishi.
3. Pedagogning o’z-o’zini rivojlantirishi

5-topshiriq. “Individual rivojlantirish dasturi” bo’yicha ishleng.

Individual rivojlantirish dasturi

Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar	Mavjud daraja	Istiqbol vazifalar
Pedagogik bilimlar		



Psixologik bilimlar		
Mutaxassislik bilimlari		
Didaktik malakalar: <ul style="list-style-type: none"> - bilishga oid (gnostik) loyihalash - ijodiy-amaliy (konstruktiv) - tadqiqotchilik - muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik <ul style="list-style-type: none"> - izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) - texnik-texnologik malakalar 		
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari: <ul style="list-style-type: none"> - bilishga oid (gnostik) - loyihalash malakalari - ijodiy-amaliy (konstruktiv) - tadqiqotchilik - muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) - tashkilotchilik - izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) - texnik-texnologik malakalar 		
Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar: <ul style="list-style-type: none"> - pedagogik fikrlash - tizimlilik - moslashuvchanlik - mobillik - ijodkorlik - hozirjavoblik - hissiy rivojlanganlik - pedagogik refleksiya 		
O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari		
O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar		



4-amaliy mashg'ulot: O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TAKT VA IMIDJ MASALALARI

REJA:

1. Pedagogik takt axloqiy tushuncha sifatida.
2. "Pedagogik odob" tushunchasi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari.
3. O'qituvchining muomala odobi. Pedagogik imidj masalalari.
4. O'qituvchi nazokatida dilkashlik.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda pedagogik takt, pedagogik odob, pedagogik imidj, muomala odobi va pedagogik dilkashlik bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetentligini rivojlantirish.

1-topshiriq. Yosh o'qituvchilarga pedagogik taktga oid tavsiyalarni o'qing, yana nimalarni qo'shish mumkinligini o'ylab ko'ring.

1.O'quvchilar bilan aloqa bog'lashga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib talablar qo'yib borish.

2.O'quvchilar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish uchun o'z shaxsini ular bilan teng qo'yishi.

3.O'qituvchi va o'quvchilararo munosabatlarda o'zaro hurmatga asoslangan maqsadli aloqa o'rnatish lozim. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, o'z tengdoshlari orasida o'ziga ishonch hosil qilishi va o'quvchilarda yaxshi sifatlarni rivojlantirishi muhim.

4.O'qituvchi ba'zan o'z mavqeini, imkoniyatini, g'amxo'rligini namoyish qilishi ham zarur.

5.O'qituvchining o'quvchilar bilan aloqasini samarasi doimo o'quvchilar nutq faoliyatini o'stirish, o'z nutqini rivojlantirish, foydasiz vaqt sarfini kamaytirish, aloqalar sonini ko'paytirish (savol, javob) asosida olib borilsa maqsadga muvofiq.

6.Arzimagan kamgina muvaffaqiyat uchun bolalarni saxiylarcha maqtash zarur (o'quvchilar jamoasida maqtash, kamchiliklarni esa o'quvchining o'ziga alohida aytish).



7. Agar siz o'quvchilar bilan ishni boshlaganingizdan keyin ham umidli o'zgarishlar bo'lmasa ham, ularga o'zlarining kamchiliklarni va e'tirozingizni aytmasligingiz darkor. Sizning asosiy vazifangiz – o'z mo'ljalingizga ota-onalarni ham yo'ldosh qilishga va hamfikir bo'lishga qaratilish kerak.

8. Yosh o'qituvchi o'quvchi yoki ota-ona bilan o'zaro bir fikrga kela olmaslik malakasi yetishmasligi yoki bir masala to'g'risida bir fikrga kela olmasligi yo malakasiz suhbatlar asosida samaraga erisha olmaydi. Shuning uchun suhbat ikki tomonga ham qiziqarli bo'lishi va vazifani ham o'qituvchi o'zi hal etishi kerak.

Pedagogik nazokatni rivojlantiruvchi mashqlar.

Muloqot-harakat tuyg'u, fikr-mulohaza, ichki kechinmalarni o'zgaralar bilan o'rtoqlashish, shuningdek, pedagogik nazokat va takt, pedagogik dilkashlikni namoyon qiluvchi ko'zgu demakdir. U shaxs fazilatlarini, xususan, nazokati va dilkashligi hamda ichki "men"ning eng yaxshi qirralarini namoyon qiluvchi ijod shaklidir. Ayrim kishilardagi o'ziga xosliklar u bilan muloqotni oson va yoqimli qilishi, boshqalari esa aksincha odamlarni o'zidan bezdirishi sir emas. Quyidagi matnda aynan pedagogik nazokat va takt, pedagogik dilkashlikni ko'rsatuvchi muloqot madaniyati haqida so'z yuritamiz.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi tayanch so'zlarni ajratib yozing.

Muloqot paytida o'zini tutish, nigoh, ovoz, nutq ohangi, harakat, imo-ishoralar, oraliq masofa, vaziyatga to'g'ri baho berish kabi unsurlarga ahamiyat berishingiz lozim. Muloqot va suhbat chog'ida o'zingizni erkin, shu bilan birga sipo va hushyor tutishingiz kerak. Sizning *holatingiz* ichki hayajon, siqilish va o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni ko'rsatmasligi kerak. Hayolan atrofingizda 45 santimetr radiusli aylana chizib oling va harakatlaringizni shu doiradan chiqmasligiga intiling.

Muloyim nazar bilan suhbatdoshingizga e'tibor berayotganingizni bildiring. Bunda *nigohingiz* hamsuhbatingiz yuzining yuqori qismi – qoshidan biroz teparoqqa qaratilishi, ora-orada uning ko'zlariga ham nazar tashlab turish lozim.

Muloqotda *ovozning* ahamiyati juda katta. Mabodo ovozingiz baland bo'lsa ham zinhor shiddatli bo'lmasligi kerak. Aks holda suhbatdoshingizda ko'zlarini chirt yumib, quloqlarini berkitib olish istagi tug'ilishi mumkin. Baland tembrli ovoz asabga tez tegadi, u jahl alomati hisoblanadi. Shuning uchun imkon qadar past ovozda so'zlashga harakat qiling. Ammo juda ishonchsiz ohangda ham gapirmang.

Vahti-vaqti bilan tin olib, gaplaringizni o'ylab gapiring. Suhbatdoshingizga quloq solayotganingiz ham ko'rinib turishi kerak, juda tez gapirib uni ma'lumotlarga ko'mib tashlamang. *Nutq ohangi* shiddatli ham, haddan tashqari



sekin ham bo‘lishi kerak emas. Hech qachon hovliqmang – bu har qanday vaziyatda yomon taassurot uyg‘otadi. Avval o‘zingizni bosib oling, keyin ichkariga xotirjam kiring va u yerdagilar bilan so‘rashing. Bularning hammasini shoshmay, vazminlik bilan bajaring. Muloyim, ochiq, tuyg‘ularini jilovlab olgan, ortiqcha jahl va manmanlikdan xoli bo‘lgan odam har qanday davrada ham ijobiy qabul qilinadi.

Imo-ishoralarning muloqot chog‘idagi ahamiyati katta bo‘lib, biz istagandan ko‘proq ma’lumotlarni oshkor qilishi mumkin. Imo-ishoralar gapingiz mazmuni va sur‘atiga hamohang bo‘lishi lozim, zero ortiqcha har bir harakat darhol e’tiborni tortadi. Shuningdek, oraliq masofa har qanday muloqotda e’tibor berish lozim bo‘lgan unsurlardan biridir.

Unutmang, inson qanchalik samimiy bo‘lsa, xatti-harakatlari shunchalik tabiiy va erkin chiqadi. Bu esa har doim qadrlanadi.

3-topshiriq. Matn mazmunidan kelib chiqib, tayanch so‘zlardan foydalangan holda “O‘qituvchi nazokatida muloqot madaniyatining o‘rni” mavzusida esse yozing.

4-topshiriq. O‘qituvchi sifatida muloqotchanlik-kommunikativlikning qaysi komponenti ustida ishlashingiz zarurligini o‘zingizga belgilab oling.

5-topshiriq. Quyidagi pedagogik vaziyatga e’tibor bering, tahlil qiling. Pedagogik takt bilan bog‘liq muammo va uning yechimi haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

Siz talabalar uchun eng yaxshi o‘qituvchilardan birisiz: hech qachon ovozingizni ko‘tarmaysiz, talabalarning shaxsiy muammolariga tushunib yondashasiz. Lekin bu o‘quv va tarbiya jarayoniga yaxshi ta’sir qilmayapti: talabalar borgan sari o‘z vazifalarini bajarishdan bosh tortishyapti, talablarga quloq solishmayapti.

- Bu muammoda gap ovozning baland yoki pastligida emas, zero past ovozda ham hammaga eshittirib gapirish mumkin. Gap – o‘zingiz va qarorlaringizga bo‘lgan qat’iy ishonch va buni tasdiqlovchi qat’iy ohangdadir.

Fanning fidoyisi bo‘lib jon kuydirayotganingizga talabalarni ishontirishingiz o‘ta muhim: siz talabalarning kelgusida yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishini o‘ylayapsiz, bunda sizning aniq ish rejangiz bor va siz uning so‘zsiz bajarilishini talab qilmoqchisiz. Siz hamma maqtaydigan o‘qituvchilar haqida nima deyishlarini eslang : “Odatda hamma maslahat so‘rab, “ipakday muloyim” ustoz oldiga emas, balki qat’iyatli o‘qituvchi oldiga borishadi.



6-topshiriq. “Jamoaviy hikoya” metodi

Kichik guruhlarga berilgan rasmlar asosida hikoya tuzish vazifasi beriladi. Guruh a’zolari rahbar, rassom, muharrir, matn tuzuvchini o’zlari tanlaydilar. Bu metod ham muloqot odobi, bir maqsadda birgalikda ishlash, bir-birining fikrini eshitish va hurmat qilish xislatlarini tarbiyalaydi.

7- topshiriq. “Tayyorgarlik mashqi” metodi

Guruh jamoaga bo‘linadi. Har bir jamoa a’zosiga she’rlar beriladi va quyidagi tartibda o‘qib berish vazifasi topshiriladi:

- pulemyot tezligida;
- ariga o‘xshab;
- sovqotgan odamday;
- robot kabi;
- yosh boladay;
- qattiqqo‘l ota-onaday;
- yumshoq buvijonday;
- toshbaqa tezligida;
- yo‘lbars kabi (sekin va birdan tezlashish va h.)

Eng yaxshi deklamatsiya qilgan jamoa a’zosi aniqlanadi.

8-topshiriq. “Pozitsion muloqot” o‘yin metodi

Rasmiy o‘yinning maqsadi: bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ vositalari diapazonini kengaytirish, talabalar bilan pedagogik muloqotning samarali individual uslubini izlash orqali pedagogik takt qirralarini ko‘rsatish.

Mazkur o‘yinli texnologiya 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda o‘qituvchi guruhdagi ikkita talaba - katnashchini “o‘qituvchi-talaba”ning o‘zaro munosabatiga oid tanish vaziyatlardan birini ko‘rsatib berishni so‘raydi. Qolgan talabalar o‘qituvchi sifatida qolishadi. Tanish vaziyatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Talaba darsga kelmaydi, o‘qituvchi uni chaqirtiradi”, “Guruhda o‘zlashtirish pasayib ketdi” va hokazo.

Tanlangan vaziyat berilgan kommunikativ pozitsiyaga mos namoyish etiladi: o‘qituvchi qattiqqo‘l, rasmiy-xukmli uslubda so‘zlaydi, “talaba” esa o‘zini oqlashga harakat qiladi, o‘qituvchining tanbehini jim eshitadi.

Vaziyat ko‘rsatib bo‘lingandan so‘ng: talaba bunday suhbatdan qanday hissiyot va taassurot oldi, o‘qituvchi o‘zini qanday his qildi, mazkur vaziyat guruhda qanday fikr uyg‘otdi degan savollarning umumiy muhokamasi o‘tkaziladi.

Aslida davomati va o‘zlashtirishi yaxshi, lekin ushbu vaziyatda “muammoli talaba” rovida chiqqan talaba ko‘pincha keskin ta’sir choralari, buyruq ohangi oxir-



oqibatda nafaollik, tushkunlik va baʼzan jahldorlikka ham olib kelishini taʼkidlaydi.

Guruh qatnashchilari talabalar bilan faqat avtoritar uslubda muloqot qilish pedagogik maqsadga erishish uchun samarasiz degan fikrga toʻxtaldi.

2-bosqichda ham oʻqituvchi -talaba muloqoti vaziyati olinadi, lekin rollar almashadi, kommunikativ pozitsiyalar oʻzgaradi. Garchi talaba oʻzini takabbur, manman va gʻashga tegadigan darajada tutsa ham “Oʻqituvchi” rolidagi qatnashchiga ovoz ohangini oʻzgartirish taklif qilinadi. 2-bosqich natijalarining jamoaviy muhokamasi oʻqituvchining talabaga bogʻliqlik vaziyati nima sababdan yuzaga kelishi, uni qanday oldini olish va bartaraf etish mumkinligi tahliliga bagʻishlanadi.

3-bosqichda yuqoridagi vaziyatlar misolida talaba bilan psixologik toʻlaonli muloqotni oʻrnatishga koʻmaklashuvchi usul va vositalarni aniqlash, shu bilan birga pedagogik boshqaruv pozitsiyasini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Guruh oʻqituvchining talabalar bilan suhbatini qanday boshlashi, qanday gapirishi va qanday frazalardan foydalanishi, bu suhbat qanday ruhda olib borilishi zarurligini muhokama qiladi.

9-topshiriq. “Konsensus” metodi.

Qatnashchilar 5-6 kishidan iborat ekipajlarga boʻlinadi. Quyidagi mazmunda ularga pedagogik vaziyat beriladi: “Sizning kemangiz Tinch okeanda talofatga uchradi. Ekipaj kichik narsalarni olishi kerak (narsalar roʻyxati boʻladi). Vaqt ziq, shoshilinch harakat qilinmasa, hamma narsa choʻkib ketishi mumkin”. Pedagogik vaziyat boʻyicha topshiriqlar:

1) 15 daqiqa ichida kerakli narsalarning individual roʻyxatini tuzish kerak. Bunda eng kerakliligiga qarab joylashtiriladi: (№1 – eng kerakli narsa, №15 – eng befoyda narsa kabi).

2) Keyingi 45 daqiqa ichida yagona jamoa roʻyxati taqdim etiladi: bunda ovozga qoʻyish man etiladi har bir jamoa – ekipaj aʼzosi roʻyxatdagi narsalar, ularni zarurligiga samimiy rozi boʻladi.

3) Yakuniy roʻyxat muhokamasi oʻtkaziladi, jamoa vakili har bir narsaning olinish sababini tushuntiradi.

Har bir guruhda roʻyxat muhokamasida ishtirok etmaydigan bitta kuzatuvchi boʻlib, u quyidagilarga eʼtibor beradi:

- oʻzga fikrni eshitishyaptimi?
- oʻzga fikrga samimiy qoʻshilishyaptimi?
- oʻz fikrida qatʼiy turibdimi (baqirdi, isbotladi, bosim oʻtkazdi, aldadi)?



10-topshiriq. “Mening muloqoti og‘ir talabam” treningi

Treningdan maqsad: bo‘lajak o‘qituvchilarning muomala odobiga ega bo‘lmagan talabalar bilan ishlashning samarali usularini aniqlash va tajriba almashish.

Muloqot madaniyatidan yiroq talabalar muammosini jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun guruh doira shaklida o‘tiradi. Har bir qatnashchi 10-15 daqiqa davomida talabalar bilan pedagogik muloqotdagi eng qiyin vaziyatlar haqida axborot beradi. U bunday vaziyatlarda nimani his qilgani, hayajonlangani, shuningdek, u yoki bu ta’sir metodini qo‘llaganda qanday natijaga erishganligini guruh a’zolarining e’tiboriga havola etadi. Bitta mashg‘ulot davomida real kasbiy tajribadan, shu o‘rinda malakaviy pedagogik amaliyotdan olingan 4-5ta vaziyat muhokama qilinadi.

Jamoaviy muhokamada quyidagi maqsadlarga erishiladi: amaliyotchi-talabalar yoki o‘qituvchi o‘z faoliyatidagi eng qiyin vaziyatlardan biri haqida gapirar ekan, jamoadoshlaridan dalda oladi.

Jamoada, shuningdek, tajriba almashiladi. Pedagogik faoliyatdagi shunday muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda o‘qituvchida nima gapirish kerak, nima qilish kerak, qanday pozitsiyada turish kerak degan aniq pedagogik vazifalarni hal qilish uchun pedagogik-psixologik treninglarni qanday qo‘llashni ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

KEYS

Mavzu: “O‘qituvchi imidji va pedagogik nazokat”

Ushbu keysning maqsadi: O‘qituvchi imidjining ahamiyati, kiyinish madaniyati haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish; muammoli vaziyatlarni tahlil etish va asoslangan qarorlarni qabul qilish, tashqi ko‘rinish, xususan, kiyinish madaniyati va muomala madaniyatining uyg‘unligini tahlil qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarda yuksak did, muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) pedagogik taktning muhim elementlaridan bo‘lgan muomala madaniyatining asosiy kommunikativ sifatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish;
- 2) o‘qituvchi imidji va kiyinish madaniyati haqidagi bilimlarini tahlil qilish;
- 3) tashqi ko‘rinish, xususan, kiyinish madaniyati va muomala madaniyatining uyg‘unligi haqida fikr yuritish:



4) yuksak did, muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muloqot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, kommunikativ sifatlari, pedagogik takt, pedagogik nazokat, o'qituvchining muomala odobi kommunikativ kompetentlik, kiyinish madaniyatining etik va estetik jihatlariga haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Axborot manbalari:

1. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. –T., 2014.

2. Golovko Ye.A. Texnologiya formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti molodyyh spetsialistov na etape adaptatsii k pedagogicheskoy deyatel'nosti. Stavropol, 2004.

Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi: Ushbu keys syujetsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning ob'ekti kiyinish madaniyati bilan bog'liq muloqot kompetensiyasining maqbul variantlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Hajmi o'rtacha, treningga mo'ljallangan. Mavzu yuzasidan ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish, uni amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashga yo'naltirilgan.

Salomatlikka tahdid solayotgan «moda»

Oila mustahkamligining muhim omillaridan biri farzandlar sog'lomligidir. Buning uchun esa avvalo ona sog'lom bo'lishi kerak. Xo'sh, bugungi kunda qizlarimizning — ertangi onalarning sog'ligiga yetarlicha e'tibor beryapmizmi? Ularni chiroyli kiyintirib, barcha orzu-istaklarini bajo keltirishga urinamiz, kelajakka tayyorlab, ro'zg'or ishlarini o'rgatamiz. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy qilib tarbiyalayapmiz. Ammo o'sha «zamonaviylik»ning shartlari qizlarimizning ertangi mas'uliyatlariga zid kelmayaptimikin? Boz ustiga agar qizlarimiz o'qituvchilik kasbini tanlagan bo'lsachi?

Kiyimning vazifasi nimalardan iborat? Tanani issiq-sovuq, tashqi ta'sirlardan himoya qilish va qulaylik yaratishdir. Afsuski, so'nggi paytlarda libos o'z mohiyatini yo'qotib boryapti. Chiroyli kiyinishga intilish asnosida qulaylik, salomatlikka foydali tomonlari nazardan chetda qolyapti. Hozirgi «moda»ning eng «og'riqli» joyi — torligi. Qizning shimi etiga terisidek yopishgan. Shifokorlarning ta'kidlashicha, muntazam va ayniqsa tor shim kiyish organizmda modda almashinuvini izdan chiqaradi, ginekologik va endokrinologik kasalliklarga sabab



bo‘ladi, bepushtlikni rag‘batlantiradi. Buning ustiga, hozirgi kiyimlarning aksariyati tabiiy emas, sun‘iy matolardan tayyorlanmoqdaki, bu tanani bir nechta qulayliklardan bebahra qiladi. Zamonaviy qizimizning tashqi olamiga nazar tashladik. O‘yga toldik: kiyinishidagi zo‘rma-zo‘rakilik, sun‘iylik ichki olamidagi nozik hilqat — ko‘ngilga daxl qilmasmikin, ishqilib?

Hamma qizlar chiroyli bo‘lishni istashadi. Shu o‘rinda bir misol: Hollivud aktyorlari bilan maxsus ichki (ma‘naviy) va tashqi (jismoniy) go‘zallik mutanosibligi to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazilar ekan. Chunki ma‘naviy qiyofa hamisha insonning yuz ko‘rinishida aks etadi: zolim, tafakkursiz odam hech qachon «istarali» bo‘lmaydi. Shu bois aktyorlar zulm, johillik qilmaslikka urinadilar. Demak, eng asosiy pardozimiz qalbdagi bo‘lishi kerak.

Matn: “Muloqot madaniyatining asosiy kommunikativ sifatlari.”

O‘qituvchining birlamchi va asosiy quroli nutq bo‘lsa, har qanday ta‘limning asosiy va yetakchi shakli darsdir. Darsning mukammalligi va natijaga erishishini ta‘minlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatining ko‘zgusi – so‘zdir. O‘qituvchining mahorati faqat o‘qitishning xilma-xil metodlarini o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olishdangina iborat emas, balki talaba bilan muloqotda tildan ustalik bilan foydalana olishi bilan belgilanadi.

Til madaniyati tilning madaniylashganlik, adabiylashganlik, me‘yorlashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, potensial ifoda imkoniyatlarining ko‘lamdorligini ifoda etadi (E.Begmatov). Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o‘ta muvofiq va ta‘sirchan bir tarzda foydalana olishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir (N.Mahmudov). Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda mavjud bo‘lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg‘unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir. Nutqning ta‘sirchanligini tashkil etuvchi to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, boyligi, sofligi, jo‘yaliligi madaniy nutq, shu o‘rinda muloqotchanlikning asosiy kommunikativ sifatlari sirasiga kiradi.

Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchining talabalar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O‘qituvchining talabalar bilan o‘zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- talabalarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- talabalarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish;
- talabalarning yashirin qobiliyatlarini uyg‘otish.



Tavsiya etilayotgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- 1) muomala madaniyatining asosiy kommunikativ sifatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- 2) kiyinish madaniyati haqidagi bilimlarini tahlil qilish;
- 3) tashqi ko'rinish, xususan, kiyinish madaniyati va muomala madaniyatining uyg'unligi haqida fikr yuritish;
- 4) yuksak did, muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Keysda hozirgi yoshlarning kiyinish madaniyatidagi nomaqbullik, qulaylik, salomatlikka foydali va zararli jihatlari haqida, shuningdek, muloqotchanlikning asosiy kommunikativ sifatlari, pedagogik muloqot haqida so'z yuritilgan. Bu ma'lumot yozma nutqning ilmiy va publitsistik uslublarida bayon etilgan.

Keysdagi asosiy muammo: O'qituvchi imidjining bir qismi bo'lgan kiyinish madaniyatida didsizlik masalalariga barham berishda nutqning kommunikativ sifatlaridan foydalanish yo'llarini aniqlashtirish.

Keysni mustaqil yechish uchun ko'rsatmalar

Baholash mezonlari

Ishni tashkil qilish bosqichlari	Tavsiyalar	Baholash mezonlari (maksimal)
1. Keys bilan tanishish	Avvaliga keys bilan tanishish kerak. O'qib chiqish paytida keysni tahlil qilishga urinmang	-
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Berilgan axborotni yana bir bor o'qib chiqing. Siz uchun muhim ko'ringan bo'lim qismlarini ajrating. Kiyinish madaniyati, muloqot kompetentligi bo'yicha ma'lumotlarning asosiy joylarini o'zingizga belgilab oling.	-
3. Muammo va undan kelib chiquvchi vazifalarni shakllantirish	Muammoni shakllantirishda o'tilgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlaringizdan foydalaning	3 ball
4. Yoshlarning zamonaviy kiyinish madaniyati va u bilan bog'liq nutq mada niyatini tahlil qilish va	Muammoni aks ettiruvchi asosiy xususiyatlar: 1. Kiyinish madaniyatida me'yorning ahamiyati.	1 - 1 ball



tashxis qo‘yish	2. Nutq madaniyatining kommunikativ sifatlari tahlili 3. Belgilangan vazifalarni bajarish imkoniyatlarining mavjudligi	2 - 2 ball 3 - 1 ball
5. Yechimni ishlab chiqish va asoslab berish	Berilgan topshiriqlarni bajarish (pastda keltirilgan jadvalni to‘ldiring) va tavsiyalar ishlab chiqish	3 ball

Keys bilan ishlashni baholash mezonlari

86-100% / 8,6 - 10 ballgacha – «a’lo»

71-85% / 7,1 – 8,5 ballgacha – «yaxshi»

55-70% / 5,6- 7 ballgacha – «qoniqarli»

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

Guruh	Baholash mezonlari	
	Taqdimot (mazmuni, ma’nosi va xulosalarning isboti uchun) A’lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5	Muammoli masalaning yechimi (to‘g‘riligi va yechimning ketma-ketligi uchun) A’lo – 2 ball Yaxshi – 1,5 ball Qoniqarli – 1 ball Qoniqarsiz – 0,5 ball
1.		
2.		

Mazkur muammoning kelib chiqish sabablari va hal etish yo‘llarini “Muammo” texnologiyasi asosida tahlil etamiz:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Oqibat-lari	Muammoni hal etish yo‘llari
O‘qituvchi imidji va kiyinish madaniyatida didsizlik	Oilada shaxsiy ibratning yo‘qligi; kiyinish madaniyatining shakllanmaganligi; yuksak did haqidagi tasavvurning pastligi	Atrofdagi-larga kulgi li ko‘rinish; didsizligini namoyish etish; obro‘ga putur yetish	Ma’naviyatimizga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlar, etik va estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish; kommunikativ kompetentlikka oid sifatlarni ishga solib, kiyinishdagi didsizlikka barham berish va



			o'qituvchining o'ziga xos imidjini yaratishga ko'maklashish.
--	--	--	--

Keys muammosini hal qilishda “*Qadam – baqadam*” va “*Kontakt*” treninglardan foydalanamiz.

“*Qadam – baqadam*” treningining maqsadi: yuksak did va nutqning kommunikativ sifatlari, ya'ni kommunikativ kompetentlikni egallaganlik darajalarini aniqlash.

Treningdan kutiladigan natija: talabalar bir-birlariga muloqotning kommunikativ sifatlari va ularga qarama-qarshi so'zlar bilan tanishadilar, ularning nutqdagi o'rnini aniqlaydilar, bu so'zlarning ma'nosini tushungan holda o'z faoliyatlarida qo'llash darajasini belgilaydilar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot qadam-baqadam usuli asosida tashkil etiladi, ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har bir qadamda talabalar biron-bir topshiriqni bajaradilar.

1-qadam – talabalar o'qituvchi tomonidan tarqatma materialda yozilgan so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqishlari va har bir so'zning qarshisiga ahamiyati bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni yozishlari zarur:

- Nutqning to'g'riligi –
- Nutqning aniqligi –
- Nutqning mantiqiyliigi –
- Nutqning ifodaliligi –
- Nutqning boyligi –
- Nutqning sofligi –
- Nutqning jo'yaliligi –
- Nutqning ta'sirchanligi –

2-qadam – har bir so'zga ta'rif berish lozim.

3-qadam – kichik guruhlarga bo'linib, mazkur so'zlar ma'nosiga mos keladigan misollar (adabiyotdan, hayotiy) keltirish va kichik hikoyachalar tuzish.

4-qadam – guruhlar tuzgan hikoyalar, keltirilgan misollar bo'yicha savol-javob o'tkaziladi.

5-qadam – guruh ishlari baholanadi.

6-qadam – o'qituvchi mashg'ulotni yakunlaydi.

“*Kontakt*” – jamoaviy hikoya tuzish treningining maqsadi: ijodiy muhit va muloqotchanlikni yuzaga keltirish orqali estetik didni shakllantirish hamda og'zaki nutqni rivojlantirish.



Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Mashg'ulot avvalida raqamlar yozilgan qog'ozlardan bittadan oladilar va doira shaklida stullarga o'tiradilar. O'qituvchi talabalar bilan tuziladigan hikoyaning mavzusini belgilab oladi. Bugungi mavzu: "Kiyinish madaniyati".

Mashg'ulot talabalardan birining shu mavzu asosidagi hikoyasidan boshlanadi. Talaba hikoyaning eng qiziqarli joyida so'zlashdan to'xtab, "Hikoyaning davomi ... raqamli talabada" deydi. Raqami ko'rsatilgan talaba hikoyani to'xtagan joyidan mavzudan chiqmagan holda davom ettiradi. Bu talaba ham avvalgisi kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida "Hikoyaning davomi ... raqamli talabada" deydi. Mos raqam ko'rsatilgan talaba hikoyani joyidan boshlab davom ettiradi. Hikoyani davom ettirish davradagi talabalarning har biri ishtirok etmaguncha davom etadi.

O'qituvchi talabalarning hikoyalari bir-biriga mantiqan bog'liq va mazmunga ega bo'lishini kuzatib boradi hamda mavzudan, mazmundan chetga chiqsa, to'g'rilab boradi.

Hikoya to'liq tuzilgach, o'qituvchi minnatdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

Keys yuzasidan yakuniy xulosa

Pedagogning imidjida tashqi ko'rinishi ham, ichki dunyosi ham uyg'un bo'lishi kerak. Kiyinish madaniyatiga har doim e'tibor beradigan nozik did sohiblari – pedagoglar muomala madaniyatiga ham katta ahamiyat berishi shak-shubhasizdir.

5-amaliy mashg'ulot: PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIKNING MAZMUNI VA MOHIYATI. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

REJA:

1. Pedagogikada "kompetentlik" tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari.
3. Kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati va tahlili.
4. Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari
5. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda kompetentlik darajalari va tayanch kompetentlik turlari, kasbiy hamda kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyati va tahlili, tarkibiy qismlari, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari va texnologiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.



Amaliy mashgʻulotni tashkil etish va oʻtkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, soʻrovnomalar va interfaol taʼlim metodlaridan foydalaniladi.

1-topshiriq. Quyidagi vaziyatga eʼtibor bering, tahlil qiling. Pedagogik kompetentlikni ishga soling, muammo va uning yechimi haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

Siz talabalar uchun eng yaxshi oʻqituvchisiz: hech qachon ovozingizni koʻtarmaysiz, talabalarning shaxsiy muammolariga tushunib yondashasiz. Lekin bu oʻquv va tarbiya jarayoniga yaxshi taʼsir qilmayapti: talabalar borgan sari oʻz vazifalarini bajarishdan bosh tortishyapti, talablarga quloq solishmayapti.

- Bu muammoda gap ovozning baland yoki pastligida emas, zero past ovozda ham hammaga eshittirib gapirish mumkin. Gap – oʻzingiz va qarorlaringizga boʻlgan qatʼiy ishonch va buni tasdiqlovchi qatʼiy ohangdadir.

Fanning fidoyisi boʻlib jon kuydirayotganingizga talabalarni ishontirishingiz oʻta muhim: siz talabalarning kelgusida yaxshi mutaxassis boʻlib yetishishini oʻylayapsiz, bunda sizning aniq ish rejangiz bor va siz uning soʻzsiz bajarilishini talab qilmoqchisiz. Siz hamma maqtaydigan oʻqituvchilar haqida nima deyishlarini eslang : “Odatda hamma maslahat soʻrab, “ipakday muloyim” ustoz oldiga emas, balki qatʼiyatli oʻqituvchi oldiga borishadi.

2-topshiriq. “Atmosfera” treningi

Treningning maqsadi: kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali oʻquv xonasida hissiy xotirjamlik va ijobiy kayfiyat uygʻotish. Guruh qatnashchilari qulay joylashib oladilar va koʻzlarini yumadilar. Oʻqituvchi sokin va yumshoq ohangda matnni oʻqiydi: “Siz bilan yaqinda boʻlib oʻtgan quvonchli voqeani eslang. Nimani his qilyapsiz? Shu voqea bilan bogʻliq quvonch, qoniqish, xotirjamlik, huzur-halovat kabi hissiyotlarni eslang. Ichki baxtiyorlik holatingizni saqlashga harakat qiling, uni ijobiy hissiyotlar bilan toʻldiring.

Siz tasavvuringizdagi oʻquv xonasiga kirdingiz: oʻzingizni yengil va qatʼiyatli his qiling. Xonaga kirgach, talabalar bilan salomlashing, ularga jilmaying. Qattiqqoʻllik va xushmuomalalik kabi ichki holatni toping. Siz ish stoli tomon ketyapsiz. Gavgangizni qanday tutmoqchisiz? Oʻzingizga qulay tempni topishga harakat qiling. Talabalar oldida kasbiy mahorat, oʻzingizga ishonch, obroʻga



egalikni namoyish etish imkonini beradigan ichki temporitmni qo‘llab- quvvatlang. O‘zingizni erkin va dadil his qilish uchun qulay hatti-harakatni tanlang”.

Siz tanlagan qulay holat, unga mos harakat ritmi va muloqot uslubi o‘quv xonasidagi hissiy-ijobiy muhitni yaratishga imkoniyat berishini unutmang.

3-topshiriq. «Dialog» treningi.

Treningni maqsadi: o‘z fikr-mulohazalarini, manfaatlarini himoya qila olish malakasini shakllantirish, bu sohada o‘zida mavjud vositalarni boyitish, ziddiyatli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatini boshqara olish orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish

Guruhning ikki qatnashchisiga o‘zaro dialog vaziyatida ikki xil vazifa, maqsad qo‘yiladi. Ulardan biri ikkinchisini biror- bir narsaga (Masalan: sport tugragiga qatnashish, qaysidir badiiy kitobni mutoala qilishga, yangi kinofilmni ko‘rishga va boshqalarga) ko‘ndirishga, ikkinchisi esa unga yordam berishni butunlay rad etishga harakat qiladi. Shu bilan birga ular suhbat davomida axloq me‘yorlari doirasidan chiqmasliklari, o‘z xoxishlarini ishonchli dalillashlar asosida bayon etishlari lozim bo‘ladi. Trening dialog qatnashchilaridan biri ikkinchisining fikriga bo‘ysunmaguncha davom etadi.

4-topshiriq. Keyingi ikki yil ichida mutaxassislik faningiz, pedagogika va psixologiyaga oid qanday yangi ilmiy materiallar, maqola va adabiyotlarni o‘qib, tahlil qildingiz. Fikringizni bayon eting.

5-topshiriq. O‘rgangan ilg‘or tajribalaringizdan namunalar keltiring.

6-topshiriq. Quyidagi vaziyatga e‘tibor bering: Kimdir sizga baqiryapti. Balkim buning sababini bilarsiz, lekin baribir, sizga yoqmayapti. Bu vaziyatda o‘zingizni 3 xil tutishingiz mumkin:

1. Agressiv javob: siz ham baqirasiz, bu munosabatlarni yanada murakkablashtiradi.

2. Chekkaga chiqasiz: bunday chekinish va passivlik munosabatlarning sovuqlashishiga, ba‘zan barham topishiga olib keladi.

3. Eng qulay mavqeingizni tan oldirish: buning uchun o‘z nuqtai nazarinigizni himoya qiladigan jumlaning topish kerak bo‘ladi.

Bu jumla suhbatdoshingizda tajovuzkorlikni va himoyalani xohishini uyg‘otmasligi lozim. Chunki, maqsad bitta – yovlashishni to‘xtatib, muammoni bartaraf etish lozim. Umuman jahl chiqqanda o‘zini bosa olish, hissiyotlarga



berilmaslik eng yaxshi fazilat bo‘lib, bunda kommunikativ kompetentlikning o‘rni va ahamiyati muhimdir. muhim

7-topshiriq. Mavzuga oid 10 ta so‘z yashiringan skanvordni yeching

		a		u								‘	
o													
								‘					
				h						a		o	
								u					
					‘					h			
												h	
					‘		u			a			
	a					a							
a													a
							h	‘					
			u			h							
	a		h	‘									h
		‘		o	a	u	‘						

8-topshiriq. Kommunikativ kompetentlik bo‘yicha so‘rovnomalarga javob bering.

“Talabalarning kommunikativ kompetentligini tashxislash” so‘rovnomasi

Bunda so‘rovnomaga quyidagicha ball qo‘yiladi:

- agar berilgan fikr to‘liq ma’qullansa – 7b.;



- agar fikrga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslikda ikkilansa – 2dan 6 ballgacha;
- agar javob berilmasa – 0 b.
- agar so‘rovnomada fikr tugallanmasa, uni tugallash lozim.

1) Balki mening kamchiliklarim bordir, lekin men yaxshi inson ekanligimni bilaman.

2) Men muloqotda bo‘ladigan tengdoshlarimning ko‘pchiligini yaxshi insonlar deb hisoblayman. Men xarakterimdagi kuchli va kuchsiz tomonlarimni bilaman.

3) Mening kuchli tomonlarim

4) Mening kuchsiz tomonlarim

5) Mening xarakterimda yaxshi va yomon jihatlarim bor, lekin yaxshi jihatlarim ko‘proq.

6) Mening do‘stlarim turli vaziyatlarda o‘zini undoq yoki bundoq tutishi sabablarini odatda tushunaman.

7) Men o‘zimni hurmat qila olaman.

8) Mening tanishlarim va do‘stlarimning aksariyati hurmatga loyiq.

9) Men hayotdan nima hohlashimni bilaman. Masalan:.....

10) Do‘stlarim va guruhdoshlarim hayotdan nima hohlashlarini bilaman.

Masalan:.....

11) Men tengdoshlarim bilan kamdan-kam ziddiyatga boraman.

12) Men ota-onam bilan deyarli urushmayman.

13) Qarama-qarshiliklar jiddiy bo‘lsa ham, insonlar bilan doimo kelishishim mumkin.

14) Men insonlar bilan kelisha olaman.

15) Kim bilandir urushib qolsam, tezda yarashib keta olaman.

16) Muloqot jarayonida suhbat uchun mavzu topishim oson.

17) Men fikrimga qarshi fikrlaydiganlar bilan ham osuda suhbatlasha olaman va uning fikrini eshitaman.

18) Kingadir jahlim chiqsa, unga ko‘rsatmaslikka harakat qilaman.

19) O‘z fikrimni ochiq bayon qilishga qiynalaman.

20) Jamoaviy muhokamalarda soyada qolishni yoqtiraman.

21) Men birovlardagi yoqtirmaydigan jihatlarni yuziga ayta olaman.

22) Insonlar har xil bo‘ladi, bu juda yaxshi.

23) Insonlar har xil bo‘ladi, demak ular bilan o‘zingni har xil tutishing kerak.

24) Muloqot jarayonida, suhbatdoshni ham nuqtai nazari borligini hisobga olish kerak.

Shaxsning kommunikativlik darajasini aniqlovchi savolnoma
(T.A.Shishkoves bo‘yicha)



Izoh. Berilgan har bir fikrga tezda ijobiy “ha” yoki inkor “yo‘q” javobini bering.

1. Sizning do‘stlaringiz ko‘p.
2. Kimdandir yetgan hafalik hissi sizni uzoq bezovta qiladi.
3. Notanish insonlar bilan tanishishga intilasiz.
4. Vaqtingizni birov bilan muloqotga kirishishdan ko‘ra, kitob o‘qish yoki birorta mashg‘ulot bilan shug‘ullanib o‘tkazishni afzal ko‘rasiz.
5. O‘zingizdan yoshi kattalar bilan yengil muomalaga kirishasiz.
6. Yangi jamoaga qo‘shilganda noqulaylik sezasiz.
7. Notanish kishilar bilan bermalol gaplashib keta olasiz.
8. Yangi jamoaga osonlik bilan qo‘shilib keta olasiz.
9. Yangi kishi bilan tanishishi va suhbatlashishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanasiz.
10. Atrofdagilar sizning asabingizni buzadi va siz yolg‘iz qolishga intilasiz.
11. Atrofingizda ko‘pchilik bo‘lsa, o‘zingizni juda yaxshi his qilasiz.
12. Birov bilan tanishishda tashabbuskorlik qilishga qiynalasiz.
13. Guruhli, jamoaviy o‘yinlar – sizning sevimli mashg‘ulotingiz.
14. Yaxshi tanish bo‘lmagan kishilar orasida o‘zingizni bermalol his qilasiz.
15. Yaxshi tanish bo‘lmagan jamoada boshlovchi vazifasini osonlik bilan bajarasiz.
16. O‘z muloqot doirangizni ataylab toraytirasiz.
17. Barcha notanish jamoalarda o‘zingizni yengil va qulay his qilasiz.
18. Katta jamoalarda xabar-nutq gapirish kerak bo‘lsa, o‘zingizni yetarli dadil tutolmaysiz.
19. Sizning do‘stlaringiz ko‘p.
20. Yaxshi tanish bo‘lmagan kishilar bilan muloqotda o‘zingizni erkin his qilmaysiz.

Toq savollarga har bir ijobiy “ha” javobi uchun va juft sonlarga inkor “yo‘q” javobi 1 ball bilan baholanadi.

Natijalar tahlili:

Agar ballar yig‘indisi 10 balldan past bo‘lsa, sizdagi kommunikativ qobiliyatingizning rivojlanish darajasi past, siz qiyinchilik bilan muloqotga kirishadigan, odamovi kishisiz.

10-13 ball – sizdagi muloqotlikning o‘rta darajasini ko‘rsatadi.

14 ball va undan yuqori bo‘lsa kommunikativ qobiliyatning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Siz uchun muloqot jarayoni – jonu-dilingiz, atrofdagilar sizdagi energiya va xushchaqchaqlikni qadrlaydi.



9-topshiriq. “Pedagogik muloqot” treningi

Maqsad: Pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatishda muloqot vositalarining ahamiyatini ko‘rsatib berish. Pedagogik muloqot ta’sir kuchini oshirish. Talabalar diqqatini muhim narsaga qaratishga o‘rgatish. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida guruh bilan va har bir tahsil oluvchi bilan, u orqali esa butun guruh bilan muloqotda bo‘lishini tahlil qilish. Pedagogik muloqot jarayonining uzviy va tizimli bo‘lishini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Trening qatnashchilariga pedagogik muloqotning ko‘p qatlamlilikini e’tiborga olish, uning ta’sir ko‘rsatish kuchini oshiruvchi vosita ekanligini tushuntirilgandan so‘ng, quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Tartibni buzgan talabaga tanbeh bering.
2. Talabaga yoki guruhga iltimos, savol, taklif va talab bilan murojaat qilishni ifodalang.
3. Guruhda talabalarning o‘zaro munosabatlari bo‘yicha u yoki bu muammoli vaziyatni sharhlab bering.
4. “Diqqat qiling”, “Daftaringizni oching va yozing”, “Javob bering”, “Bu yerga keling” kabi o‘quvchilarga aytiladigan jummalarni 10 hil ohangda ayting.

10-topshiriq. “Muloqot ko‘nikmasi” treningi

Maqsad: Pedagogik kompetensiyani oshirishda zarur bo‘ladigan muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish.

Trening qatnashchilariga har bir yangi pedagogik vaziyatga kommunikativ moslashuvlar tizimini juda tez kirita olish malakalarini shakllantirish zarurati, ta’sir ko‘rsatishning har bir metodi muloqotga moslashish sistemasi bilan birgalikda o‘zgacha ohang, ahamiyat, kuch va yo‘nalish kasb etishini tushuntirilgandan so‘ng, quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

1. Mushaklar safarbarligini namoyish eting. Bunda quyidagilarni unutmang:

Mushaklar safarbarligi- har qanday so‘zga chiqishning zaruriy shaklidir. U diqqatning bir maqsadga qaratilgani va demak, nigoh yo‘nalishi, ko‘z qarashlari, nafas olish va umuman mushaklarning umumiy safarbarligi va aynan yelka, umurtqa sistemasining ixchamligidir. Bu gavdaning ishchan holati bo‘lib, barcha to‘siqlarni yengishga bo‘lgan safarbarligi tushuniladi. Mushaklar safarbarligini nutq so‘zlashdan oldin vujudga keltirish kerak. Shundagina o‘quvchilarda ham muloqotga tayyor bo‘lish ichki safarbarligi yaratiladi, va uning odatdagi asoslari yanada mustahkamlanadi. Bu o‘rinda notiqlar uchun quyidagi tavsiyanomani o‘qituvchilar uchun ham tegishli ekanligini eslash o‘rinlidir: minbar tomon borayotgan notiq- hozir hammaning diqqati unga qaratilishini sezadi. Shuning uchun ham, u tashqi ko‘rinishi bilan, o‘zining harakatchanligi, tinglovchilarga muhimroq axborotni aytishga tayyorligi va bunga hohishi borligini ham namoyish



qilishga intiladi. Notiqning jur'atsiz yurishi, yoki befarqligining sezilishi tinglovchilarda salbiy taassurot qoldiradi va kommunikatsiyaga kirishishga to'sqinlik qiladi.

1. O'quvchilar oldida bayramona nutq so'zlang. Bunda mushaklar safarbarligining nutqqa ta'sir etish holatlarini ko'rsatib bering.

2. Mimika, pantomimika, imidjning nutq va muloqotga ta'siri haqida fikr yuriting.

11-topshiriq. Pedagogik muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan bir necha mashqlarni bajaring:

Sinfga kirib mimika, harakat, imo-ishora vositasi bilan o'quvchilar diqqatini o'zingizga jalb qiling; pedagogik hayron bo'lish, maqsadga muvofiq shaklda to'liqlanishni ifodalang.

12- topshiriq. Darsda o'qituvchining o'quvchilar bilan doimiy muloqotini quyidagi sxema asosida tekshiring:

- darsda bir o'quvchi yoki guruh bilan muloqotda bo'lib, beixtiyor boshqalarni nazardan chiqarib quyadigan paytlar bo'ladimi?

- har doim dars davomida hamma o'quvchilarni "pedagogik nazorat" da ushlab tura oladimi?

- qaysi o'quvchi bilan qoniqarli muloqot tashkil etilmadi? Bu to'g'risida mulohaza yuriting;

- darsda har bir o'quvchi uchun mos bo'lgan individual muloqot usullarini tanlab olinganligini tahlil qiling;

- o'qituvchining sinf, guruh bilan muloqotni amalga oshirish qobiliyatini tekshiring;

- frontal, guruh bilan muloqotda bo'lgan holda shaxslarni o'zaro ta'sir ko'rsatish individual muloqotni ham tashqil eta olinishini tekshiring;

- darsda o'quvchilarning o'zaro muloqoti qanchalik maqsadga muvofiq holda tashkil etilganligini tahlil qiling;

- darsda o'quvchilar bilan ruhiy "nigoh" o'rnatish darajasini baholang, bu jarayondagi kamchiliklarni ko'rsating.

13- topshiriq. O'z ustida ishlash va o'z-o'zini ishontirishning pedagogik kompetensiyani oshirishdagi ahamiyati to'g'risida qarashlaringizni bayon eting

14- topshiriq: Insonning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashga oid testlar tuzing va ularni yeching.



6- amaliy mashg'ulot: PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY FAOLIYATNING O'RNI

Reja:

1. O'qituvchiga xos bo'lgan ijtimoiy- shaxsiy sifatlar.
2. Ijodkorlik so'zining ijtimoiy adabiyotlarda talqini.
3. Ijodkor – novator o'qituvchilarning ish tajribalari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda kasbiy va kommunikativ kompetentlikning mazmun mohiyatidagi uyg'unlik, pedagogik muloqotning ko'p qatlamliligini e'tiborga olish, pedagogik muloqot jarayonining uzviy va tizimli bo'lishini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

1-topshiriq. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylarning mudarrislar va ularni tanlash, ularga qo'yilgan talablar, ustoz-shogirdlik munosabati, muomala madaniyati to'g'risidagi pedagogik qarashlarini o'rganing

2-topshiriq: Yan Amos Komenskiy, Adolf Disterveg, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va hozirgi kun pedagoglarining pedagogik mahorat va kompetensiyasi haqidagi qarashlarini interaktiv strategiyalar, grafik organayzerlar asosida tahlil qiling.

3-topshiriq: INTERNET ma'lumotlariga asoslanib, pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlik masalalarini tahlil qiling. Individual yoki guruhiy axborotlar tayyorlang.

4-topshiriq: Pedagogik faoliyat tarkibiga kiruvchi, pedagogik mahorat va kompetentlikka yetaklovchi kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni ajrating. Pedagoglik faoliyatida o'ta zarur ko'nikmalar ro'yxatini tuzing. Shunga qarab, pedagog shaxsining kamolotida pedagogik -psixologik hislatlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlang.



5-topshiriq: Ta’lim-tarbiya islohoti davrida o’qituvchi shaxsini qaysi sifatlar va fazilatlar tavsiflaydi? Endi ish boshlayotgan o’qituvchilar pedagog xarakterining qaysi xususiyatlarini o’zida mujassamlantirishni rejalashtiradilar? Talabalar o’qituvchida qaysi sifatlarni yuqori baholaydilar? Javoblaringizni yozma izohlang.

6-topshiriq: “O’qituvchining mas’uliyati va unga quyilayotgan talablar” mavzularidagi munozaraga tayyorlaning.

7- topshiriq: Mavzuni quyidagi “B-B-B” jadval asosida o’rganing:B-B-B
JADVALI

O’rganiladigan masala	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Pedagogik faoliyat va uning o’ziga xosligi			
2. Pedagogik mahorat mohiyati, uning tarkibiy qismlari			
3. Pedagogik kompetensiya ning mazmuni va mohiyati			
4.Kommunikativ kompetentlikning mazmuni			

8-topshiriq.

Quyidagi blis-so‘rov savollariga javob bering

Nº	Savol	Javob
1.	Kompetensiya nima?	
2.	Pedagogik kompetensiya nima?	
3.	Pedagogik texnika tarkibiga nimalar kiradi?	
4.	Pedagogik takt xususiyatlari nimada?	
5.	Pedagogik kompetensiyani oshirish uchun qanday sifatlarni shakllantirish kerak?	
6.	Pedagogik qobiliyatlar to‘g‘risidagi fikr bildiring	



V. KEYSLAR

Keys №1. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish

Hammanizga yaxshi ma'lumki, oliy ta'limda seminar mashg'ulotlari talabalarda o'rganilgan materiallarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazilish tartibiga e'tibor qarataylik. Odatda, seminar mashg'ulotlarini assistent o'qituvchilar olib borishadi. Seminar mashg'ulotlarini ham tashkil etishda xilma-xil yondashuv mavjud. Ba'zi professor-o'qituvchilar mashg'ulot jarayonida tayyorlanib kelgan talabalardan so'raydi, ularni baholab qo'yish bilan cheklanadi. Kimdir ommaviy tarzda savol-javob o'tkazish orqali maqsadga erishishga harakat qiladi. Biroq reyting tizimi qoidasiga ko'ra, har bir seminar mashg'ulotida talabalarning bilimni tekshirib, belgilangan mezon doirasida hammaning ball olishiga erishish lozim. Lekin ko'pchilik o'qituvchilar bunga erishish imkoniyati yo'q, deb hisoblashadi. Ayrimlar esa talabalar yozib kelgan konspekt va faolliklariga asoslangan holda ball qo'yib berish mumkin, deb hisoblashadi.

Vaziyatni baholash uchun savollar: Seminar mashg'ulotlarini assistent o'qituvchilar samarali tashkil etmoqdalar deyish mumkinmi? Seminar mashg'ulotini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak? Seminar mashg'ulotlarida kutilgan natijaga erishish maqsadida ishni qanday tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq? Seminar mashg'ulotlarida talabalarning hammasini baholashga qanday erishish mumkin?

Vaziyatni o'rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud seminar mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

Strength – kuchli tomonlar	
Weakness – zaif tomonlar	
Opportunities – imkoniyatlar	
Threats – tahdidlar	

Keys №2. O'quv portfoliosi.

Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan yana bir muhim vazifalardan biri talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga barqaror



dominantni yaratish, oʻzida ongli va maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishdir. Boʻlajak pedagoglarda kelajakda raqobatbardosh, safarbar boʻlishlari uchun ularda mustaqillikni shakllantirish juda muhim. Aynan talabalarda mustaqillikni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogga “Portfolio” texnologiyasi yordam beradi. “Portfolio nima?” degan savolga olimlar xilma-xil taʼrif berishgan. Masalan 1) nazorat vositasi (I.A. Knys, I.P. Pastuxova); 2) professor-oʻqituvchining baholashga doir faoliyati vositasi (G.B. Golub, O.V. Churakova); 3) taʼlim natijalarini belgilab beruvchi muqobil vosita yoki texnologiya (L.Vanyushkina, T.G.Novikova, M.A.Pinskaya, A.S.Prutchenkov); 4) talabaning zarur va istiqbolli imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini koʻrsatib berish, shaxsiy, kasbiy va ijodiy salohiyatini ochib berishning obʻektiv va maksimal ravishda toʻliq aniqlash vositasi (I.A. Knys, I.P. Pastuxova); 5) talabalarning faqat oʻquv faoliyati natijalarinigina emas, balki ularning muvaffaqiyatiga turtki boʻlgan barcha kuch va imkoniyatlarni har tomonlama namoyish qilishga doir ish toʻplami (I.Aldjanova).

Oʻquv portfolioning xilma-xil turlari mavjud: 1. “Hujjatlar portfoliosi”. Bunday turdagi portfolio indiviudal taʼlimiy muvaffaqiyatlarning sertifikatlangan portfeli: diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar. 2. “Ishlar portfoliosi” oʻzida turli xil ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini aks ettiradi: reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy amaliyotga doir hisobotlar. Mazkur portfolioda talaba mustaqil va guruhdoshlari bilan birgalikda toʻplagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joylanadi. 3. “Taqrizlar portfoliosi”da talabaning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi. 4. “Natijalar portfoliosi” belgilangan yoʻnalish boʻyicha egallanuvchi talabalar mahoratini jamlash uchun qoʻllaniladi; talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlarini oʻzida aks ettiradi. Natijalar portfoliosi individual va guruhli boʻlishi mumkin. Guruh natijalari portfoliosi gʻoyasidan “Eng yaxshi talabalar guruhi” konkursida foydalanish mumkin. 5. “Baholovchi portfolio” talabalarning egallagan bilim va koʻnikmalarini nazorat qilish uchun yigʻiladi va turli xildagi nazorat materiallaridan tashkil topadi: nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar. Baholovchi portfolioni pedagog mustaqil ravishda tuzishi va taʼlim olish kursi tugashigacha boʻlgan vaqtga moʻljallashi mumkin.

Hozirgi vaqtda oʻquv portfoliosidan oliy taʼlimda foydalanishga harakat qilinmoqda. Asosan, tillarni oʻrgatish jarayonida oʻquv portfoliosini qoʻllashga harakat qilinmoqda.



Vaziyatni baholash uchun savollar: Siz nima deb o‘ylaysiz, o‘quv portfoliosini oliy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyati bormi? Agar qo‘llash mumkin bo‘lsa, o‘quv portfoliosining qanday turlaridan foydalanish mumkin? O‘z faningiz bilan bog‘liq holda, o‘quv portfoliosini qo‘llash imkoniyatlari haqida fikr bildira olasizmi?

Vaziyatni o‘rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud o‘quv portfoliosidan foydalanish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

Strength – kuchli tomonlar	
Weakness – zaif tomonlar	
Opportunities – imkoniyatlar	
Threats – tahdidlar	



VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Pedagogika	Pedagogika – ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlari haqidagi fandır	Pedagogy is the art or science of teaching and educational methods
Pedagogik mahorat	Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xusu-siyatlari sintezi	It is an art of communicating a message with impact on audience.
Metod	Metod – eng umumiy ma’noda maqsadga erishish yo‘li, usuli	Method – a way of reaching the goal in a systematic way
O‘qitish metodi	O‘qitish metodlari ta’lim maqsadiga erishishga doir usul va qoidalar yig‘indisi	Teaching methods – the principles and methods of instruction
Akmeologiya	Insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i	Acmeology is a new direction of interdisciplinary researches of the person. It is a science studying laws and mechanisms of development of the person during its maturity.
Takt	Takt ahloqiy tushuncha bo‘lib, u insonlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solishni talab etadi	Tact is a verbal operant which is controlled by a nonverbal stimulus (such as an object, event, or property of an object) and is maintained by nonspecific social reinforcement
Pedagogik taktika	Pedagogik takt – o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, o‘quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir o‘tkazish, muloqotni insonparvarlik	The pedagogical tact is the the base of professional skill of a teacher, which helps in communication with children in the most diverse fields of activity, the ability to choose



	tuygʻulari asosida oʻrnatish oʻlchovi, oʻquvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish koʻnikmalarini hosil qilish shaklidir.	the right approach to students
Nutq	Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikrdir	Speech is the vocalized form of communication used by humans, which is based upon the syntactic combination of items drawn from the lexicon.
Qobiliyat	Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri boʻlib, bilim, koʻnikma va malakalarni egallash dinamikasida aks etadi	Possession of the qualities required to do something; necessary skill, competence, or power
Kommunikativ qobiliyat	Oʻqituvchining taʼlim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni oʻrnata olish koʻnikmasi	Communication skills are the key to develop friendships and build a strong social support network with students and other group of people, in order to achieve a pedagogical aim
Pedagogik artistizm	Pedagogik artistizm – pedagogik ijodkorlikning barcha bosqichlarida oʻz aksini topuvchi voqelikdir.	Pedagogical artistry is the phenomenon functioning with varying degrees of activity in the process of pedagogical creativity.
Artikulyatsiya	Nutq organlarining muayyan tovushni talaffuz qilishdagi faoliyati.	Manner of articulation describes how the tongue, lips, jaw, vocal cords, and other speech organs are involved in making a sound make contact.
Battarizm	haddan ziyod tezashtirilgan nutq. Bunda soʻzlar nihoyatda tez, noaniq talaffuz etilishi, fikrning izchil bayon etilmasligi kuzatiladi.	Pathologically accelerated rate of speech, in which there is an incorrect formation of the phrase, the words are pronounced indistinctly, do not



		agree.
Verbal muloqot	ikki yoki undan ortiq shaxslarning soʻz, nutqiy vositalar yordamida fikr almashinishlari.	Verbal communication refers to the use of sounds and language exchange ideas
Noverbal muloqot	axborot, fikrni soʻzlashuv nutqidan boshqa tana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, xatti-harakat va b.)	Forms of communication which do not rely on the spoken or written word
Intonatsiya	(lot.intonare-qattiq talaffuz qilaman), nutqning ritmik-melodik tomoni, gapning sintaktik maʼnolari va emotsional tomonlarini ifodalash vositasi	intonation is variation of spoken pitch that is not used to distinguish words; instead it is used for a range of functions such as indicating the attitudes and emotions of the speaker
Istiora (metafora)	bir predmet-hodisaga xos xususiyatni boshqa predmet-hodisaga ular oʻrtasidagi oʻxshash belgi asosida koʻchirish.	Metaphor is a figure of speech that makes an implicit, implied, or hidden comparison between two things that are unrelated, but which share some common characteristics.
Kommunikativ qobiliyat	kishilar bilan shaxsiy va ishga oid munosabatlarda qulaylik tugʻdiradigan shaxsiy qobiliyatlar majmui; oʻzgalarni tushunish, qoʻllab-quvvatlash, xayrihohlik va hokazo.	A complex of personal skills which creates an easy way of communication in personal and professional contacts; understanding the others, supportng and so on.
Kommunikativ malaka	kishilar oʻrtasida shaxsiy munosabatlarni oʻrnatish usuli.	The way of creating personal relationship
Kommunikativ kompetentlik	ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi. Aloqa va munosabatlar oʻrnatish, muloqotga moyillik	A social knowledge about how and when to use utterances appropriately



	layoqati.	
Kommunikativ madaniyat	yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik.	Ones having high level communication skills
Kommunikativ texnologiya	shaxslarning o'zaro muloqotga kirishishini ta'minlovchi texnologiya.	Technology which helps people to communicate
Leksika	tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, ya'ni tilning lug'at tarkibi.	A lexicon is the vocabulary of a person, language, or branch of knowledge
Logik urg'u	so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash maqsadida gapdagi biror so'zni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.	Logical Stress serves to mark the semantic center of the utterance (a word or a word-group that carries new information important for the speaker).
Mimika	(yunon.mimikos-taqlid qiluvchi) –turli his-tuyg'u va emotsiyalarning yuz mushaklari harakatlari va imo-ishoralar orqali ifodalanishi.	It is a form of non-verbal communication or non-vocal communication in which visible bodily actions communicate particular messages, either in place of, or in conjunction with, speech. Gestures include movement of the hands, face, or other parts of the body.
Muomala madaniyati	atrofdagilar bilan munosabatlarini jamiyatda ishlab chiqilgan insonparvar qadriyatlar va me'yorlarga asosan olib borish	culture of speech is the correctly usage of words and sentences, following the standards of word usage and norms of literary language.



VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5763-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF- 5789sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
11. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. Ucheb. pos. 4-ye izd. –M.: Shkolnaya pressa, 2004.
12. Golovko Ye.A. Texnologiya formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti molodyx specialistov na etape adaptatsii k pedagogicheskoy deyatel'nosti. Stavropol, 2004.



13. Zanina L.V., Menshikova N.P. Основы педагогического мастерства. – Ros-tov-na-Donu, 2003
14. kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse VUZa: Monografiya / – Kolomna.: Pozitiv, 2012.
15. Yakusheva S.D. Основы педагогического мастерства. Uch.pos. – Orenburg. 2004.
16. Zimnyaya I.A. Ключевые компетентности как результативно- selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. Moskva, 2014.
17. Ziyabkina I.G. Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja. M.,2014.
18. Yemelyanova M.V., Jurlova I.V., Savenko T.N. Основы педагогического мастерства: Kurs leksiy dlya studentov dnevnoy i zaочноy otdeleniy pedagogicheskogo universiteta. – Мозыг: УО «МГПУ», 2005. – 150 s.
19. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
20. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
21. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. // O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2004.
22. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T., 2010.
23. Ishmuxamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.
24. Nurmonov A. Talabalarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma’rifat” gaz. 2014 y. 18-son.
25. Maxmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
26. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. – T., 2014.
27. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv materiallari. – T., 2009.
28. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
29. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va b.) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.

IV. Internet saytlar

30. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.



31. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
32. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
33. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet
34. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.